

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligi**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

A. Vahobov, A. Ibrohimov, B. Xakimov

**IQTISODIY TAHLIL NAZARIYASI
o'quv qo'llanma**

Toshkent-2003

Iqtisodiy tahlil nazariyasi. O'quv qo'llanma
/A. Vahobov, A. Ibrohimov, B. Xakimov
Toshkent Moliya instituti, Toshkent 2003, 176 b

O'quv qo'llanmada iqtisodiy tahlilning mazmuni, predmeti, vazifalari, usullari, tamoyillari, turlari, unda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar, iqtisodiy axborotlar manbalari, ko'rsatkichlar o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar yoritib berilgan.

O'quv qo'llanma iqtisodiy yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlari, kollejlarda ta'lim olayotgan talabalar hamda iqtisodiy tahlil bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

Toshkent Moliya instituti "Moliyaviy
tahlil" kafedrası i.f.n., dots.

Shoyakubov SH.

TDIU i.f.n., dots. Xomidov A.A.

Toshkent Moliya instituti, 2003.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida amalga oshayotgan iqtisodiy islohotlar bosqichma-bosqich bozor munosabatlarini takomillash-tirib, aniq sharoitga moslashib bormoqda. Ushbu jarayonda barcha iqtisodiy dastaklar davr talabi asosida yangilanmoqda. Bu borada iqtisodiy fanlar yo'nalishida ham ko'plab tadbirlar ishlab chiqilib amaliyotga tadbiiq etilmoqda. O'zida davr ruhini singdirgan, mazmunan yangilangan nazariy asoslar kadrlar sifatini oshirishda o'ta muhim ahamiyatga ega. Mazkur fikr bevosita iqtisodiy tahlil faniga ham tegishlidir.

Korxonalarni samarali faoliyatlarini ta'minlash va shu asosda belgilangan maqsadlarga erishish, avvalo, mavjud imkoniyatlardan to'g'ri foydalanishga bog'liqdir. Bu esa, kadrlardan xo'jalik faoliyatini iqtisodiy tahlil qila bilishni talab etadi. Shu bois islohotlarning hozirgi bosqichida iqtisodiy tahlil fanini yanada takomillashtirish hamda ommalashtirish zarurati kelib chiqmoqda. Iqtisodiy tahlil fanining nazariyasiga bag'ishlangan mazkur o'quv qo'llanma ham aynan shu maqsadda yozildi.

O'quv qo'llanma iqtisodiy yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlari uchun iqtisodiy tahlil nazariyasi fani bo'yicha belgilangan o'quv dasturlari asosida bajarilgan. O'quv qo'llanmada iqtisodiy tahlilning predmeti, usullari, tamoyillari, vazifalari, turlari va boshqa tomonlari yoritib berilgan. Shuningdek, xo'jalik sub'ektlarida iqtisodiy tahlilni tashkil qilish masalalari ham bugungi kun talabi asosida ko'rsatilgan. Korxonalarning biznes faoliyatini baholash mezonlari ya'ni, iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi va ularga ta'sir etuvchi omillar, har bir alohida olingan omilni asosiy ko'rsatkichga ta'sirini miqdor jihatdan o'lchash tartiblari bayon etilgan.

Ushbu o'quv qo'llanma iqtisodiy yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlari, kollejlari talabalari hamda iqtisodiy tahlil bilan qiziquvchi kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

I. Iqtisodiy tahlil boshqaruvning muhim vositasi ekanligi va uning tamoyillari

- 1. Bilish nazariyasi va iqtisodiy tahlil.**
- 2. Iqtisodiy tahlil boshqaruvning muhim funktsiyasi.**
- 3. Korxonada faoliyati samaradorligini oshirishda iqtisodiy tahlilning roli va o'rnini.**
- 4. Iqtisodiy tahlil fanining asosiy tamoyillari.**
- 5. Iqtisodiy tahlil fanining O'zbekistonda rivojlanishi.**

1. Bilish nazariyasi va iqtisodiy tahlil

Bilish nazariyasi - falsafa fanining fundamental uslubiy bo'limlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Uning vositasida ob'ektiv borliq ilmiy asosda o'rganiladi. Barcha fanlarning uslubiy asosi sifatida bilish nazariyasi iqtisodiy tahlilning ham mohiyati, zarurligi va tadrijiyligini aniqlab beradi.

Avvalo, mazkur nazariyada bilishning ob'ekti va sub'ekti tushunchasi belgilab beriladi. Birinchi tushuncha mazmunida ob'ektiv harakat ya'ni jamiyat rivojlanishining asosini tashkil etuvchi insonlar faoliyati yoki amaliyoti yotadi. Amaliyot va uning seziluvchi predmetlari ya'ni moddiy-buyumlashgan, ijtimoiy va ekologik mazmundagi tomonlari bilishning ob'ekti hisoblanadi.

Ikkinchi tushuncha esa insonning o'zi, jamiyat, insoniyat ya'ni, bilish ob'ektiga ijodiy yondashuvchi shaxslarni bildiradi.

Zamonaviy fanlarning usul va uslublarini umumlashtirib aytish mumkinki, bilish jarayonida quyidagi vositalardan keng foydalaniladi: analiz va sintez, eksperiment, modellashtirish. Mazkur vositalar, usullar, uslublar va yondashuvlar bevosita insonning fikrlash qobiliyati orqali amalga oshiriladi. Chunki, inson o'z mohiyatiga ko'ra barcha holatlarni analiz-sintez qiladigan qobiliyatga egadir.

Fikrlash ijodiy jarayon bo'lib u tushuncha, hukm va xulosani o'z ichiga oladi. Fikrlashda ob'ektiv reallik: hodisalar, buyumlar, ko'rsatkichlar xususiyatlariga ko'ra farqlanadi yoki guruhlarga ajratiladi ya'ni muayyan tushunchalar bo'lib yuzaga chiqadi.

Hukm orqali nimadir tasdiqlanadi yoki inkor qilinadi.

Ob'ektiv reallik analiz va sintez etilib tegishli xulosalar chiqariladi.

Insonning fikrlash jarayoni yoki analitik-sintetik faoliyati o'zaro bog'liq bo'lgan uch bosqichdan o'tadi: kuzatish, ilmiy abstraktsiya va yangi amaliy takliflarning shakllanishi yoki xulosa chiqarish.

Kuzatish bilishning hamda tahlilning dastlabki bosqichidir. Unda fikrlash-tahlil qilish uchun alohida olingan yoki ko'p turdagi faktlar yig'iladi. Bu esa fikrlashning keyingi bosqichlari uchun o'ta muhimdir. Kuzatish jarayonida to'plangan faktlar yuqori darajada nazariy tadqiqotlar olib borishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Abstrakt umumlashtirish bosqichida ko'p variantli mulohazalar va xulosalar nazariy yoritiladi. Mulohaza va hukmlarning ko'pligi eng maqbul echim topish ehtimolini kuchaytiradi. Abstrakt fikrlashda ob'ektiv ma'lumotlarga asoslangan holda ularni mantiqiy qayta ishlab hodisalarning mohiyati, mazmuni, rivojlanishini qonuniyatlari o'rganiladi. Buning natijasida umumiy xulosalarga kelinib amaliyotni takomillashtirishga yo'naltirilgan aniq takliflar ishlab chiqiladi.

Analitik tadqiqotning mantiqiy echimi abstraktdan aniqlikka o'tish usulida ya'ni nazariy holatlarni amaliy ishga aylanishida yaqqol namoyon bo'ladi.

Iqtisodiy tahlil-amaliy fandır. Agar u bilish nazariyasiga tayanib rivojlansa, insonning amaliy faoliyatida iqtisodiy samaradorlik oshadi. Bu esa fanning amaliy hayotda o'z o'rnini topganidan dalolat beradi. Empirik va nazariy tahlil joriy va yaqin istiqbollarni ratsional asoslash, o'rta va uzoq istiqbollarni belgilashda o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy tahlil dialektikaning asosiy tamoyillariga asoslanadi.

Ular quydagilardan iborat: har bir voqeilik doimo harakatda; o'zaro harakatda; o'zaro

bog'liqlikda; o'zaro shartlanganlikda; sabab-oqibat muvofiqligi; koordinatsiya va subkoordinatsiya aniqligi; zarurat va tasodif ko'rinishida; qarama-qarshilik kurashida; miqdor o'zgarishidan sifat o'zgarishiga o'tishida; inkorni inkor qilish va shu kabilar.

Tahlilning xususiyati, zaruriyligi va qimmatli tomoni, u voqea hodisalarni dinamikasini o'rganadi.

Bu jarayonda mazkur fan tadqiq qilish mumkin bo'lgan ob'ektiv reallik; predmet va hodisalar, u yoki bu tomondan shu kabilar bilan bog'liq bo'lgan holda, doimo harakatda, o'zgarishda deb o'rganiladi.

Iqtisodiy hodisalarni bir-biriga bog'liqligini, o'zaro harakatlarini, alohida yuzaga chiqishini va boshqa tomonlarini o'rganmasdan turib, ularning tuzilishi, harakati qonunlari, o'ziga xos xususiyatlarini o'rganib bo'lmaydi. Bu esa muayyan iqtisodiy ob'ektni muhim belgilarga ko'ra bo'laklarga bo'lib, so'ngra ularni umumiylikni ta'minlovchi jihatlarini tahlil yordamida aniqlab tegishli xulosalar olishda hamda ulardan amaliyotda foydalanishda juda muhimdir.

Inson tomonidan iqtisodiy faoliyatdagi turli voqealar kuzatilib ularning natijalari to'g'risida ma'lumotlar olinadi ya'ni, faktlar to'planadi.

Ma'lumki, fanda voqealar bevosita o'zi tahlil etilmaydi, balki ular qayd etilgan faktlar bo'yicha o'rganiladi.

Empirik bilishlar bo'yicha qayd etilgan faktlar fanga kiradi, qayta ishlanadi va saqlanadi. Lekin, inson tomonidan qayd etilgan faktlar bir butun voqea yoki predmetni o'rganish uchun etarli hisoblanmaydi. Buning uchun o'rganilayotgan ob'ekt muayyan belgilar bo'yicha guruhlarga yoki bo'laklarga ajratilishi zarur. Bulardan ma'lum bo'lmoqdaki, aniq ob'ekt to'g'risida ilmiy faktlar to'plash ularni tahlil qilishdan boshlanar ekan. Aytilganlardan shu xulosaga kelish mumkinki, tahlil jamiyat yoki tabiatdagi voqea va hodisalarni o'rganish usuli bo'lib yuzaga chiqadi.

Bir butun ob'ektni fikran bo'laklarga bo'lib o'rganish tahlilda o'ta ahamiyatli tadqiqot usuli bo'lib hisoblanadi. Mazkur usul o'rganilayotgan hodisani ichki mohiyatini ochishda va uni turli omillarga bog'liqligini aniqlashda juda muhimdir. Bunday fikrlashda falsafaning abstrakt usularidan keng foydalaniladi.

Tahlilda bir butun hodisa yoki predmet bo'laklarga bo'linib, uning har bir alohida tomonlari o'rganiladi. Lekin, bu bilan o'rganilayotgan ob'ektni to'la ma'noda tavsiflab bo'lmaydi. Buning uchun, ob'ektni o'rganilayotgan tomonlarini umumlashtirib, umumiy jihatlarni hosil qilish kerak. Mazkur masala sintez usuli bilan amalga oshiriladi.

Umuman, hodisa yoki jarayonlar o'rganilib ilmiy xulosalar chiqarishda tahlil va sintez usuli birgalikda harakat qiladi. Mazkur tartib ob'ektning dialektik birligini ta'minlaydi. Bu bilan tadqiq etilayotgan predmet yoki hodisalarning dialektik birligini har tomonlama bilish mumkin.

Faktlar tahlilidan nazariy sintezga o'tish induksiya va deduktsiya usullari yordamida amalga oshiriladi.

Induktsiya - alohida faktlar bilimidan umum bilimlarga (ya'ni, qonunlar yoki boshqa amaliy va zaruriy aloqalarni aks ettiradigan hodisalar) o'tish usulidir.

Deduktsiya - fikrlarni umumiylikdan xususiylikka tadbiiq etish usulidir. Bunda, umumiy tasnifdagi qonunlar, bog'liqliklar xususiy tasnifga o'tkaziladi.

Mazkur usullar yordamida iqtisodiy hodisalarni ham xususiy, ham umumiy jihatlari o'rganilib, tegishli xulosalar olinib, amaliyotga tadbiiq etiladi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan bilishning elementlari, usullari (dialektika, analiz, sintez, induksiya va deduktsiya) iqtisodiy-tahlil fanida ham iqtisodiy voqea va jarayonlarning o'rganishni asosini tashkil etadi.

Iqtisodiy tahlil aytib o'tilgan umumiy va xususiy usullar bilan alohida fan sifatida yuzaga chiqib, korxonalarni tadqiq qilish tizimiga ega bo'ladi.

2. Iqtisodiy tahlil boshqaruvning muhim funktsiyasi

Bozor munosabatlariga asoslangan xo'jalik sub'ektlari (korxonalar, tashkilotlar, firmalar) mulkni tasarruf etuvchisi sifatida uni to'g'ri boshqarishdan manfaatdordirlar. Bu esa, sodir bo'layotgan jarayonlarni va hodisalarni doimo kuzatishni, faoliyat natijaviylikini batafsil o'rganishni talab etadi. Shu jihatdan xo'jalik sub'ektlari faoliyatini boshqarishning muhim vositasi bo'lgan iqtisodiy tahlil o'ta ahamiyatli hisoblanadi.

Raqobat mavjud sharoitda mulkchilik va xo'jalik yuritish shaklidan qat'iy nazar sub'ektlar ishlab chiqarishni samarali tashkil etish uchun, o'z faoliyatini eng avvalo tizilmada boshqaruv roli va sifatini oshirishdan boshlaydi. Chunki, boshqaruv vositasida xo'jalik sub'ekti o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni hal qiladi va maqsadga erisha boradi.

Korxonada boshqaruv tizimi o'z ob'ekti va sub'ektidan iborat bo'ladi.

Boshqaruv ob'ekti - bu ishlab chiqarish, sub'ekti esa boshqaruv tarkibidir.

Korxonada faoliyatini yoki ishlab chiqarishni boshqarishda ob'ekt va sub'ekt birgalikda boshqariladigan va boshqaruvchi kichik tizimni tashkil etadi. Ularni har biri o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajaradi. Ammo, mazkur kichik tizimlar bir-birlari bilan uzluksiz va chambarchas aloqada bo'lib yagona tizimni tashkil etadi.

Boshqaruv sub'ekti - boshqaruv ob'ektining o'ziga xos xususiyatlari va tasnifidan kelib chiqib tashkil etiladi. Ayni paytda, boshqaruv sub'ekti har doim ishlab chiqarish va xo'jalik jarayonlarini o'zgarishiga ko'ra boshqariluvchi ob'ekt shakli va unga ta'sir etuvchi usullarni belgilaydi hamda takomillashtirib boradi. Boshqaruvchi kichik tizim boshqaruv ob'ektini nazorat etadi, tartibga soladi, dasturlarni ishlab chiqadi. Demak, boshqaruv sub'ekti korxonada faol rol bajaradi.

U boshqaruvning etakchi funktsiyalarini: marketing, rejalashtirish, buxgalteriya hisobi, tahlil, tartibga solish hamda nazorat va auditlarni amalga oshiradi.

Erkin bozor iqtisodiyotida korxonada faoliyatini tashkil etish va yuritishni marketing qonunlari, tartiblari va tamoyillarini bilmasdan turib amalga oshirish mumkin emas. Chunki, marketing ilmi asosida eng maqbul dasturlar yoki rejalar ishlab chiqiladi.

Boshqaruv tizimi sifatida marketing faoliyatini asosiy tamoyillari mazmuni quyidagi ko'rinishni oladi:

- ishlab chiqarishni bozordagi talabga mos tushishi;
- bozordagi holat va korxonani haqiqiy ishlab chiqarish imkoniyati;
- xaridor va buyurtmachilar talabini yanada to'laroq qondirish;
- aniq bozorlarda mahsulot va xizmatlarni ko'zda tutilgan hajmda va belgilangan muddatda sotish;
- ishlab chiqarish va tijorat faoliyatini uzoq muddatli rentabelli ishlashini ta'minlash;
- tanlab olingan marketing strategiyasi va taktikasiga qat'iy amal qilish (bozor holatini e'tiborga olgan holda);
- doimo o'zgarib turuvchi bozor holatiga va xaridor talabiga moslashish.

Mazkur sanab o'tilgan tamoyillarga amal qilish va marketing dasturini ishlab chiqish hamda uni amalga oshirish bevosita analitik hisob-kitoblar bilan chambarchas bog'langan. Bu jarayonlarda juda ko'plab iqtisodiy tahlil ishlari bajariladi. Ularning asosiylari quyidagilardan iboratdir:

- korxonada iqtisodiga tashqi va ichki muhitni ko'rsatadigan ta'siri tahlili;
- bozor holati tahlili (keng ko'lamda, tovar guruhlari va alohida tovarlar bo'yicha);
- iste'mochilar va sotib oluvchilar tahlili;
- raqobat holati tahlili;
- bozordagi baho hamda o'z bahosini belgilash taktikasi tahlili;
- moliyaviy natijalar tahlili.

O'rganilgan tashqi va ichki muhit holati, shuningdek, imkoniyatlaridan kelib chiqib korxonaning ishlab chiqarish faoliyatini joriy biznes rejasi tuziladi.

Biznes rejada har bir element puxta tahlil qilish asosida belgilanadi. Chunki, ular real istiqbolli hamda eng asosiysi samarali bo'lishi shart.

Korxonada biznes reja quyidagi bo'limlardan iborat bo'ladi:

1. Kirish-rezyum .
2. Ishlab chiqarish maqsadi-ishlab chiqariladigan mahsulotlar ro'yxati (ularning afzalligi yoki farqi boshqa ishlab chiqaruvchilar bilan taqqoslanadi).
3. Mahsulot sotiladigan bozor holatini belgilash (zaruriy ma'lumotlar to'plash va ularni tahlil qilish).
4. Asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha raqobatbardoshlikni aniqlash (ishlab chiqarish hajmi, sotish hajmi, mahsulot sifati, baho darajasi, o'rtacha foyda).
5. Marketing strategiyasi.
6. Ishlab chiqarish rejasi (ishlab chiqarish quvvati, xom ashyo resurslari, mutaxassislar).
7. Tashkiliy tamoyillar (ishlab chiqarish xizmati, ularni muvofiq-
8. lashtirish, o'zaro harakati va bir-birini nazorat etish tartibi).
9. Tijorat tavakkali va chorasi.
10. Moliyaviy reja.
11. Moliyalashtirish strategiyasi.
12. Tovar-moddiy aylanma mablag'lar ta'minoti va shu kabilar.

Albatta biznes rejaning har bir bo'limi hisob-kitob qilinib, umumlashtirilganda korxonada ishlab chiqarish faoliyatidan oladigan foydasi eng quyi ko'rinishda tarmoqda erishilgan o'rtacha foyda me'yorida past bo'lmasligi kerak.

Ko'rinib turibdiki rejaning har bir bosqichi hamda uning elementlari tahlil asosida puxta qilib tuziladi.

Demak, ishlab chiqilgan reja vositasida qo'yilgan maqsadga erishish uchun boshqariladigan ob'ektni samarali funktsiyasi yoki yo'nalishi aniq belgilanadi.

Belgilangan rejalarning amalda qanday bajarilayotgani yoki ishlab chiqarishni borishi to'g'risidagi real holat buxgalteriya hisobi yordamida o'rganiladi. Buxgalteriya hisobida shakllangan ma'lumotlar pirovard natijada boshqaruv ehtiyojlari uchun ishlatiladi. Boshqaruv qarorlari esa tahlil ma'lumotlariga asoslanadi. Demak, iqtisodiy tahlil reja, bozordagi holat va buxgalteriya hisobi ma'lumotlari asosida ob'ektdagi o'zgarishlarni miqdor va sifat jihatdan o'rganadi hamda baho beradi. Uning yordamida yo'l qo'yilgan kamchiliklar topiladi hamda tugatiladi, ob'ektni yanada rivojlantirish yo'llari belgilanadi yoki samarali ishlashni ta'minlaydigan yo'nalishga o'tkaziladi. Bu esa, boshqaruv qarorlarini nechog'lik real qabul qilinishiga asos bo'ladi.

Demak, buxgalteriya hisobi va hisoboti ma'lumotlari ham iqtisodiy-tahlil vositasida qayta ishlanar ekan. Bu bilan tahlilning boshqaruv faoliyatidagi mohiyati yanada yaqqolroq ko'rinadi.

Boshqaruv jarayonida tartibga solish funktsiyasi - boshqaruvchi sub'ektning eng maqbul boshqaruv qarorlarini qabul qilishda o'ta muhim hisoblanadi. Bu bilan, o'rganilayotgan ob'ektga kompleks yondashilib, butun bir tizimni ijobiy va salbiy jihatlari nazarda tutilgan holda eng maqbul choralar yoki tadbirlar belgilanadi. Natijada, boshqaruv ob'ekti faoliyati yoki dasturidagi salbiy holatlar tugatiladi va boshqaruv dasturlariga aniqlik kiritiladi. Mazkur ishlar bevosita iqtisodiy tahlil yordamida amalga oshiriladi. Chunki, tartibga solinayotgan har bir ob'ekt har tomonlama chuqur o'rganiladi.

Boshqaruvda asosiy faoliyatni ishonchligini ta'minlashda nazorat etishning ham roli kattadir. Uning yordamida faoliyatning borishi, ularning nechog'lik haqqoniyligi tekshiriladi. Tekshirish jarayonining sifati, ishonchligini oshirish uchun tahlilning usullari, tamoyillaridan foydalaniladi va shu asosda kerakli xulosalar olinadi. Misol uchun, korxonada audit tekshirishlarida moliyaviy holat; moliyaviy barqarorlik; natijalar va shu kabilarni o'rganadi.

Aytib o'tilgan barcha boshqaruv funktsiyalari korxonani iqtisodiy rivojlanishi uchun tayinlangan. Biroq, korxonani faqatgina iqtisodiy tizim deb qarash ham, unga bir tomonlama yondashishini keltirib chiqaradi. Chunki, uning o'ziga hos ijtimoiy, ekologik va boshqa shu kabi

jihatlari ham mavjud.

Demak, korxonada ijtimoiy, ekologik jarayonlarni ham tahlil etish mazkur yo'nalishdagi haqiqiy ahvol va ularning takomillashtirish masalalarini o'rganadi hamda ularga ta'sir etadi.

Bularning natijasi esa, korxonaning turli tomonlarini iqtisodiy jarayonlarga ko'rsatgan ta'siri bilan aniqlanadi.

Fikrimizni umumlashtirib, shu narsalarni aytish mumkinki, iqtisodiy tahlil korxonani boshqarishni muhim funksiyalaridan biridir. Uning yordamida:

- boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslanishi ta'minlanadi;
- mulk va mablag'lardan foydalanishning muqobillik shartlari belgilanadi va boshqaruvchi ular qatoridan o'zi uchun maqbul bo'lgan variantlarni tanlaydi;
- istiqbolli boshqarish uchun ilmiy asos tayyorlaydi.

3. Korxonalar faoliyati samaradorligini oshirishda iqtisodiy tahlilning roli va o'rnini.

O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga ishlab chiqarishni kengaytirish, resurslardan samarali foydalanish, import o'rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarish faoliyatlarini yanada rivojlantirish hozirgi kunning ustuvor vazifalaridan deb belgilab berilgan. Ushbu vazifalarning bajarilishi asosida ichki bozor zarur mahsulotlar bilan ta'minlanadi, ishlab chiqarishga yangi texnika va texnologiyalar kiritiladi, ko'plab yangi ish joylari tashkil etiladi, mahalliy resurslardan foydalaniladi, iqtisodiyotga xorijiy valyutalar jalb etiladi, pirovardda ishlab chiqarishning samaradorligi oshadi. Buning uchun yirik xarajat turlarini talab qilmaydigan, ammo sezilarli samara bera oladigan iqtisodiy imkoniyat va salohiyatlardan foydalanish zarur. Bularga iqtisodiy-tashkiliy, ijtimoiy-ruhiy, mavjud moddiy, moliyaviy, mehnat omillari hamda xorijiy hamkorlar imkoniyatlarini misol qilib ko'rsatish mumkin. Imkoniyat va salohiyatlardan foydalanish ishlab chiqarishni boshqarish, ya'ni xo'jalik mexanizmlarini takomillashtirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Xo'jalik sub'ektlarida iqtisodiy ishlarni davr talabi asosida amalga oshirish va belgilangan vazifalarni maqsadga muvofiq hal etishning yo'llaridan biri bu - iqtisodiy tahlil nazariyasi va amaliyoti bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashda ularni bilim va malakasi sifatiga jiddiy e'tibor berishdir. Har bir iqtisodchi yoki mutaxassis iqtisodiy tahlilning usul va uslublarini yaxshi o'zlashtirib, o'z faoliyatida ularni qo'llay bilish shart. Buning natijasida ishlab chiqarishda foydalanilmayotgan ko'plab turdagi imkoniyatlar aniqlanadi va faoliyatga joriy etiladi.

Xo'jalik sub'ektlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda boshqaruv mexanizmini bozorning o'ziga xos xususiyatlari va talablariga moslashtirilgan holda tashkil etishlari shart. Chunki, bozor iqtisodiyoti - bozorning o'ziga xos qonunlari va funktsiyalarini bajarishga asoslangan iqtisodiy munosabatlar yig'indisining to'la ma'noda yuzaga chiqish shaklidir. Bu jarayonda bozor munosabatlarining barcha jihatlari, xususiyatlari amal qiladi.

Bozor sub'ektlari ya'ni, ishlab chiqaruvchilar yoki xaridorlar mavjud tarkib topgan tizimdagi talab va taklif, pul muomalasi, raqobat va shu kabi tomonlarga moslashib o'z faoliyatini amalga oshirishi shart. Bu esa ularning yashab qolish yoki rivojlanishini ta'minlaydi. Aks holda, ular o'zlarining oldiga qo'ygan maqsadga erisha olmay bozor munosabatlarida o'rinlarini yo'qotadilar.

Shunga ko'ra, korxonalar bozordagi mavjud holatni va o'zlaridagi ichki imkoniyatlarni chuqur o'rganmay turib faoliyatlarini amalga oshira olmaydilar yoki qo'yilgan maqsadga erisha olmaydilar.

Bozor sharoitida korxonalar faoliyatini boshlashi yoki davom ettirishidan oldin, dastavval, o'zining barcha holat va imkoniyatlarini chuqur tahlil qilishga majbur. Natijada, tavakkalchilikka asoslangan lekin, ayni paytda, ilmiy asosiga ega bo'lgan faoliyat dasturi ishlab chiqiladi. Unga amal qilish esa mablag'lardan to'g'ri va samarali foydalanishni ta'minlaydi.

Korxonalar, bozorni shakllanishi bilan bog'liq holda, tahlil sub'ektlari uchun o'rganiladigan ob'ektlar ham ko'payib bormoqda. Bozordagi infrastruktura xizmatidan boshlab to korxonadagi ta'minot, ishlab chiqarish, sotish va boshqa hisob-kitob hamda moliyaviy munosabatlarga, ya'ni qiymat yaratilishi va erishilishining barcha bosqichlari ular uchun tahlil ob'ekti bo'lib qoldi.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti o'zgaruvchanlik tasnifiga ega. Korxonalar esa o'z faoliyatini u qo'ygan talablarga moslashtirib boradi. Bu jarayon korxonada marketing tadqiqotlarini ishlab chiqish va unga amal qilishni talab etadi. Natija esa, faoliyatni tezkor va samarali boshqarishni ta'minlaydi.

Demak, tashqi va ichki muhit ta'sirida korxonalar o'z faoliyatini marketing yo'nalishida olib borishga majbur. Marketing tadqiqotlarida iqtisodiy tahlil usullari keng qo'llaniladi. Korxonadagi tijorat faoliyati tahlili marketing funktsiyasi bilan chambarchas qo'shilib ketgan. Mazkur funktsiyada korxonalar tovarlarini sotadigan bozorni, xom ashyoni ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar, raqobatbardoshlik, taklif etilayotgan xizmat, talab va sotish, bahoni shakllantirish siyosati, umuman ichki va tashqi muhit tahlili uslubiy asos bo'lib qo'llaniladi. Natijada, strategiya va taktikani hamda unga muvofiq keluvchi dasturlarni ishlab chiqish ta'minlanadi.

Bozor sharoitida ilmiy asosda ishlab chiqilgan biznes-rejalar harakat uchun qo'llanilmaydi. Rejani ilmiy asosda bo'lishi bevosita iqtisodiy tahlil ishlari bilan bog'langandir. Chunki,

ko'rsatkichlar bozordagi holat, o'tgan yillar tajribasi, me'yoriy, ilg'or korxonalar hamda ichki imkoniyatlar ahvolidan kelib chiqib belgilanadi.

Mazkur tadbir mulk egalari uchun o'ta muhim hisoblanib, mablag'lardan foydalanishda eng yaxshi deb tanlangan samarali yo'nalishning har bir qadami yoki bosqichida, amalga oshiriladigan harakat aniq belgilanib olinadi. Undan kutiladigan natijalar esa ilmiy asosda hisob-kitob qilinadi. Demak, rejalashtirish ishlarining har bir elementi dastavval turli usullar bilan muqobillik asosda tahlil etiladi. Natijada, eng yaxshi faoliyat deb tanlab olingan yo'nalishda, mablag'lardan foydalanishda imkon qadar samarali choralar aniq belgilanadi.

Korxonalar ishlab chiqarish va tijorat ishlarini amalga oshira boshlaganida haqiqiy ma'lumotlar olinib, uni reja ko'rsatkichlari bilan taqqoslanib ko'riladi. Bu bilan rejaning naqadar realligiga baho beriladi, yuzaga kelgan ijobiy yoki salbiy holatlar aniqlanadi hamda qay darajada imkoniyatlar ko'zda tutilgani o'rganiladi. Haqiqiy ma'lumotlar bevosita bozordagi holat bilan ham bog'lanadi. Bozordagi o'zgarishlar va ularning korxonalar faoliyatiga ijobiy yoki salbiy ta'sirini tezkorlik bilan tahlil qilinadi. Shu asosda tegishli chora-tadbirlar belgilanadi.

Aytilganlardan ma'lum bo'lmoqdaki, bozor sharoitida iqtisodiy-tahlil vositasida barcha jarayonlar aniq faktlar bilan analitik usulda tahlil qilinib, ularni sintez yo'li bilan umumlashtirib tegishli qarorlar qabul qilinadi hamda korxonalar faoliyatiga aniq ta'sir o'tkaziladi.

Albatta, iqtisodiy tahlil bozor sharoitida faqatgina haqiqiy holatni o'rganib uni ijobiy tomonga o'zgartirish vazifasini bajaribgina qolmaydi. Balki uning vositasida korxonalar faoliyati bilan qiziquvchi tashqi korxonalar, tashkilotlar, shaxslar uchun ham zarur bo'lgan ma'lumotlar tayyorlanadi. Bu bilan korxonani iqtisodiy to'g'risida to'la tasavvur hosil qilinadi. Natijada, korxonaga ko'plab hamkorlar jalb qilinadi.

4. Iqtisodiy tahlil fanining asosiy tamoyillari

Tabiat va jamiyatdagi voqelikni o'rganuvchi va ularning tadqiq qilish ob'ekti deb qarovchi alohida fanning o'zi amal qiladigan tamoyillari mavjud bo'ladi. Tamoyillar o'rganiladigan ob'ektni bir butunligi, realligi va voqeligini tavsiflaydi.

Shu jihatdan tahlilning ham iqtisodiy hodisa va jarayonlarni o'rganishda o'zi amal qiladigan tamoyillari bor. Mazkur tamoyillar tahlil fani ob'ektlarni ob'ektivligini, mantiqliligini, shakl-mazmunini, miqdor-sifatini va shu kabi jihatlarni tavsiflab real voqelikni yagona tushunchasini hosil qiladi.

Bu tamoyillarning halqaro va milliy hisob andozalari asosida quyidagi turlarni aytib o'tish mumkin.

1-jadval

Iqtisodiy tahlil fani tamoyillarining turlari va ularning mazmuni

| № | Tamoyillar | Mazmuni |
|----------|-------------------------------|--|
| 1 | 2 | 3 |
| 1. | Ilmiylik | Xo'jalik faoliyatining iqtisodiy tahlil qilish uslubi dialektika hamda umum iqtisodiy nazariya faniga asoslanishi kerak. Tahlil bozor iqtisodiyoti qonunlari va talablarini hisobga olgan holda o'tkazilishi shart. |
| 2. | Ob'ektivlik | To'g'ri va ishonchli ma'lumotlar asosida real iqtisodiy voqealar yoki jarayonlar ifodalanishi hamda o'rganilishi zarur. |
| 3. | Tezkorlik (tezkorlik) | Iqtisodiy voqea va jarayonlarni o'z vaqtida tezkorlik bilan o'rganib maqsadga muvofiq holda qayta ishlash tushuniladi. |
| 4. | Tizimlilik | Tahlil etilayotgan ob'ekt alohida bir butun tizim yoki tizimning elementi deb qaraladi. |
| 5. | Ishonchlilik | Olingan ma'lumotlarda xato yo'qligi va haqqoniy ekanligi, realligi belgilanadi. |
| 6. | Taqqoslanuvchanlik | Ko'rsatkichlar taqqoslanuvchanligi, ularning bir asosli tarzda hisob-kitob qilinganligi tushuniladi. Bu esa turli davrlar va boshqa korxonalar faoliyati to'g'risidagi xuddi shunday ma'lumotlar bilan qiyosiy o'rganish mumkinligini ta'minlaydi. |
| 7. | Betarafililik | Axborot foydalanuvchilarning bir guruhining zarari hisobiga boshqa guruhlar manfaatlarini qondirishning o'rinsizligi tushuniladi. |
| 8. | Davriylik | Olingan ma'lumotlarning davriy oralig'i, xo'jalik faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni vaqt bilan ta'minlanganligi tushuniladi. |
| 9. | Pulli baholash | Barcha aktivlar, kapital va majburiyatlarning so'mda ifoda etilishi |
| 10. | Hisobga olish | Daromad va xarajatlarning yuzaga chiqish vaqti, o'rni va markazlari bo'yicha hisobga olinishi |
| 11. | Mazmunning shakldan ustunligi | Ma'lumotlarning hisob va hisobotdagi huquqiy shaklida uning mohiyati va iqtisodiy voqeligi bo'yicha hisobga olishdagi ifodasini ustunligi |
| 12. | Aniq baholash | Aktivlar va foydaning joriy davrgi bozor narxlarida ifodalanishi |
| 13. | Uzluksizlik | Korxonalar xo'jalik faoliyati yuzasidan barcha jarayonlarni o'z yakuniga qadar hisobda uzluksiz aks ettirilishi tushuniladi. |
| 14. | Boshqa tamoyillar | |

Iqtisodiy tahlil fani o'z predmetini o'rganishda yuqoridagi tamoyillarga asoslanadi.

5. Iqtisodiy tahlil fanining O'zbekistonda rivojlanishi

Respublikamizda iqtisodiy tahlil fanining rivojlanishi o'ziga xos tarixga ega. Davrimizning turli yillariga nazar tashlasak, mazkur fan o'z shakllanish bosqichlarini namoyon etadi.

Ta'kidlab o'tish kerakki, respublikamizda iqtisodiy tahlil fani dastlab o'tgan asrning o'rtalarida shakllana boshladi. 1970 yildan boshlab esa O'zbekistonlik olimlar iqtisodiy tahlil fani bo'yicha o'zimizning maktablarimizni yarata boshladilar.

1980 - 1990 yillar davomida sobiq Toshkent Xalq xo'jaligi instituti, (hozirgi Toshket Moliya instituti, Iqtisodiyot Universiteti) Samarqand Kooperativ instituti va boshqa bir qator institutlarning iqtisodchi olimlari tomonidan ko'plab ishlar amalga oshirildi. Mazkur yillarda O'zbekistonlik olimlar iqtisodiy tahlil fani bo'yicha bir qator o'quv va ilmiy ishlarni chop etdilar.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng barcha fanlarda bo'lgani singari iqtisodiy tahlil fanida ham ko'plab ijobiy ishlar amalga oshirildi. Bu davrda iqtisodiy tahlil fani bo'yicha o'zbek tilida darsliklar, o'quv qo'llanmalari, ma'ruza matnlari, turli mavzudagi maqolalar, ilmiy ishlar amalga oshirila boshladi. Ushbu jarayon bugungi kunda davr talabi asosida davom etmoqda.

Yana bir muhim jihat, respublikamizda iqtisodiy tahlil fanining so'nggi yillardagi rivojlanishi shu holatni ko'rsatmoqdaki, iqtisodchi olimlar fikrlarida fan rivojiga hissa qo'shuvchi, masalalarning turli tomonlarini ochib beruvchi turli ilmiy qarashlar vujudga kelmoqda.

Respublikamizda iqtisodiy tahlil maktabini yaratishda va rivojlantirishda ko'plab olimlar, professor-o'qituvchilar o'zlarining munosib hissalarini qo'shmoqdalar. Shu jumladan, Toshkent Moliya institutining o'qituvchilar jamoasi ham bu borada faol faoliyat ko'rsatmoqda. Ayniqsa, akad. M. Sharifxo'jaev, Yo. Abdullaev, A. Sotvoldiev, T. Shog'iyosov, X. Axmadjonov va boshqa professor-o'qituvchilarning xizmatlarini alohida ta'kidlab o'tish kerak.

Bugungi kunda iqtisodiy tahlil fanining davr talabi asosida rivojlantirish respublikamiz iqtisodini yanada gullab- yashnashiga xizmat qiladi.

Mavzuni takrorlash uchun savollar

1. Iqtisodiy tahlil o'z predmetini o'rganishda bilish nazariyasining qanday usullaridan foydalanadi?
2. Iqtisodiy tahlil boshqaruvning muhim funktsisi sifatida qanday chora-tadbirlarni amalga oshiradi?
3. Bozor iqtisodiyotida iqtisodiy tahlilning ahamiyati nimalardan iborat?
4. Iqtisodiy tahlil tamoyillarining mazmunini izohlab bering.

Mavzuni mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar

Quyidagi tayanch iboralariga tushunchalar yozing:

- tahlil so'zining mazmuni;
- analiz va sintez hodisa va jarayonlarni batafsil o'rganish yo'li;
- tahlil va boshqaruv;
- boshqaruv mexanizmlari;
- iqtisodiy tahlilning asosiy tamoyillari.

II. Iqtisodiy tahlilning mazmuni, predmeti va vazifalari

- 1. Korxonalarni boshqarishda iqtisodiy tahlilning ahamiyati.**
- 2. Iqtisodiy tahlilning mazmuni.**
- 3. Iqtisodiy tahlil fanining predmeti.**
- 4. Iqtisodiy tahlil fanining asosiy vazifalari.**
- 5. Fanlar tizimida iqtisodiy tahlilning o'ri.**

1. Korxonalarni boshqarishda iqtisodiy tahlilning ahamiyati

Respublikamizda bozor iqtisodiyoti bosqichma-bosqich shakllanayotgan sharoitda korxonalarining rivojlanishi bevosita ularning boshqarish tizimiga bog'liq bo'lmoqda. Korxonalar faoliyatini samarali boshqarish uchun ularning faoliyatini muttasil o'rganib, tahlil qilib turish lozim bo'ladi. Xo'jalik sub'ektlarining boshqaruv bo'g'inlarida iqtisodiy tahlil muhim ahamiyatga ega. Chunki, iqtisodiy tahlil vositasida ma'lumotlar o'rganilib, yig'ilib, tartibga solinib hamda qayta ishlanib muhim xulosalar olinadi. Xulosalar asosida boshqaruv qarorlari qabul qilinib faoliyatga ta'sir ko'rsatiladi.

Ishlab chiqarishni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta'minlash, mavjud imkoniyatlaridan jadal foydalanish, boshqaruv tizimini, xo'jalik mexanizmini takomillashtirish negizida korxonalar iqtisodiyotini rivojlantirish hamda shu asosda xalqning turmush farovonligini yanada yuksaltirish hozirgi davrda oldimizda turgan dolzarb vazifadir. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli bajarilishi uchun sanoat korxonalarining xo'jalik faoliyatini ilmiy asosda tahlil qilish va ushbu fan imkoniyatlaridan maqsadga muvofiq foydalanish o'ta muhim ahamiyatga ega.

Korxonalarni boshqarishda ma'lumotlar bilan ishlash va ulardan foydalanish jarayoni asosan uch bosqichdan iborat. Ya'ni:

1. Axborotlarni (ma'lumotlarni) to'plash va tayyorlash;
2. Ob'ektning holatini iqtisodiy tahlil qilish va uning natijalari asosida takliflar ishlab chiqish;
3. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish.

Iqtisodiy tahlil korxonalarini boshqarish tizimida oraliq bosqichni egallaydi. Boshqaruv jarayonda qabul qilingan qarorlarning samarasi va sifati tahlilning o'z vaqtida hamda tezkorlik bilan o'tkazilishiga ko'p jihatdan bog'liq. Bu erda asosiy vazifa ana shu bosqichlarni bir-biri bilan uzviy ravishda bog'lash hisoblanadi.

Korxonaning xo'jalik faoliyatiga rahbarlik qilish va uning ustidan nazorat ishlarini olib borish uchun rahbar kerakli ma'lumotlar bilan o'z vaqtida ta'minlanishi zarur. Buning uchun korxonaning xo'jalik faoliyati uzluksiz kuzatib boriladi. Kuzatish yo'li bilan olingan ma'lumotlar ko'rsatkichlarida ifodalanib, istalgan vaqtda foydalanish uchun ular o'ziga hos tartibda ro'yxat qilib boriladi. Korxonada xo'jalik faoliyatida yuz beradigan hodisalarni kuzatish, o'lchash va ro'yxat qilish uning faoliyatini raqamlar vositasida aks ettirishdir. Bu jarayon boshqarishning tashkil etishni asosiy vazifalaridan biridir.

Ma'lumotlar asosida ob'ektlarning holatini o'rganish, ularning o'zgarishlarini ko'rib chiqish, o'zgarishlarga ta'sir etgan omillarni aniqlash va ularni miqdoran o'lchash, foydalanilmagan imkoniyatlarni bilish, yangi imkoniyatlarni topish va ular bo'yicha asoslangan takliflarni ishlab chiqish boshqaruv jarayonida iqtisodiy tahlilni asosiy vazifasidir.

Hozirgi davrda korxonani boshqarish ancha murakkabdir. Boshqaruv faoliyati tejamkorlikka asoslangan bo'lib, iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishni taqozo etadi. Bu esa korxonalarni boshqarishda moddiy, mehnat hamda moliyaviy resurslarni imkon qadar iqtisod qilishni talab etadi. Ushbu jarayonda iqtisodiy tahlilning ahamiyati yanada ortadi. Misol uchun, faqat kundalik nazorat va tezkor tahlilgina xarajatlarni belgilangan me'yorlardan farq qilishini aniqlab beradi. Boshqaruv tahlili esa resurslarni holati hamda ularning eng maqbul yo'naltirilishi uchun echimlar ishlab chiqishda foydalaniladi. Moliyaviy tahlil korxonaning moliyaviy holatini aniqlash va u bo'yicha xulosalar olishda o'ta zarurdir. Ko'rinib turibdiki iqtisodiy tahlilning har bir turi korxonada faoliyatini

o'rganishda o'z o'rniga ega.

Iqtisodiyotdagi o'zgarishlar boshqarish tizimini ham takomillashtirishni taqozo qiladi. Bu esa, o'z navbatida, boshqaruv mexanizimida bir qator o'zgarishlar bo'lishini talab etadi. Misol uchun, bizning tashqi iqtisodiy aloqalarimiz samaradorligini oshirish uchun tashqi bozordagi hamkorlar nuqtai nazaridan va ularning talabi bo'yicha korxonalarimizning ishiga, ularning mahsuloti sifatiga, iqtisodiy salohiyatiga va boshqa tomonlariga baho berishimiz kerak. Chunki, korxonalarining mustaqil tarzda tashqi bozorga chiqishi va ularning xorijiy mamlakatlar bilan hamkorligi xo'jalik yuritishda yangi jarayondir. Bu jarayon, o'z navbatida, iqtisodiy tahlilda ham o'ziga xos maxsus usullarini ishlab chiqishni va ularni takomillashtirishni taqozo qiladi.

Korxonada iqtisodiyotini boshqarishning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

- iqtisodiy o'sishni oraliq natijalardan ijtimoiy ahamiyatga molik pirovard natijalarga, ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirish;
- fan-texnika taraqqiyotini iqtisodiy o'sishning bosh omiliga aylantirish;
- moddiy resurslar va iste'mol ne'matlarining taqchilligini bartaraf etib ularni ko'proq ishlab chiqarish;
- xo'jalik munosabatlarida iste'molchiga ustunlik berish;
- korxonada faoliyatining xarajatga qarshi puxta ishlaydigan mexanizmini yaratish.

Yuqorida qayd qilingan dolzarb muammolarning echimi o'z navbatida, iqtisodiy tahlilning usullarini takomillashtirishni taqozo qiladi. Chunki, tahlil iqtisodiyotning sifat jihatdan o'sishini ta'minlovchi korxonada mexanizimining muhim elementlaridan biridir.

2. Iqtisodiy tahlilning mazmuni

Bozor munosabatlarida har qanday xo'jalik yurituvchi sub'ekti o'z tasarrufidagi barcha resurslar - moliyaviy, moddiy va mehnat resurslari harakati hamda ulardan foydalanish samaradorligini to'g'ri boshqarishni ta'minlashi zarur bo'ladi. Ammo ko'pgina korxonalar va tashkilotlar iqtisodiy mustaqillikni hamda ichki va tashqi bozorda bitimlar tuzish huquqini qo'lga kiritganlaridan so'ng xo'jalik yuritishning yangi sharoitlariga tayyor emasliklari ayon bo'lib qoldi. Chunki, bozor iqtisodiyotida boshqaruv sub'ektlariga faqat axborotga ega bo'lishini o'zigina kifoya qilmaydi. Mavjud axborot bilan ishlash, to'g'ri xulosalar chiqarish va ulardan ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida foydalanish zarur bo'ladi. Samarali boshqarishda eng muhimi axborot va undan foydalana bilishdir.

Iqtisodiy axborotlar bilan ishlashning eng muhim jihatlaridan biri uni tahlil qilishdir. Tahlil davomida xo'jalik faoliyatini o'rganishda hamda xulosalar chiqarishda asos bo'ladigan bir qator ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Xo'jalik faoliyatini muvaffaqiyatli boshqarish ko'pgina ta'sir etuvchi omillarga, shartlarga va holatlarga bog'liq bo'ladi. Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, korxonalar faoliyatini boshqarishda boshqaruv funktsiyasi asosiy mavqeni egallaydi, shu bilan birga tahlil ham. Ushbu funktsiyalarning to'liq faoliyati va darajasi ko'p jihatdan ularning uslubiyatiga bog'liqligi bilan, bundan tashqari boshqaruv ob'ektida fanning predmetini o'z vaqtida aniq tushunishi bilan ajralib turadi.

Bizga ma'lumki, odatda, har qanday fan o'z predmeti orqali ob'ektiv borliqning qaysidir tomonlari va qismlarini o'rganadi. Aynan bitta ob'ektni turli xil fanlar o'zining ixtisoslik tomonlaridan yoki aloqalaridan kelib chiqib turlicha qarashi mumkin. Ko'rinib turganidek, xo'jalik faoliyati o'zining mazmuni va strukturasi jihatidan murakkab ob'ekt ekanligi bilan ajralib turadi.

Shu sababli korxonalarining xo'jalik faoliyatini ko'pgina iqtisodiy hamda boshqa fanlar o'rganishi mumkin.

Har bir fan jamiyat, tabiat va idroklash, taraqqiyot haqida ma'lum bir bilim beradi. Bunday bilim berishda yoki o'rganishda tabiat va jamiyatni rivojlantirishdagi umumiy qonuniyatlariga, tamoyillariga amal qiladi.

Iqtisodiy tahlil fan sifatida quyidagi maxsus bilimlar tizimini o'zida aks ettiradi:

- ob'ektiv iqtisodiy qonunlar va sub'ektiv omillar ta'sirida vujudga kelgan korxonadagi iqtisodiy jarayonlarni tadqiq etadi;
- biznes rejalarini ilmiy asosda tuzilganligini va uning bajarilishini ob'ektiv baholaydi;
- natijalarni tashkil etuvchi omillarni yuzaga chiqarish hamda ularning ijobiy va salbiy ta'sirini miqdor jihatdan aniqlash;
- xo'jalik faoliyatining rivojlanishidagi mutanosiblik yoki ziddiyatlarni aniqlash, foydalanilmagan yoki mavjud imkoniyatlarni topish;
- maqbul boshqaruv qarorlarini qabul qilishda asos bo'ladigan ilg'or tajribalar va yutuqlarni umumlashtirish.

Hozirgi sharoitda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini rivojlantirishda, iqtisodiyotdagi noqulay yo'nalishlarni tez bartaraf etishda boshqarishni tubdan qayta isloh qilishni jadallashtirish birinchi navbatdagi vazifadir. Iqtisodiy tahlilni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari iqtisodiyotni boshqarishni qayta qurishning mohiyati va uni amalga oshirish tamoyillari bilan bevosita belgilanadi. Iqtisodiyotni boshqarishni tubdan qayta qurishning mohiyati - barcha darajalarda asosan ma'muriy rahbarlik usullaridan iqtisodiy usullarga, manfaatlar orqali boshqarishga, boshqarishni keng demokratiyalashga, inson omilini butun choralar bilan kuchaytirishga o'tishdir. Hozirgi bosqichda tub islohotni amalga oshirish bozor iqtisodiyoti afzalliklarini mumkin qadar to'laroq ro'yobga chiqarish imkonini beradigan yaxlit, samarali va ephchil boshqarish tizimini vujudga keltirishni taqozo qiladi.

Iqtisodiy tahlilda o'rganilayotgan hodisa yoki jarayon maydadan-yirikka, oddiydan murakkabga yoki aksincha o'rganiladi hamda ularning umumiy birligi va o'zaro bog'lanishi e'tiborga olinadi.

Xo'jalik faoliyatini tahlilida firmalarning iqtisodiy faoliyatiga ta'sir etgan ob'ektiv va

sub'ektiv omillarni har biri alohida o'rganiladi.
Tahlil vositasida xo'jalik faoliyatiga baho beriladi.

3. Iqtisodiy tahlilning predmeti

Fanning predmeti shu fan nimani o'rganadi degan savolga javob beradi.

Iqtisodiy tahlil fanning predmeti - korxonalar, firma, uyushma, birlashmalarni xo'jalik jarayonlarini ularga ta'sir etuvchi sub'ektiv va ob'ektiv omillar asosida, mazkur voqeliklarni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi vositasida, xo'jalik sub'ektlarining faoliyatini ijtimoiy - iqtisodiy samaradorligi va ular faoliyatining yakuniy moliyaviy natijalarini o'rganadi.

Fanning predmeti ta'rifidan shu narsa ko'rinadiki, fan korxonalarining xo'jalik jarayonlarini o'rganadi, qanday iqtisodiy samaradorlikka erishganligini ko'rsatadi hamda samaradorlikni o'zgarishiga ta'sir etgan ob'ektiv va sub'ektiv sabablarni aniqlab beradi.

Korxonalaridagi xo'jalik jarayonlari biznes maqsadidagi faoliyatni qamrab oladi.

Tahlil predmetida ob'ektiv (tashqi) omil bu korxonalar faoliyatiga ta'sir etgan davlat siyosati, talab va taklif, bozordagi baho va tabiat o'zgarishlari kabilardan iborat bo'ladi.

Sub'ektiv (ichki) omillar bu korxonaning ichki imkoniyatlaridir. Ya'ni, mehnat, moddiy, moliyaviy hamda tadbirkorlik qobiliyatlaridan foydalanib samaradorlikka erishishdir.

Iqtisodiy manbalardan foydalanish deyilganda esa buxgalteriya, statistik, tezkor hisob ma'lumotlaridan foydalangan holda korxonalar va firma faoliyati aniq raqamlar bilan o'rganilishi, umumlashtirilishi va baho berilishi tushuniladi. Chunki, iqtisodiy manbalar korxonalarda sodir bo'layotgan hodisa va jarayonlarni aniq o'lchaydi va aks ettiradi.

Xo'jalik sub'ektlarining faoliyatini ijtimoiy - iqtisodiy samaradorligi xo'jalikda sodir bo'lgan hodisalarni ijobiy yoki salbiy natijalarini sifat ko'rsatkichlaridir.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'lmoqdaki iqtisodiy tahlil fani iqtisodiy fanlar tizimida o'zi o'rganadigan aniq predmetiga ega.

4. Iqtisodiy tahlilning asosiy vazifalari

Har bir iqtisodiy fanning vazifasi jamiyatning rivojlanishi va u vujudga keltirgan ijtimoiy-iqtisodiy shart sharoitga qarab belgilanib boriladi. Fan o'zining vazifalarni to'liq bajarishi uchun qator usullarni qo'llaydi.

Hozirgi davrda iqtisodiy tahlil fanining asosiy vazifalari quyidagilardan iboratdir:

- o'rganilayotgan ob'ektiv (hodisaga) to'g'ri va xolisona baho berish;
- tuzilgan biznes rejalarning to'g'ri va ilmiy asoslanganligiga baho berish ;
- moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan samarali foydalanganlikka baho berish;
- xo'jalik hisobi tamoyillariga, xo'jalik hisob - kitoblariga amal qilishlikni muntazam tekshirib turish;
- korxonalarda mavjud bo'lgan samaradorlikni oshirish yo'lida ularning imkoniyatlarini aniqlash;
- korxonalarni boshqarish bo'yicha eng to'g'ri va oqilona, xulosalar berish;
- korxonalarni rivojlantirishning joriy va istiqbolli rejalarni tuzish uchun iqtisodiy ko'rsatkichlar asosini aniqlash;
- rejaning bajarilishiga ob'ektiv baho berish hamda uni bajarishda korxonalariga bog'liq bo'lgan va bog'liq bo'lmagan omillar hamda sabablarni bir-biridan ajratgan holda aniqlash;
- korxonalarning xo'jalik faoliyati jarayonida erishishi mumkin bo'lgan natijalarni oldindan aniqlash.

Ushbu vazifalarni bajarilishi iqtisodiy tahlil fani vositasida korxonalarni o'rganilishini va ular faoliyatiga baho berishni ta'minlaydi.

5. Fanlar tizimida iqtisodiy tahlilning o'рни

Iqtisodiy tahlil ob'ektiv ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish talabidan kelib chiqqan aniq iqtisodiy fandır. U o'zining o'rganish predmeti, usullari, asoslanadigan tamoyillari hamda hal etadigan vazifalariga ko'ra boshqa fanlardan farq qiladi. Biroq, shu bilan birgalikda iqtisodiy tahlil boshqa fanlardagi umumiy qonuniyatlar, usullar, tamoyillar va tartiblarga rioya qiladi. Ya'ni, u ko'pgina fanlar bilan o'zaro bog'liqlikda bo'ladi va birgalikda rivojlanadi. Jumladan, iqtisodiy tahlil umumiqtisodiy nazariya fani bilan bevosita aloqadordir. Chunki, korxonada faoliyatini iqtisodiy tahlil qilishda umumiqtisodiy qonuniyatlar va kategoriyalarga amal qilinadi.

Umumiqtisodiy nazariya fani iqtisodiy kategoriyalar va atamalarning mazmunini va mohiyatini ochib beradigan bo'lsa, iqtisodiy tahlil fani esa ushbu iqtisodiy kategoriyalar va atamalarni muayyan korxonada sharoitidagi holati, harakati va o'zgarishini tahlil usullaridan foydalangan holda o'rganadi. Masalan, yalpi mahsulot deb nomlanuvchi ko'rsatkichni oladigan bo'lsak, umumiqtisodiy nazariya fanida yalpi mahsulotni mazmun va mohiyati nimadan iborat ekanligi, u qanday aniqlanishni, tarkibiga nimalar kirishini bilib olishimiz mumkin.

Iqtisodiy tahlil fanida esa ushbu yalpi mahsulot hajmini ma'lum davrlar bo'yicha dinamikasini, o'zgarish hajmlarini, o'zgarishga ta'sir etuvchi omillar va ularning ta'sir miqdorlarini aniq korxonada misolida o'rganamiz.

Tabiat, jamiyat va tafakkurni rivojlanishi haqidagi falsafiy ta'limotlar ham iqtisodiy tahlil fanida keng foydalaniladi. Iqtisodiy tahlil fanining ham umumiy uslubiy asosi bo'lib dealektika usuli hisoblanadi. Ushbu uslub asosida fanning ob'ekti doimo rivojlanishda, o'zaro bog'liqlikda, o'zaro aloqada deb qaraladi va o'rganiladi.

Iqtisodiy tahlil fani quyidagi fanlar bilan o'zaro aloqadordir:

- buxgalteriya hisobi va audit;
- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;
- mikro va makro iqtisod;
- rejalashtirish (biznes reja tuzish);
- statistika;
- informatika;
- moliya, bank, soliq masalalariga taalluqli fanlar;
- iqtisodiy matematika va kompyuter asoslari;
- huquqiy fanlar;
- tabiiy fanlar va shu kabilarlar bilan.

Bizga ma'lumki, buxgalteriya hisobi mulkchilikning turli shakllaridagi korxonalar xo'jalik faoliyatini yalpi, uzluksiz va hujjatlarga asoslangan holda aks ettirish tizimidir. Mazkur tizimda xo'jalik faoliyatida sodir bo'lgan barcha jarayonlar to'g'risida ma'lumotlar shakllanadi. Ya'ni, xo'jalik jarayonlari to'g'risida analitik va jamlama ma'lumotlar manbasi hosil qilinadi. Iqtisodiy tahlil esa xo'jalik jarayonlarida sodir bo'lgan hodisa va jarayonlarni, ma'lumotlar manbaidan foydalanib, maxsus usullari orqali o'rganadi.

Auditorlar korxonada faoliyatini tekshirishda va unga baho berishda iqtisodiy tahlil faning usullaridan keng foydalanadilar. O'z navbatida, tahlil ishlari uchun audit fanining usullari ham o'ta zarurdir.

Iqtisodiy tahlil bilan moliya, soliq organlari va bank xodimlari ham shug'ullanadilar. Moliyachilar berilayotgan mablag'larni maqsadga muvofiq foydalanishlarni o'rganishda, soliqchilar esa korxonalarining davlat byudjeti bilan soliq to'lovlariga oid o'zaro hisob-kitoblarini holatini o'rganishda, bank xodimlari esa korxonalarini kreditga layoqatligini baholashda iqtisodiy tahlil faniga tayanadilar.

Statistika organlari ham iqtisodiy tahlil bilan shug'ullanadi. Ular qabul qilingan hisobot moddiy aylanmalarini statistika usullari bilan qayta ishlab vazirliklar, boshqarmalar va korxonalarini yig'ma axborot moddiy aylanmalari bilan ta'minlaydi.

Korxonalarining faoliyatini tahlil qilish bevosita yuqori tashkilotlarning ham vazifasi bo'lib, ular korxonalarining hisobotini tasdiqlaydilar hamda ularning ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini

baholab, tegishli qarorlar qabul qiladilar.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan boshqa fanlarda ham tahlil usullari keng qo'llaniladi yoki iqtisodiy tahlil fani o'z ob'ektlarini o'rganishda ularning usullaridan foydalanadi.

Mavzuni takrorlash uchun savollar

1. Iqtisodiy tahlil fanining mazmuniga izoh bering.
2. Iqtisodiy tahlil fanining predmetiga ta'rif bering.
3. Iqtisodiy tahlil fanining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
4. Iqtisodiy tahlil fani qaysi fanlar bilan uzviy aloqda bo'ladi?

Mavzuni mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar

Quyidagi tayanch iboralariga tushunchalar yozing:

- iqtisodiy tahlil fanining mazmuni;
- fan predmetining ta'rifi;
- fanning vazifalari;
- iqtisodiy nazariya va tahlil fanlarining bog'liqligi;
- buxgalteriya hisobi va tahlil;
- audit va tahlil;
- marketing va tahlil;
- moliya va tahlil;
- soliq va tahlil.

III. Iqtisodiy tahlilning metodi va usullari

1. Iqtisodiy tahlil metodi va uning muhim xususiyatlari.
2. Iqtisodiy tahlilning usullarini guruhlarga ajratish.
3. Taqqoslash usuli va uni qo'llashda amal qiladigan shartlar.
4. Guruhlashtirish usuli.
5. Balansli bog'lanish usuli
6. Mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlarni hisoblash.
7. Zanjirli bog'lanish usuli va uning iqtisodiy tahlilda qo'llanilishi.

1. Iqtisodiy tahlilning metodi va uning muhim xususiyatlari

Har bir fanning metodi o'z predmetini qanday yondashuvlar yoki yo'llar asosida o'rganishini bildiradi

Metod - grekcha «metodos» so'zidan olinib ob'ektiv borliqni o'rganishdagi yondashuv yo'llarini anglatadi. Keng ma'noda metod deyilganda haqiqatni, ob'ektiv borliqni, tabiat, jamiyat rivojlanishini dialektik qonunlarga asoslanib o'rganish tushuniladi.

Borliqni dialektik o'rganish quyidagi asosiy jihatlarga asoslanadi:

- har bir o'rganilayotgan hodisalar bir-biri bilan o'zaro bog'liqlikda, aloqada va rivojlanishda bo'ladi;
- o'zgarish va rivojlanishlar o'zaro qarama-qarshiliklar asosida sodir bo'ladi;
- voqeliklar inkorni-inkor qonuni asosida rivojlanib miqdor o'zgarishdan sifat o'zgarishiga o'tadi.

Dialektik o'rganish qonuniyatlariga amal qilish har bir fan uchun umumiy tasnifga ega bo'ladi. Shu bilan birgalikda har bir fan o'zining predmetini o'rganishi va oldiga qo'yilgan vazifalarini bajarishi uchun alohida olingan maxsus usullariga ham ega bo'ladi.

Iqtisodiy tahlil fani ham korxonalar, tashkilotlar va muassasalar faoliyatini tadqiq qilishda dialektik yondashuv qonuniyatlariga amal qiladi. Demak, iqtisodiy tahlil korxonalar (firma), tashkilot, muassasa, birlashma va h.z.larning xo'jalik jarayonlarini sodir bo'lishi va rivojlanishini o'rganishda dialektik yondashuv usullarini qo'llaydi.

Dialektik yondashishlikda har bir jarayon yoki iqtisodiy hodisa mavjud va doimo rivojlanishda deb qaraladi. Bu jarayonlar miqdordan sifat o'zgarishiga ya'ni yangi sifatning paydo bo'lishiga, inkorni-inkor qilish ya'ni eskining tugashi, yangi-ilg'or jarayonlarni paydo bo'lish xususiyatga ega bo'ladi. Xullas, dialektik metod va uning barcha usullari xo'jalik jarayonlarini o'rganishda, tahlil qilishda o'z o'rniga ega.

Iqtisodiy tahlil o'zining predmetini o'rganish uchun alohida olingan maxsus metodlariga ham ega. Fanning maxsus usullarining o'ziga xos tomonlari quyidagilardan iborat:

- xo'jalik faoliyati ko'rsatkichlar vositasida ifodalaniladi;
- xo'jalik faoliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi qo'llaniladi;
- o'rganilayotgan ko'rsatkichlarning o'zgarishi va farqining sabablari aniqlanadi;
- iqtisodiy samaradorlikka erishish maqsadida ko'rsatkichlar bir-biriga bog'liq holda o'rganiladi va hakoza.

Iqtisodiy tahlilning maxsus metodida uning e'tiborli xususiyatlari ham mavjud. Jumladan, xo'jalik jarayonlari va iqtisodiy voqealarni tahlil qilishda juda ko'plab ko'rsatkichlardan foydalanishga asoslanishi. Bu ko'rsatkichlar tahlil qilinayotgan iqtisodiy jarayonning mazmuni va hajmiga bog'liq bo'ladi, hatto tahlil natijasida yangi avval mo'ljallanmagan ko'rsatkichlar ham aniqlanishi mumkin.

O'rganilayotgan xo'jalik jarayonlarining farqlanishi va o'zgarishi sabablari hamda unga ta'sir ko'rsatgan omillarni hisoblash iqtisodiy tahlil usulining yana bir o'ziga xos xususiyatidir. Chunki, tahlil qilinayotgan iqtisodiy jarayonlar doimo bir-biri bilan uzviy bog'liq va aloqada bo'ladi, tahlil esa bu bog'liqlik va aloqalarni miqdor jihatdan aniq o'lchash va o'rganish imkoniyatiga ega. Hatto, ayrim olingan xo'jalik jarayoni butun bir yakuniy natijaga sezilarli ta'sir ko'rsatadi va

o'zgartirib yuborishi ham mumkin. Shuning uchun ham xo'jalik faoliyatining o'zgarishi sabablari, ta'sir etuvchi asosiy va qo'shimcha omillarni aniqlash tahlil usulining muhim xususiyati bo'lib sanaladi.

Ayniqsa, ta'sir ko'rsatgan sabab va omillarni to'g'ri guruhlash, xo'jalik faoliyatini tahlil qilishning sifatli bo'lishida muhim rol o'ynaydi.

Iqtisodiy tahlil usulining yana bir o'ziga xos tomoni ko'rsatkichlar vositasida xo'jalik jarayonlarini bir-biri bilan o'zaro bog'liqligi va bog'lanishdiligini o'lchab, ularni mahsulotlar ishlab chiqarish va uni sotish hajmiga qanchalik ta'sir etishini aniqlab, sabablarni o'rganish imkonini beradi. Masalan, korxonada ishlab chiqaradigan mahsulot hajmiga uch guruh omillar: ishchi kuchi, mehnat qurollari va mehnat buyumlaridan foydalanish ta'sir ko'rsatadi. O'z navbatida, har bir omil mayda elementlarga bo'linadi. Jumladan, mehnat kuchidan foydalanish omili miqdor va sifatga ajratiladi. Miqdor omili bu ishchilar soni, sifat omili esa mehnat unumdorligi va hakozo. Ishchining o'rtacha bir yildagi mehnat unumi bajarilgan bir yillik kishi kunlari, ish vaqtining uzunligi va bir ishchining bir yilda ishlagan kishi soatiga bog'liq. Bu sanab o'tilgan har bir ko'rsatkich esa yana boshqa sababga bog'liq. O'rtacha bir ishchining bir yilda ishlagan kishi kunlar sonining hajmiga qo'shimcha dam olish, ishga kelmaslik, uzoq safarga borish, kasalligi va korxonada aybi bilan ishlamaslik kabi sabablar ta'sir ko'rsatadi.

Demak, barcha ko'rsatkichlar bir-biri bilan zanjirli bog'lanib ketgan va bu umumiy zanjir, tizimda har bir omilning o'z o'рни va ta'sir ko'rsatish hajmi bor. Tahlil jarayonida e'tiborga olinmagan har bitta ko'rsatkich yoki omil uning natijalarini noaniq bo'lishiga hatto iqtisodchilarni noto'g'ri xulosalariga olib kelishi mumkin.

Xulosa qilib ta'kidlash mumkinki, tahlil usulining muhim hususiyati o'rganiladigan iqtisodiy ko'rsatkichni alohida, boshqa omillardan ajratgan holda alohida tahlil qilmaydi, balki ular o'zaro bog'liqlikdaligi e'tiborda tutiladi. Ayrim hollarida o'rganilayotgan ko'rsatkichning o'zgarish sabablari ta'sir etishi bir hil o'zgarmas shart-sharoitda aynan o'xshash bo'lishligi iqtisodiy tahlilda qo'llaniladi, ba'zi omillar ta'siri bir xil sharoitda o'zgarmas deb qaraladi.

2. Tahlil usullarini guruhlarga ajratish

Iqtisodiy tahlil qilishda, ma'lumotlarni qayta ishlashda turli-tuman usullar qo'llaniladi. Bu usullarni qo'llash jarayonida tahlil usulining asosiy xususiyatlari kompleks va tizimlashganligi yaqqol ko'rinadi. Xo'jalik jarayonlarining umumiy birligi, ketma-ketligi va ayrim elementlardan iboratligi tahlil qilishda asosiy e'tiborda turadi.

Tahlil usullarini qo'llash o'rganilayotgan jarayonlarni bir-biriga bog'liqligi, o'zgarish sababi, ta'sir ko'rsatgan omillar va qo'shimcha sabablarni aniqlashga yordam beradi.

Iqtisodiy tahlilning usullarini shartli ravishda odatdagi va matematik guruhlarga ajratish mumkin. Odatdagi usullar iqtisodiy tahlil paydo bo'lgandan buyon qo'llanilib, an'anaga aylanib, amaliy tajribada keng foydalanilib kelayotgan taqqoslash, guruhlarga ajratish, mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlarni hisoblash balans va zanjirli bog'lanish va hakovolardir.

Matematik usullar esa iqtisodiy axborotlarni elektron hisoblash mashinalarda hisoblash va qayta ishlash, bu ma'lumotlarni tez muddatda boshqaruv xodimlariga o'zatisht ishlari boshlanganda qo'llaniladi.

3. Taqqoslash usuli va uni qo'llashda amal qiladigan shartlar

Iqtisodiy tahlilda eng ko'p va avvaldan qo'llanilib kelinayotgan usullardan biri taqqoslashdir. Har qanday iqtisodiy hodisa, jarayonni o'rganishda ma'lum ko'rsatkichlar o'zaro solishtiriladi. Bunday o'rganishda hodisa va jarayonlarni o'zgarishining asosiy va qo'shimcha sabablarni aniqlanadi, taraqqiyot darajaga baho beriladi, Odatda tahlil taqqoslash bilan boshlanadi deyiladi. Tahlilda taqqoslashning bir necha turlari mavjud.

Bizga ma'lumki iqtisodiy tahlilning muhim vazifalaridan biri tuzilgan biznes reja ko'rsatkichlarini bajarilishiga baho berishdir. Biznes reja ma'lumotlar bilan haqiqatda erishilgan natijalarni taqqoslab, aniqlangan farqlar tahlilning keyingi bosqichi uchun o'rganish obekti bo'ladi ya'ni, hisoblangan o'zgarishlar tuzilgan biznes rejaning asoslanganligi, to'g'ri va mavjud, haqiqiy imkoniyatga yaqin ekanligini, bajarilish imkoniyati kengligini bildiradi. Shuningdek, bu aniqlangan farqlar biznes rejaning sifatli tuzilganligi yoki haqiqiy ahvoldan uzoqliligini ifodalaydi.

Haqiqatda erishilgan ma'lumotlarni biznes rejada ko'zda tutilgan ko'rsatkichlar bilan taqqoslashda aniqlangan farqlar, ayrim hollarda baho o'zgarishlari yoki rejalashtirilishda imkoniyatlarni to'la hisobga olinmaganligi sababli yuzaga kelishi mumkin.

Bunday hollarda avvalgi tuzilgan biznes-reja ko'rsatkichlari qayta hisoblanishi lozim va so'ngra o'rganiladigan ma'lumotlar taqqoslanadi, xullas, tahlilda ko'rsatkichlar asoslangan bo'lishi talab qilinadi.

Iqtisodiy tahlilning taqqoslash usuli joriy davr ma'lumotlari bilan o'tgan yillar ko'rsatkichlarini bog'lab o'rganishda ham keng qo'llaniladi. Ayniqsa kunlik, o'n kunlik, oylik, choraklik va yillik faoliyatini aynan o'tgan yillardagi shu davrda erishilgan natijalarga taqqoslash zarur.

Eng ilg'or, yuqori va yaxshi ma'lumotlar bilan haqiqiy ahvolni taqqoslab o'rganish iqtisodiy tahlilda muhim rol o'ynaydi. Fan va texnika yutuqlaridan ilg'or g'oya va texnologiyadan korxonalar (firma) qanday imkoniyatda foydalanganligini bilish taqqoslashda yaqqol ko'rinadi. Korxonalar (firma) ichidagi tsex, zveno, brigada bo'lim ko'rsatkichlarni bir-biri bilan taqqoslash ichki natijalarni bildirsa, bir xil ixtisosli korxonalar ma'lumotlari bilan taqqoslanish esa ilg'or, samarali faoliyat ko'rsatishga yordam beradi.

Tahlilda muhim ahamiyatni chet el tajribalarini o'rganish maqsadida tashkil etiladigan xorijiy firmalar bilan korxonalar (firma) ma'lumotlarni taqqoslash egallaydi. Bunda ko'rsatkichlar bir-biri bilan taqqoslashi moslashtirilib, so'ngra esa ilg'or tajriba natijalari o'rganiladi va kelgusi faoliyatda bu tajribalarga amal qilishi yo'llari ko'rsatiladi. Korxonalar (firma) faoliyatida qanchalik ko'p chet el ilg'or tajriba va texnologiyasi joriy qilinish yo'llarini belgilash, shunchalik kelgusi samarali, ishlab chiqarishni tashkil qilishga asosiy zamin bo'ladi. Iqtisodiy tahlilda taqqoslanishning turli usullarini muntazam qo'llash yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tuzatishga, yuqori ko'rsatkichga va tajribaga ega bo'lgan qo'shni xo'jaliklar yutuqlaridan foydalanishga imkon yaratadi.

Taqqoslash usuli korxonalar faoliyatini tahlilda qo'shni xo'jaliklar, o'rtacha nohiya, viloyat va jumhuriyat ma'lumotlari bilan o'rganilayotgan xo'jalik ma'lumotlarni solishtirishda ham ishlatiladi. Bularning barchasi xo'jalik faoliyatining to'la va chuqur o'rganishga, ko'rsatkichlarni o'sish yoki kamayganini aniq bilishga imkon yaratadi.

Iqtisodiy tahlil fanida ko'rsatkichlarni taqqoslab o'rganishda quyidagi talablarga rioya qilish lozim:

1. Taqqoslab o'rganishi lozim bo'lgan ko'rsatkichlarning aniqlanish usuli aynan bir xil bo'lishi kerak. Xo'jalik faoliyatini tahlil qilishda o'rganiladigan ko'rsatkichlarni to'g'ri taqqoslash uchun mazmunan bir xil usulda aniqlanganligini tekshirish lozim. Masalan korxonalarini rentabellik darajasini foydani ishlab chiqarish fondlariga yoki mahsulotlarning tannarxiga nisbatan, ayrim hollarda esa sof foyda yoki sotilgan mahsulotlarning tannarxiga nisbatan ham aniqlanishi mumkin. Shuning uchun ham rentabellik ko'rsatkichini o'rganiladigan davrlar bo'yicha bir xil usulda hisoblab, so'ngra o'zgarish darajasini tahlil qilishi lozim.

2. Bir xil bahoda hisoblangan ko'rsatkichlarga taqqoslanishi lozim. Tahlil qilishda o'rganiladigan ko'rsatkichlarni turli yillar bahosida hisoblab o'rganib bo'lmaydi. Chunki baho

o'zgarishi qiymat shaklda mahsulotlarni hisoblashda katta ta'sir etadi. Shuning uchun ham xo'jaliklar amaliy faoliyatida o'zgarimas (har 5-10 yil uchun) solishtirma baholar qabul qilingan.

3. Reja topshiriqlarining bajarilishi imkoniyati haqiqiy holatga mos kelishi lozim. Bu shart ayniqsa korxonalarining reja topshiriqlarini bajarilishi darajasini tahlil qilishda ko'proq e'tiborga olinishi lozim. Reja topshiriqlarini bajarilish og'irligini hisoblash bo'yicha koeffitsientlardan foydalanish lozim.

4. O'rganiladigan davrlar bir xil bo'lishi kerak. Bu talabning mazmuni avvalgi talabga nisbatan bir muncha oddiy bo'lib, tahlilda o'rganiladigan ko'pgina ko'rsatkichlarning hajmi va o'zgarishi davr-vaqtning uzun va qisqaligiga bog'liqdir. Masalan: oy, kvartal, dekada va yil oxirlarida korxonalarda ish qizg'in va tezlashib ketishi bu davrdagi ma'lumotlarni o'rganishda e'tiborga olinishi lozim. Qurilish tashkilotlarida yil mobaynida ob'ektlarga xarajat sarflari turlicha bo'lishi mumkin, shuning uchun ham ayrim ko'rsatkichlarni tahlil qilishda, bu omil e'tiborda bo'lishi kerak. Demak iqtisodiy tahlilda taqqoslab o'rganiladigan ko'rsatkichlarning sodir bo'lishi vaqti va davri albatta hisobga olinadi.

5. Korxonaning joylanishi va iqlim sharoiti teng darajada hisobga olinishi lozim. Turli xil iqlim va sharoitda joylashgan korxonalarining ko'rsatkichlarini xato xulosalarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham bu tabiat omillarini ta'siri iqtisodiy tahlilda e'tiborga olinishi shart.

Turli xil tabiiy sharoitda ishlaydigan korxonalarda joriy va avvaldan mo'ljallangan xarajatlar hajmi, mahsulotlar birligiga mehnat sarfining miqdori, energiya sarfi, transport vosita xarajatlari va boshqa turdagi chiqimlarda farq bo'ladi. Iqlim sovuq territoriyalarda energiya bilan ta'minlash xarajatlari yuqori bo'lsa, janubiy zonalarda yozgi issiq kunlari sovutkich xarajatlari ko'proq bo'ladi. Xarajatlar hajmiga faqat tabiat omillarigina emas, balki tuproq tuzilish, seysmologik holatlar ham ta'sir etadi.

Shuning uchun ham taqqoslash belgisi sifatida turli tizim va tabiiy omillar ta'sirini hisobga oluvchi maxsus usullar joriy qilinishi lozim. Faqat aniq shart-sharoitni hisobga olgan holda iqtisodiy tahlilning taqqoslash usulini qo'llab o'rganishgina to'g'ri natijalarni beradi.

6. Ko'rsatkichlari taqqoslanuvchi korxonalarining ixtisoslashuvi, mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi va xo'jalik yo'nalishlari bir-biriga o'xshash bo'lishi kerak.

Bu talabning muhim tomoni shundaki, har xil korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turlicha mehnat, mashina-xarajatlar talab qilishi, asosiy fondlarning tarkibidagi o'zgarishlar va farqlar, o'rtacha mehnat unumdorlikni, fond qaytimini va mahsulot birligiga sarflar hajmini o'zgarib ketishni e'tiborga olish lozimligini ko'rsatadi.

7. O'rganiladigan ob'ektlar soni ham bir-birlariga mos bo'lishi shart. Bunda taqqoslanuvchi ko'rsatkich faqat ayrim tsex yoki brigada bo'yicha olingan bo'lsa qolgan talab qilingan ma'lumotlar ham faqat shu ob'ektlarga tegishli bo'lishi lozim. Umuman tarmoq yoki xo'jalik bo'yicha o'rganiladigan ma'lumotlar bilan ikkinchi korxonadagi ayrim kichik ma'lumotlar solishtirilishi aniq natijani aks ettirmaydi. Faqatgina hajmi jihatidan mos keluvchi belgilar bo'yicha ma'lumotlarni o'rganishgina tahlil natijalarini yanada aniqlashtiradi.

8. Mahsulotlar sifati ham taqqoslash usulini qo'llaganda nazarda tutilishi lozim.

Bu talabning mazmuni shundan iboratki, taqqoslanadigan mahsulotlar bo'yicha sifat ko'rsatkichlar ham teng bo'lishi zarur. Buning uchun o'rganiladigan ko'rsatkichlardagi eng yuqori sifat asos deb qaralib, qolgan turdagi past sifatli mahsulotlar koeffitsientlardan foydalanib yuqori sifat mahsulotlariga tenglashtirib o'rganiladi.

Demak, korxonalar faoliyatini taqqoslash usulini qo'llab o'rganishda son va sifat ko'rsatkichlarni e'tiborga olgan holda birgalikda tahlil qilish lozim.

9. Texnik xavfsizlik va ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha tadbirlar bilan bog'lanib ko'rsatkichlarni solishtirish.

Texnik xavfsizligi va atrof-muhitni tozaligini ta'minlash aniq korxonadagi mahsulot hajmini ko'paytirishga ta'sir etmasada, balkim mehnat unumdorligini o'stirishga, tannarxni pasayishiga sabab bo'lishi mumkin.

Shuning uchun ham o'rganiladigan korxonalaridan eng yuqori texnika xavfsizlikni va atrof muhitni sofliğini ta'minlanganlik uchun bajargan xarajatlarga qolgan korxonalarni sarfini tenglashtirilib so'ngra ko'rsatkichlar tahlili bajariladi.

10. Taqqoslash usulini qo'llashda muhim talablardan yana biri ijtimoiy ishlab chiqarish turlari xususiy, jamo yoki davlat korxonasidami albatta hisobga olinishi lozim. Bu esa ko'rsatkichlarni iqtisodiy mazmunini bilish va ularni taqqoslash talablariga keltirishga yordam beradi.

Demak, taqqoslash usulini qo'llashdagi yuqorida ta'kidlangan shartlarga rioya qilish tahlilning sifatli bo'lishiga, uning natijalarini to'g'ri bo'lishiga yordam beradi.

Xo'jalik ma'lumotlarini taqqoslash usulida o'rganishda taqqoslash usuli talablariga amal qilgan holda ko'rsatkichlarni tayyorlab audit jadval shaklida yoki grafik shaklida ma'lumotlarni umumlashtirish mumkin. Bunday taqqoslash natijasida jamoa xo'jaligining yangi mahsulot ishlab chiqarishi to'g'risidagi ko'rsatkichlarning o'tgan davrlarga nisbatan o'zgarishini tahlil qilish mumkin.

4. Guruhlashtirish usuli

Har bir iqtisodiy hodisa va jarayonlar eng avvalo, boshlang'ich hujjatlarda aks ettiriladi. Bu boshlang'ich hujjatlardagi ma'lumotlarni tahlil qilish uchun, ular ma'lum tartibga solinishi "analitik guruhlashtirish" zarur. Analitik guruhlashtirish - bu yig'ma-umumiy ma'lumotlardan alohida muhim belgilari va xususiyatlari buyicha guruhlariga ajratishdir.

Analitik guruhlarini o'zining bajaradigan maqsadi va mazmuniga qarab: tipologik, tarkibi va omilli guruhlariga ajratish tushuniladi. Bunday guruhlar tuzishga sanoat korxonalarida barcha hodimlarni kategoriyalarga ajratilishini misol qilish mumkin. Sanoat ishlab chiqarish xodimlarining kategoriyalariga qarab asosiy va yordamchi ishlarga, injener-texnik xodimlar va ishchilar o'rtasidagi nisbatlarni qay darajaligini o'rganiladi. Shu bilan birga keyinchalik har bir turdagi kategoriyadagi xodimlarni o'z ichida yana mayda guruhlar tuzilishi mumkin. Misol uchun, ishchilar kategoriyasini hisob kodi bo'yicha yana bo'laklarga bo'lish mumkin. Ya'ni,

Tarkibiy guruhlashtirish - umumiy yirik belgilar bo'yicha tuzilgan guruhlar ichidan ayrim qonuniyatlar va belgilarni o'rganishga mo'ljallanadi. Masalan: umumiy ishchilar sonini malakasi, ma'lumoti, ish (tartibi) tajribasi, yoshi, jinsi va boshqa belgilari bo'yicha o'rganish.

Omilli guruhlashtirish - o'rganiladigan hodisa va qonuniyatlarining o'zgarish sabab-oqibatlariga ta'sir qiluvchi omillar bo'yicha guruhlariga ajratishga mo'ljallanadi. Bunday guruhlariga hodimlarning oylik maoshini o'zgarishini va ularning ish stajiga bog'liqligiga qarab guruhlar tuzishni misol keltirish mumkin.

Bu yuqorida keltirilgan guruhlashtirishning barcha turlari xo'jalik faoliyatini tahlil qilishda qo'llaniladi.

Boshqaruv ishlarni qo'yi zvenodan yuqoriga qarab kattalashuvi bilan guruhlashtirish usulining ahamiyati va mazmuni o'sa boradi. Xo'jalik faoliyatini tahlil qilishda guruhlashtirish qo'llanilsa ma'lum talab va qonuniyatlarga amal qilinadi. Masalan: tipologik guruhlar tuzganda iqtisodiy asoslangan, tahlilda aniq qonuniyatlar ko'rinadigan guruh tuzishga intilish lozim.

Tarkibli va omilli guruhlashtirishda esa - guruhlar oralig'idagi farqlar masofalar bir-biriga moslanish lozim.

Guruhlashtirish usulini qo'llashda ham ayrim talab va qonuniyatlarga amal qilinishi lozim, jumladan:

1. Tahlil natijalarining aniqligini ta'minlash maqsadida tuzilgan guruhlar o'rtasidagi intervallar oralig'ini yaqinroq olish lozim.

2. Dastlabki va oxirgi guruh ochiq, qolgan oraliq guruhlar yopiq bo'lishi, ya'ni boshlang'ich va oxirgi guruh chegaralari aniq bo'lishi kerak.

3. Guruhlar tuzish kichik sondan, yuqoriga borish tartibiga amal qilingan holda tuzilishi kerak.

4. Barcha o'rganiladigan ob'ektlar soni tuzilgan guruhlariga baravar taqsimlanganligiga rioya qilinishi shart.

Yuqorida ko'rsatilgan talablarga amal qilish iqtisodiy tahlil natijalarini to'g'ri va aniq bo'lishiga, o'rganiladigan ko'rsatkichlarning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni aniq hisoblash imkoniyatlarni yanada kengaytiradi.

5. Balansli bog'lanish usuli

Iqtisodiy tahlil qilishda ko'pgina ko'rsatkichlar bir-biri bilan funktsional bog'liqlikda o'rganiladi. Bir o'rganiladigan ma'lumotning o'zgarishi ikkinchi ko'rsatkich bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Masalan: tovar mahsulotining yil oxiriga qoldig'ini tahlil qilishda uning yil boshidagi omborda bo'lgan qiymati, yil davomida ishlab chiqarilgan va sotilgan tovar mahsulotlar hajmini o'rganmasdan hisob-kitob qilish aniq natija keltirmaydi. Bu bog'liqlikni quyidagi formulada (tovar mahsuloti balansida) ko'rsatish mumkin.

$$TK_{\text{yil boshiga}} + MT = ST + TK_{\text{yil oxiriga}}$$

Bunda: **TK** - tovarlar qoldig'i yil boshi va yil oxiriga qoldig'i;
MT - tovar mahsuloti kirimi (ishlab chiqarilgan mahsulot);
ST - jami sotilgan va jo'natilgan tovarlar.

Demak korxonada tovar mahsuloti sotish hajmiga

$ST = TK_{\text{yil bosh.}} + MT - TK_{\text{yil oxiriga}}$ teng bo'ladi, demak balansli bog'lanish usulini qo'llashgina tovar mahsulot hajmini to'g'ri o'rganish imkonini beradi.

Iqtisodiy tahlilni, ayniqsa, mehnat resurslari, er fondi, daromad va xarajatlar, moliyaviy holat kabi mavzularni o'rganishda balansli bog'lanish usuli qo'llaniladi, mehnat resurslarini balans usuli bilan o'rganishda korxonada mavjud bo'lgan mehnatga qobiliyatli yashovchilarni tarmoqlar bo'yicha, ya'ni dehqonchilik, chorvachilik, yordamchi va sanoat ishlab chiqarishlariga taqsimlanishi balansini tuzish mumkin.

Er fondi bo'yicha ham korxonalaridagi jami qishloq xo'jaligiga yaroqli erlarni ekin turlariga taksimlanganligi balansini tuzilib tahlil qilinadi. Korxonalarining buxgalteriya hisobotining 1-shakli "Buxgalteriya balans" ham ushbu usulga asoslanib tuzilgan. Balans ma'lumotlariga asoslanib korxonalarini moliyaviy holati, to'lov qobiliyatiga egaligi tahlil etiladi.

2-jadval

Korxonani to'lov darajasini balansli bog'lanish usuli bilan o'rganish

| To'lov mablag'lari | Summa | To'lov majburiyatlari | Summa |
|---|-------------|--|-------------|
| 1. Pul mablag'lari | 2000 | 1. Mol etkazib beruvchilarga qarz | 1200 |
| 2. Tayyorlov tashkilotlariga jo'natilgan tovarlar | 300 | 2. Davlat byudjetiga qarz | 600 |
| 3. To'lov muddati o'tgan debitorlik qarzlari | 600 | 3. Mehnat haqi bo'yicha qarz | 100 |
| 4. Boshqa tushumlar | 100 | 4. Ijtimoiy sug'urtaga bo'lgan qarz | 50 |
| | | 5. To'lov muddati etmagan kreditorlik qarz | 150 |
| | | 6. Boshqa chiqimlar | 100 |
| Jami | 3000 | Jami | 2200 |
| To'lov majburiyatlarning ko'pligi | - | To'lov mablag'larining ortiqchasi | 800 |
| Balans | 3000 | Balans | 3000 |

Demak, balansli bog'lanish usulini qo'llab korxonalarining pul daromadlarini to'lov majburiyatlariga etarli va etishmasligini tahlil qilish mumkin ekan. Balans usulini iqtisodiy tahlilda qo'llash o'rganiladigan ko'rsatkichlarning bir-biri bilan funktsional bog'liqligi yaqin bo'lgandagina ijobiy va to'g'ri natijalar keltiradi.

6. Mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlarni hisoblash usuli

Mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlarni hisoblash usuli - ko'proq statistika fanida keng qo'llanilib, tahlilda ko'pgina o'rganiladigan ko'rsatkichlarni o'sish va o'zgarishini hisoblashda foydalaniladi. Mutloq o'zgarish tahlilda har bir o'rganiladigan ma'lumotlarni avvalga davrlarga nisbatan farqlarini ko'rsatsa, nisbiy ko'rsatkichlar esa foiz, koeffitsient, indeksda hisoblanadi. Bu ko'rsatkichlarni hisoblash va o'rganish va tartiblari statistika fanida keng yoritiladi. Iqtisodiy tahlilda absalyut va nisbiy ko'rsatkichlarini qo'llanilishi mehnat haqi fondini sarflanishida o'rganishda ayniqsa ko'proq ishlatiladi.

3-jadval

Mehnat haqi fondining mutlaq va nisbiy farqlarini hisoblash.

| | Joriy yil rejasi bo'yicha | Mahsulot ishlab chiqarish hajmining bajarilishiga karab hisoblangan shartli ko'rsatkich | Haqi- qatda | Farqi (+;-) | |
|------------------------------|---------------------------------|---|----------------|----------------|--------|
| | | | | Mutloq | Nisbiy |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5(4-2) | 6(4-3) |
| Mehnat haqi, ming so'm | 2000 | $\frac{2000 \times 105}{100} = 2100$ | 2060 | +60 | -40 |

Izoh: Korxonada mahsulot ishlab chiqarish rejasi 105 foizga bajarilgan.

Korxonada mehnat haqi fondining mutlaq farqi +60,0 ming so'mni nisbiysi esa - 40,0 ming so'mni tashkil qiladi. Demak, korxonada mehnat haqi sarfini rejadagi belgilangan me'yorga nisbatan 40,0 ming so'mga iqtisod qilgan. Bundan ko'rinadiki nisbiy ko'rsatkichlar tahlilida yanada ko'proq aniqlikni ifodalay ekan.

7. Zanjirli bog'lanish usuli

Zanjirli bog'lanish usuli - umumiy ko'rsatkichlarga har bir olingan alohida kichik omillarning ta'sirini hisoblash uchun qo'llaniladi. Bunda har bir kichik omilni ta'sirini hisoblashda ikki omillar ko'paytmadan iborat qatorlar tuziladi va bu jarayonda turla variantlar bo'yicha o'rni almashtirilgan hisoblash ishlar bajariladi, natijada ma'lum shartli ko'rsatkich topiladi. Bu topilgan shartli ko'rsatkichga ta'sir etuvchilarning xolislantirilgani ya'ni, tanlab alohida olingan bir omilning o'zgarish hisobiga sodir bo'lgan farq topiladi. Zanjirli bog'lanish uslubining mohiyatini aniq amaliy misolda yanada yaqqolroq ko'rish mumkin.

4-jadval

Zanjirli bog'lanish usulini moddiy aylanma mablag'lar xarajati o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashda qo'llanilishi.

| | Biznes rejada | Haqi- qatda | Farqi (+,-) |
|---|------------------|----------------|-------------|
| 1. Moddiy aylanma mablag' miqdori, ts | 30 | 32 | +2 |
| 2. 1 ts. qiymati, ming so'm | 92 | 90 | -2 |
| 3. Jami moddiy aylanma mablag' xarajati, ming so'm | 2760 | 2880 | +120 |

Jami xarajatlar summasining o'zgarishi +120 ming so'mni tashkil etgan. Unga ta'sir ko'rsatgan omillarni hisoblash uchun, qo'shimcha shartli ko'rsatkich aniqlanadi:

$92 \times 32 = 2944$ ming so'm (rejadagi baho va haqiqiy me'yor).

Xarajatlarning biznes-rejada belgilangan ko'rsatkichdan ortiqcha sarflanishiga:

a) moddiy aylanma mablag'lar me'yorning o'zgarishini ta'siri

$2944 - 2760 = +184$ so'm;

b) moddiy aylanma mablag'lar bahosining o'zgarishini ta'siri

$2880 - 2944 = -64$ so'm;

ikkala omilning ta'siri

$+184 - 64 = +120$ so'm.

Ko'rinib turibdiki korxonada moddiy aylanma me'yoring +2 t. ga ortiqcha sarflanishi umumiy moddiy aylanma xarajatini +184 ming so'mga oshishiga olib kelgan. Moddiy aylanma bahosini -2 ming so'mga pasayishi umumiy moddiy aylanma mablag'lar xarajatini - 64 ming so'mga arzonlashishiga ta'sir etgan.

Mavzuni takrorlash uchun savollar

1. Iqtisodiy tahlil fani usulining muhim xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Iqtisodiy tahlil usuli necha guruhga ajratiladi?
3. Taqqoslash usulida qo'llaniladigan shartlar nimalardan iborat?
4. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan boshqa usullarga ta'rif bering?

Mavzuni mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar

- fan metodining tushunchasi;
- metodning muhim xususiyatlari;
- iqtisodiy tahlilning an'anaviy usullari;
- taqqoslash usuli;
- guruhlashtirish usuli;
- absolyut va nisbiy ko'rsatkichlarni aniqlash usuli;
- balansli bog'lanish usuli;
- zanjirli bog'lanish usuli.

IV. Iqtisodiy tahlilning iqtisodiy-matematik usullari

- 1. Iqtisodiy matematik usullarning turlari.**
- 2. Chizma usuli.**
- 3. Korrelyatsion va regression tahlil**
- 4. Iqtisodiy tahlilning omillar tizimi va detemillashgan modellar.**
- 5. Statistik modellar va iqtisodiy omillar tizimining tahlili.**
- 6. Integral usuli tahlili.**
- 7. Nazariy o'yin usulining tahlilda foydalanishning o'ziga xos tomonlari.**

1. Iqtisodiy matematik usullarning turlari

Iqtisodiy tahlil ishlarini takomillashtirishning yo'llaridan biri matematik usullardan keng ko'lamda foydalanishdir. Matematik usullarni tahlil ishlarida qo'llanilishi quyidagi afzalliklarni beradi:

- tahlil qilish muddatini qisqartiradi;
- tahlil natijalari aniq hisob-kitob qilinadi;
- ta'sir etuvchi omillarning barchasini hisob-kitob qilish imkoniyati bo'ladi;
- iqtisodiy voqeliklarni hisoblash texnikasi vositasida qayta ishlash imkoniyati yaratiladi.

Iqtisodiy tahlilda matematik usullarni qo'llash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- masala sharti belgilanadi;
- o'rganilayotgan ko'rsatkichga ta'sir ko'rsatuvchi omillar belgilanadi;
- matematik hisoblash modellari belgilanadi;
- ekspremental model tuziladi;
- o'rganilayotgan ko'rsatkich hisoblanadi va tahlil qilinadi;
- o'rganilayotgan iqtisodiy hodisalarni chuqurroq bilishning ko'pgina echimlari topiladi.

Iqtisodiy matematik usullarga chizma, evristik, korelyatsion va regression, integral, nazariy o'yin va shu kabillarni misol qilib ko'rsatib o'tishimiz mumkin.

2. Chizma usuli

Iqtisodiy tahlilda chizma ko'rinishidagi barcha shakllardan foydalanish mumkin. Misol uchun, diagramma, grafik, kartogramma va boshqalar. Ushbu shakllarda tahlil qilinayotgan hodisalar geometrik shakllar asosida ifodalanib o'rganiladi. Diagrammalarda ko'rsatkichlar shakl ko'rinishida aniq miqdorlar bilan bo'laklarga bo'lib tasvirlanadi. Grafiklar vositasida funktsional voqelikdan kelib chiqadigan ko'rsatkichlar X va Y o'qida ifodalaniladi. Kartogrammalarda ketma-ketlikda keladigan shu bilan birgalikda bir-biri bilan bog'liq iqtisodiy jarayonlar jadval ko'rinishida belgilanib o'rganiladi.

Chizma usulini iqtisodiy tahlilda qo'llanilishi tahlil qilinayotgan ob'ektni holatini, unga ta'sir etuvchi muhim omillarni shakl ko'rinishida o'rganish imkoniyatini yuzaga chiqaradi.

3. Korrelyatsion va regression tahlil

Korelyatsiyali va regressiyali usul ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikni qanchalik jips ekanligini aniqlashda keng qo'llaniladi. Ya'ni, hodisalar o'rtasidagi bog'liqlik miqdorini ifodalaydi.

Korelyatsiyali va regressiyali usuldan foydalanib mahsulot tannarxi bilan mehnat sarfi o'rtasidagi bog'liqlikni quyidagi ma'lumotlar asosida aniqlaymiz.

5-jadval

Aksionerlik jamiyatida mahsulot birligining tannarxi va mahsulot birligiga sarflangan mehnat o'rtasidagi bog'liqlik tahlili.

| Tsexlar | Mahsulotning bir birlik t/n | Mahsulotning bir birligiga sarflangan mehnat haqi | X_1^2 | X_2^2 | $X_1 * X_2$ |
|---------|-----------------------------|---|---------|---------|-------------|
| 1 | 2 (X_1) | 3 (X_2) | 4 | 5 | 6 |
| 1 | 240 | 40 | 57600 | 1600 | 9600 |
| 2 | 220 | 40 | 48400 | 1600 | 8800 |
| 3 | 231 | 41 | 53361 | 1681 | 9471 |
| 4 | 239 | 40 | 57121 | 1600 | 9560 |
| 5 | 255 | 57 | 65025 | 3249 | 14535 |
| 6 | 260 | 53 | 67600 | 2809 | 13780 |
| 7 | 280 | 64 | 78400 | 4096 | 17920 |
| Jami: | 1725 | 335 | 427507 | 16635 | 83666 |

Mahsulot birligi tannarxi va mahsulot birligiga mehnat sarfi o'rtasidagi bog'liqlik doirasi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$R_{x_1x_2} = \frac{\overline{X_1X_2} - \bar{X}_1 * \bar{X}_2}{\sqrt{AX_1 * AX_2}} \quad (1)$$

Bu erda:

$$\overline{X_1X_2} = (\text{sum}(X_1 * X_2)) / n \quad \text{formulasiga ko'ra}$$

$$\overline{X_1X_2} = 83666 / 7 = 11952;$$

$$\bar{X}_1 = (\text{sum}(X_1)) / n \quad \text{formulasiga ko'ra} \quad \bar{X}_1 = 1725 / 7 = 246,4;$$

$$\bar{X}_2 = (\text{sum}(X_2)) / n \quad \text{formulaga asosan} \quad \bar{X}_2 = 335 / 7 = 47,8;$$

$$\bar{X}_1 * \bar{X}_2 = 246,4 * 47,8 = 11777,9;$$

$$AX_1^2 = ((\text{sum}(X_1^2)) / n) - (\bar{X}_1)^2, \quad AX_1^2 = 359,5, \quad AX_1 = 18,9;$$

$$AX_2^2 = ((\sum(\bar{X}_2^2)/n) - (X_2)^2), \quad AX_2^2 = 91,5, \quad AX_2 = 9,5.$$

Ushbu hisoblashlar natijalaridan kelib chiqib, bog'liqlik doirasini aniqlaymiz va u $R=0.97$ (1-formula asosida) koeffitsientga teng bo'ladi. Demak, mahsulot tannarxi bilan mehnat sarfi o'rtasidagi bog'liqlik 0.97 ga teng ekan. Albatta, bu omillarning bog'liqlik doirasi katta koeffitsientni tashkil etadi. Chunki, mazkur omil ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

4. Iqtisodiy tahlilning omillar tizimi va detemillashgan modellari

Iqtisodiy tahlil - bu avvalom bor omilli tahlildir. Omilli tahlil deyilganda ko'rsatkichlarga yoki ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi birliklar tizimini e'tiborga olib o'rganish tushuniladi. Ushbu tahlilda matematik usullar keng qo'llaniladi. Omilli tahlilda iqtisodiy matematik usullarni qo'llash, tahlil qilinayotgan jarayonlarning murakkabligiga, hajmiga va o'rganish lozim bo'lgan vazifalariga bog'liqdir.

Mazkur jarayonlardan kelib chiqib bu usul tarkibidagi xohlagan usulimizni (integral, regressiv va korrelatsion, evristik va h.k.) tanlab olishimiz mumkin.

Har bir hisob-kitob ishi borki, u avvalom bor o'z shartini belgilash bilan boshlanadi. Aniqlanayotgan ob'ektni shartini belgilash bizning oldimizdagi asosiy vazifani belgilab beradi va shuning uchun ham ishimizni masala shartini belgilash bilan boshlaymiz. Shunday ekan shartni belgilashdan keyin bu jarayonga ta'sir etuvchi omillarni ketma-ketligini aniqlashimiz zarur. Chunki, har bir jarayonning sodir bo'lishiga turli xil omillar ta'sir etadi. Ushbu jarayonda biz tahlil maqsadi va uning oldiga qo'yilgan vazifalardan kelib chiqib kerakli bo'lgan omillarni aniqlashimiz zarur.

Bu ikki nazariy bosqich yakunidan so'ng biz amaliy bosqichni boshlaymiz, ya'ni iqtisodiy matematik hisoblash usulini belgilash bu bosqichga qadam tashlaganligimizdan dalolat beradi. Undan hisob-kitob ishlari bajarilib, hisoblangan ko'rsatkichlar va natijalar tahlil qilinadi.

5. Statistika modellar va iqtisodiy omillar tizimini tahlili

Omillar tizimini modellashtirishda iloji boricha hisoblanib o'rganiladigan barcha omillar bir-biri bilan bog'liq hamda umumiy natijaga ta'sir etishni aniq hisoblash imkoniyati bor deb belgilash talab etiladi. Bunda, o'rganilayotgan ko'rsatkichni keltirib chiqaradigan mutlaq ko'rsatkichlar hamda nisbiy ko'rsatkichlar ilmiy asosda aniqlanadi va jadvalga joylashtiriladi. Ularning har biri matematik ifodalar bilan belgilanadi hamda formulalashtiriladi. Misol uchun, rentabellik ko'rsatkichi sof foydani asosiy ishlab chiqarish fondlarining yillik o'rtacha qiymatiga bo'lish vositasida topiladi yoki uni matematik modellashtirsak,

$$R = \frac{Fb}{(Q+W)} \quad \text{yoki} \quad \frac{X_1}{X_2 + X_3}$$

Fb , X_1 - hisobot yil sof foyda.

Hisobot yilgi sof foydani buxgalteriya hisobotidan olamiz.

Q , X_2 - asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati buxgalteriya balansi yoki asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot shaklidan olinadi. Mazkur hisobot shakllaridan foydalanib asosiy vositalarning yil boshiga va yil oxiriga bo'lgan dastlabki yoki qoldiq qiymatini aniqlab olamiz. Bunga ko'ra, A_1 - yil boshiga boshlang'ich qiymat; A_2 - yil oxiriga boshlang'ich qiymat bo'lsin. U holda ularning A_{ur} - o'rtacha quyidagicha aniqlanadi:

$$A_{ur} = \frac{(A_1 + A_2)}{2}$$

Kelib chiqadigan natija asosiy vositalarning hisobot yilidagi o'rtacha qiymatini beradi.

W , X_3 - me'yorlashtirilgan aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qiymatini matematik ifodasidir. Me'yorlashgan aylanma mablag'larni o'rtacha yillik qiymatini buxgalteriya balansning 120 satridan to 160 satrilaridan foydalanib yil boshiga va yil oxiriga bo'lgan qiymatlarini topib olamiz. Aniqlangan miqdorlarni xuddi asosiy vositalar uchun topilgan o'rtacha qiymat ko'rsatkichi singari, aylanma mablag'larning yillik o'rtacha miqdorini topishda ham foydalaniladi.

Omillarni o'rganishda evristik usulni qo'llashning mohiyati asosiy urganilayotgan ko'rsatkichni o'zgarishiga ta'sir etgan birliklarni miqdorini o'rganishda namoyon bo'ladi. Omillar ta'sir etish ahamiyatiga ko'ra joylashtiriladi. Misol uchun, rentabellik koeffitsientini o'zgarish sabablarini aniqlashda quyidagi tartiblarga amal qilinadi:

Mutlaq ko'rsatkichlar

1. Sof foyda, ming so'm
2. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining yillik o'rtacha qiymati, ming so'm
3. Me'yorlashtirilgan aylanma mablag'larning yillik o'rtacha qiymati, ming so'm
4. Realizatsiya qilingan mahsulot, ming so'm

Nisbiy ko'rsatkichlar

5. Bir so'mlik realizatsiya qilingan mahsulotga to'g'ri keladigan sof foyda
6. Asosiy fondlar sig'imi
7. Me'yorlashtirilgan aylanma mablag'lar sig'imi.
8. Me'yorlashtirilgan aylanma mablag'larning aylanish koeffitsienti
9. Jami fondlar tarkibdagi me'yorlashtirilgan aylanma mablag'lar ulushi.

Omillar hisob-kitobi

- a) bir so'mlik realizatsiya qilingan mahsulotga to'g'ri keladigan foydaning nisbiy tamonga o'zgarishi necha koeffitsientga rentabellikka ta'sir etgan;
- b) asosiy fondlarning sig'imini o'zgarishi esa rentabellikka necha koeffitsientga ta'sir etgan;
- v) aylanma mablag'larning o'zgarishi esa necha koeffitsientga salbiy ta'sir etgani aniqlanadi.

6. Integral usuli tahlili

Xo'jalik faoliyatini o'rganishda voqelikni tashkil etuvchi omillar va ularga ta'sir etuvchi sabablar o'zgarib turadi. Tahlil jarayonida ularning bir-biri bilan bog'liqlikda ekanligi e'tiborga olinishi lozim. Iqtisodiy hodisalarni o'rganish va bilish uchun ko'rsatkichning o'zgarishiga ikkita va undan ortiq omillarni ta'sir etishini hisoblashda integral usuli ko'proq qo'llaniladi. Bu usulning mazmuni quyidagi misolda ko'rsatilgan.

6-jadval

Mahsulot hajmining o'zgarishiga moddiy aylanma mablag'lar sarfi va undan samarali foydalanganlik (moddiy aylanma mablag'lar qaytimi) ta'siri tahlili.

| Ko'rsatkichlar | Shart-li belgi | Reja | Xaqi-qatda | Farqi (+;-) | Baja-rili-shi % |
|---|----------------|------|------------|-------------|-----------------|
| 1.Yalpi mahsulot, ming so'm | Ya | 6000 | 6500 | +500 | 108,3 |
| 2.Moddiy qiymatliklar sarfi, ming so'm | M | 3000 | 3100 | +100 | 103,3 |
| 3.Moddiy aylanma mablag'lar qaytimi, so'm | Mq | 2,0 | 2,096 | 0,096 | 104,8 |

Moddiy aylanma mablag'lar sarfi o'zgarishini mahsulot hajmi- ga ta'sirini integral usulida quyidagicha aniqlanadi:

$$1. \Delta Y_{am} = Mq_0 \cdot \Delta M + (\Delta M \cdot \Delta Mq) / 2$$

formulasiga ko'ra,

$$\Delta Y_{am} = 2 \cdot 100 + (0,096 \cdot 100) / 2 = 204,8 \text{ ming so'm.}$$

2. Moddiy aylanmalar qaytimini o'zgarishi ta'siri:

$$\Delta Y_{amq} = M_0 \cdot \Delta Mq + (\Delta M \cdot \Delta Mq) / 2$$

formulasiga ko'ra,

$$\Delta Y_{amq} = 3000 \cdot 0,096 + (0,096 \cdot 100) / 2 = 292,8 \text{ ming so'm.}$$

3. Ikki omilning ta'siri:

$$\Delta Y_{am} + \Delta Y_{amq} = 204,8 + 292,8 = 497,6 \text{ ming so'm.}$$

Ikki omilning ta'siri 500 ming so'mni tashkil etishi kerak edi, lekin ayrim yaxlitlashlar hisobiga 497,6 ming so'mni tashkil etdi.

Demak, mahsulot hajmining rejaga nisbatan oshishiga moddiy aylanma mablag'larni +100 ming so'mga ko'p sarflanishi +204,8 ming so'm miqdorda ijobiy ta'sir etgan.

Moddiy aylanmalardan samarali foydalanishning +0,096 so'mga oshishi esa 292,8 ming

so'mga mahsulot hajmini oshirgan.

Ushbu misolda integral usulidan foydalanib moddiy aylanma mablag'lar qaytimi va qiymatining o'zgarishini mahsulot hajmiga ta'sirini miqdor jihatdan aniqlandi.

7. Nazariy o'yin usuli

Nazariy uyin usulining mohiyati shundan iboratki, turli xil shart-sharoitlarda korxonalar yoki firma uchun qanday yo'l topish yoki kelgusidagi strategiya va unga mos taktika belgilash yo'nalishlarini topish uchun qo'llaniladi. Korxonalar (firma) turli xil usullardan foydalanib ish yuritishi mumkin. Lekin, mavjud usullar yoki variantlarni ichida eng qulay va yuqori manfaat keltiruvchisi yagona bo'lishi mumkin. Ushbu yagona yo'lni topishda nazariy o'yin usulini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Nazariy o'yin usulining mohiyatini quyidagi misolda ko'rishimiz mumkin.

Ma'lumki, korxonalar(firma) ishlab chiqargan mahsulotini qanchaligi va iste'molchilar sotib olishi uchun kerakli me'yordagi miqdorni bilish quyidagi omillarga bog'liq bo'ladi: bozordagi talab; bozordagi taklif; tovarning bozordagi bahosi; aholining harid qobiliyati; mavsumiylik va hakoza.

Korxonalar mavsumiy ishlab chiqarish tsikliga ega. Shuning uchun ham yil davomida korxonalar joriy hisob raqamiga mahsulot sotishdan keladigan tushum bir xil emas. Korxonalar ishlab chiqarishni qay tarzda tashkil etsa joriy hisob raqamiga tushadigan tushum yil davomida bir xil bo'ladi. Masalan, korxonalar oktyabr va noyabr oylarida bir juft oddiy qo'lqop ishlab chiqarish uchun 700 so'm xarajat qiladi, bir juft charmli qo'lqop ishlab chiqarish uchun esa 3000 so'm xarajat qiladi. Sotish bahosi oddiy qo'lqop(o.q.) uchun -1000 so'm bo'lsa, charmli qo'lqop(ch.q.) uchun esa -4000 so'm.

Ko'p yillik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki korxonalar havo issiq kelsa 500 dona o.q. ,300 dona ch.q. sotar ekan. Sovuq havoda esa 200 dona o.q. mahsuloti, 600 dona ch.q. mahsulotlarini sotar ekan.

Havoni qay darajada bo'lishligi avvaldan bashorat qilish qiyinligini e'tiborga olib, ya'ni tabiat injiqligini hisobga olgan holda korxonalar tushadigan daromadni barqarorlashtirishni talab etilsa, buning uchun quyidagicha hisob kitob ishlari olib boriladi.

1. Havo issiq kelganda korxonalar daromadi quyidagicha bo'ladi:

$$500 \text{ o.q. } (1000-700) + 300 \text{ ch.q. } (4000-3000) = 150000 + 300000 = 450000 \text{ so'm};$$

2. Sovuq havoda esa daromad quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$200 \text{ o.q. } (1000-700) + 600 \text{ ch.q. } (4000-3000) = 60000 + 600000 = 660000 \text{ so'm}.$$

Korxonalar issiq havo uchun mo'ljallagan strategiyasi A, sovuq havo uchun V. Tabiatning issiq havosi uchun S, sovuq havosi uchun D belgilashlarini kiritamiz

Korxonalar uchun A va V strategiyalardan tashqari, tabiatning injiqligi natijasida oladigan daromadiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, korxonalar A strategiyasini qo'lladi, lekin havo sovuq keldi. Bunda korxonaning daromadi;

$$200 \text{ o.q. } (1000-700) - 300 \text{ o.q. } (1000-700) + 300 \text{ ch.q. } (4000-3000) = 270000 \text{ so'm}$$

Agar korxonalar V strategiyani qo'llagan holda S havo bo'lsa, u holda;

$$200 \text{ o.q. } (1000-700) + 300 \text{ o.q. } (1000-700) + 300 \text{ ch.q. } (1000-700) = 60000 \text{ so'mni}$$

tashkil etadi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan foydalanib esa, quyidagicha matritsa jadvalini tuzamiz.

| O'yinlar | R2 | | | |
|----------|------------|--------|--------|--------|
| | Strategiya | S | D | min |
| P1 | A | 450000 | 270000 | 270000 |
| | B | 60000 | 660000 | 60000 |
| | Max | 450000 | 660000 | |

Bunda korxonalar **R1**- komanda, tabiatni esa **R2** shartli belgi bilan belgilaymiz. **1- X** ko'rinishda noma'lum kiritib X noma'lumni topamiz. Buning uchun quyidagi ko'rinishda ikki iqlim sharoitini e'tiborga olgan holda tenglik tuzamiz:

$$450000(X)+60000(1-X)=270000X+660000(1-X) \text{ bunga ko'ra,}$$

$$450000X+60000-60000X=270000X+660000-660000X,$$

$$780000(X)=60000 \text{ yoki } X=10/13 \text{ ga teng.}$$

$U=1-(X)$ formulasiga ko'ra esa yana $3/13$ qiymatni chiqaramiz.

Keltirib chiqarilgan $X=10/13$; va $U=3/13$ koeffitsientlaridan foydalanib korxonaning ikkala tabiat sharoitida ham ega bo'lishi mumkin bo'lgan maksimal daromadni topamiz:

$$1. 450000*(10/13)+60000*(3/13)=360000 \text{ so'm;}$$

$$2. 270000*(10/13)+660000*(3/13)=360000 \text{ so'm.}$$

Keyingi vazifamiz korxonaning qanday nisbatda yil davomida charmli qo'lqop va oddiy qo'lqop ishlab chiqarishi lozimligini topish kerakki, shu holatda daromad yil davomida 360000 so'mni tashkil etsin. Buning uchun quyidagi hisob kitoblarni amalga oshiramiz:

$$500 \text{ o.q. } *(10/13) + 200 \text{ o.q. } * (3/13) + 300 \text{ ch.q. } (10/13) + \text{ch.q. } 600*(3/13)$$

$$500/13 \text{ oq} + 600/13 \text{ o.q.} + 300/13 \text{ ch.q.} + 1800/13 \text{ ch.q.} = 385 + 46 + 231 \text{ palto} + 138 = 431 \text{ o.q.} + 369 \text{ ch.q.}$$

miqdorda mahsulot ishlab chiqarish, korxonalar uchun ikkala tabiat sharoitida ham daromadini o'zgartirmagan holda faoliyatini davom ettiradi.

Buni tekshirib ham ko'rishimiz mumkin.

1-hol. 431 juft oddiy qo'lqop va 369 juft charmli qo'lqop tabiatning qanday bo'lishidan qat'iy nazar yil davomida ishlab chiqarilmoqda.

Havo iliq keldi. Bunda bizda, 431 o.q. hammasi, 369 ch.q. esa 300 dona sotiladi;

$$431*(1000-700)+300(4000-3000)-69(4000-3000)=360300 \text{ so'm.}$$

Ya'ni, ayrim yaxlitlashlar hisobiga 360300 so'm hisob kitobimizni tashkil etdi. Lekin, bu miqdor hisob-kitob ishlarimizni noto'g'riga chiqara olmaydi. Chunki, $360300=360000$ deb qaraladi.

2-hol. 431 o.q.dan 200 dona va 369 dona ch.q.dan hammasi sotiladi ya'ni:

$$231(1000-700) - 200*(1000-700) + 369*(4000-3000)+69(4000-3000) = 359700.$$

Mavzuni takrorlash uchun savollar

1. Iqtisodiy tahlilda matematik usullarni qo'llashning ahamiyati nimada?
2. Iqtisodiy tahlilda integral usulining mohiyati nimada va uni qaysi shartlarda qo'llash mumkin?
3. Korrelyatsion va regression usullarning mohiyati nimada va uni qaysi shartlarda qo'llash mumkin?
4. Boshqa iqtisodiy matematik usullarni qo'llanish doiralariga izoh bering?

Mavzuni mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar

- iqtisodiy-matematik usullarining turlari;
- integral usul;
- korrelyatsion va regression usul;
- evristik tahlil;
- nazariy o'yin usuli.

V. Kompleks iqtisodiy tahlil tizimi va ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash

- 1. Kompleks iqtisodiy tahlilni tashkil etish asoslari, mazmuni va asosiy tamoyillari.**
- 2. Kompleks iqtisodiy tahlilning umumiy sxemasi va undagi ko'rsatkichlarning bir-biri bilan bog'liqligi.**
- 3. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning imkoniyatlari va omillari.**
- 4. Intensivlashtirish va ishlab chiqarishning samaradorligini kompleks baholash usullari.**

1. Kompleks iqtisodiy tahlilning mazmuni va asosiy tamoyillari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik aloqalarining kengayishi, ishlab chiqarish suratlarining muntazam o'zgarib turishi sodir bo'layotgan iqtisodiy hodisa va jarayonlarni o'rganishga har tamonlama yondashishni taqozo etadi. Bu esa korxonalar faoliyatini kompleks tahlil qilish zaruratini keltirib chiqaradi. Bu esa kompleks tahlil tushunchasini ilmiy o'rganishni talab etadi.

«Kompleks» so'zi lotincha so'zdan kelib chiqib, aloqa, muvofiqlik, majmua, barchasi, jami degan ma'noni anglatadi. Xo'jalik faoliyatini kompleks tahlili deb xo'jalik faoliyatini bo'laklarga bo'lib bir-biriga bog'liq holda batafsil o'rganishdir. Ushbu tahlil turi tizimli yondashish bilan amalga oshiriladi. Shu ma'noda kompleks iqtisodiy tahlilning mazmunini korxonalar faoliyatni keng qamrovli tarzda o'rganish asosida, ularning har bir bo'lagini o'zaro bog'liqlikda, aloqadorlikda ko'rib chiqib mavjud resurslardan imkon qadar samarali foydalanishning chora tadbirlarini belgilab berish maqsadidagi, korxonalar faoliyati natijaviyligini yaxshilashga qaratilgan ichki imkoniyatlarini aniqlash tashkil etadi.

Kompleks iqtisodiy tahlilda o'rganiladigan ko'rsatkichlari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin.

- Mehnat resurslaridan samarali foydalanishni tavsiflovchi ko'rsatkichlar tahlili.
- Mehnat vositalaridan samarali foydalanishni tavsiflovchi ko'rsatkichlar tahlili.
- Mehnat ashyolari, buyumlaridan samarali foydalanishni tavsiflovchi ko'rsatkichlar tahlili.

Ishlab chiqarish va faoliyat natijaviyligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tahlili

Moliyaviy holat va to'lov layoqatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tahlili.

Xo'jalik faoliyatini kompleks o'rganish deganda barcha faoliyatni qiziquvchilar manfaatlarini nuqtai nazarida ma'lum ketma-ketlikda tartib va qonuniyatlarni e'tiborga olgan holda o'rganishga aytiladi.

Kompleks iqtisodiy tahlilda barcha ko'rsatkichlar o'zaro aloqadorlikda va bog'lanishda o'rganilgan holda korxonalar faoliyatiga umumiy tashxis quyiladi. Ishlab chiqarish samaradorligi va faoliyat natijaviyligini o'stirish yuzasidan ichki imkoniyatlarning mavjudligi umumlashtiriladi.

Kompleks iqtisodiy tahlil tamoyillari qatoriga quyidagilar kiritiladi:

- tizimlilik;
- to'liqlik;
- o'z vaqtidalik;
- umumiylik va hokazo.

Xo'jalik faoliyatini kompleks iqtisodiy tahlil etishda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yuzasidan intensiv omillar o'zgarishiga muhim ahamiyat beriladi.

2. Kompleks iqtisodiy tahlilning umumiy sxemasi va undagi ko'rsatkichlarning bir-biri bilan bog'liqligi

Kompleks iqtisodiy tahlilda barcha ko'rsatkichlar o'zaro bog'liqlikda va aloqadorlikda, bir butunlikda deb olinadi.

Xo'jalik hodisa va jarayonlarini kompleks o'rganish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi.

1.O'rganilayotgan ob'ekt umumiy kompleksida bir tizim deb olinadi.

2.Reja tuziladi.

3.Tanlangan yaxlit tizimda o'rganiladigan ma'lumotlar va ko'rsatkichlar belgilanadi.

4.Kompleks tahlil uchun jadvallar tuzish va hisob-kitob ishlarini amalga oshirish. Bevosita tahlil etishni o'tkazish, yo'l quyilgan kamchiliklarni, ko'rsatkichlardagi o'zgarishlar farqini aniqlash bosqichi.

5.Ko'rsatkichlar tizimiga asosan kompleks ko'rsatkichni aniqlash.

6.Ko'rsatkichga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni hisoblash.

7.Kamchiliklarni bartaraf etish, mavjud imkoniyatlarni topish va eng ilg'or g'oyalarni amaliyotga tadbiq etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish bosqichi.

Kompleks iqtisodiy tahlilda o'rganiladigan masalalarga quyidagilar kiritiladi:

Korxonalar(firma), kompaniyalar tashkiliy-texnikaviy darajasini o'rganish.

Korxonalar (firma) kompaniyalar ishlab chiqarayotgan mahsulotga bozor talabi va taklifining tahlili.

Mahsulot ishlab chiqarish va sotishni tahlili.

Mehnat resurslari va ular bilan ta'minlanganlik, mehnat unumdorligi ko'rsatkichlarini tahlili.

Moddiy resurslar, ular bilan ta'minlanganlik va samaradorlik tahlili.

Ishlab chiqarish xarajatlari tahlili.

Er fondi va uning unumining tahlili.

Korxonalar moliyaviy ahvoli tahlili.

Korxonalar moliyaviy natijalari tahlili.

Asosiy vositalar va ulardan samarali foydalanish ko'rsatkichlari tahlili.

Pul oqimi va uning harakatining tahlili.

Xususiy kapital va u bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar tahlili.

3. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning imkoniyatlari va omillari

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning imkoniyatlarini aniqlash tahlilning asosiy maqsadlaridan biridir. Ya'ni, mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish va korxonaning moliyaviy holatini yaxshilash yuzasidan korxonada mavjud bo'lgan imkoniyatlarni aniqlash va ularni yo'lga qo'yishning chora-tadbirlarini belgilash tahlilning muhim funktsiyasi hisoblanadi.

Tahlil etishda har bir tarkib bo'yicha korxonada mavjud bo'lgan ichki imkoniyatlarga baho beriladi. Jumladan, ishlab chiqarishda mehnat resurslari bo'yicha imkoniyatlarning mavjudligi, mehnat vositalari va ulardan samarali foydalanish bo'yicha imkoniyatlar, mehnat predmetlari va ulardan samarali foydalanish bo'yicha imkoniyatlar, ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirish yuzasidan imkoniyatlar va h.k. larni belgilash mumkin.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning ichki imkoniyatlari deb - resurslardan foydalanishdagi korxonada mavjud bo'lgan miqdoriy o'zgarishlarning mavjudligi tushuniladi.

Bu imkoniyatlar, birinchi navbatda, korxonaning mehnat qurollari va zamonaviy mehnat vositalari bilan qurollanish darajasiga hamda ularning holatiga bog'liq.

Imkoniyatlar - korxonada iqtisodini rivojlantirishning muhim vositasidir. Agarda korxonada ulardan to'liq va to'g'ri foydalana oladigan bo'lsa ishlab chiqarish samaradorligini o'stirish yuzasidan muhim natijalarga erisha olishi mumkin.

Ishlab chiqarish samaradorligining o'sishi, shuningdek, ko'p jihatdan mavjud rezervlardan foydalanish darajasiga ham bog'liqdir.

Imkoniyatlar korxonada reja topshiriqlarini belgilashda hisobga olinadi va ularning realizatsiyasi reja bajarilishi davomida amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish imkoniyatlari nafaqat resurslardan foydalanishda reja va haqiqatdagi ko'rsatkichlarni taqqoslash asosida balki korxonada uskunalarini takomillashtirish, ishlab chiqarishni tashkil etish, mehnatni tashkil etish, boshqaruvni takomillashtirish, tashkiliy-texnikaviy darajani yaxshilash orqali ham belgilanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda makro darajada mavjud imkoniyatlarni tarkiblashning quyidagi uch guruhi ajratiladi. Ular quyidagilardan iboratdir:

- xalq xo'jaligi;
- tarmoq;
- ichki xo'jalik imkoniyatlari.

Shuningdek, korxonada ichki imkoniyatlari mikro darajada jonli va buyumlashgan mehnatga bog'liq qatorlari bo'yicha tarkiblanadi.

Jonli mehnat ko'rsatkichlari bo'yicha ichki imkoniyatlarga korxonaning mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik va ulardan samarali foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar tizimsi kiritiladi.

Buyumlashgan mehnat ko'rsatkichlari qatoriga korxonaning asosiy vositalar va mehnat ashyolari bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlari kiritiladi.

Iqtisodiy tahlilda mavjud rezervlar quyidagi tarkiblash bo'yicha guruhlanishi ham belgilangan.

Mehnat vositalari bilan bog'liq bo'lgan imkoniyatlar.

Yangi ishlab chiqarish fondlarini tashkil etish va ularni yangilash, ishlab chiqarish uskunalarining samarali turlarini ishlab chiqarishga jalb etish, asosiy vositalarning aktiv qismini ko'paytirish, mexanizatsiyalashgan va avtomatlashtirilgan ish o'rinlarini tashkil etish va h.k.

Asosiy vositalarni zamonaviylashtirish, ishlab chiqarish uskunalarining mehnat unumi samarasini oshirish.

Asosiy vositalarga xizmat ko'rsatuvchi bo'limlarni tashkil etish va ular faoliyatini

faollashtirish.

Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni tashkil etishning usullarini faollashtirish, ishlab chiqarish maromiyligiga amal etish, texnik standartlar va loyhalar tuzilishi va h.k.

Moddiy va yoqilg'i-energetika resurslaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan imkoniyatlar.

Xom ashyo va moddiy aylanmalarning sarf normalarini to'g'ri belgilash va ularga amal etish.

- Texnika va texnologiyani takomillashtirish.
- Ishlab chiqarishdagi brakni kamaytirish.
- Yoqilgi va elektr energiya resurslaridan foydalanishni faolashtirish.

Mehnat resurslaridan samarali foydalanish bilan bog'liq bo'lgan imkoniyatlar.

- Mehnat sharoitlarini yaxshilash, sanitariya gigiena holati, fiziologik sharoit.
- Xodimlar holati va harakatini to'g'ri boshqarish.
- Ish o'rinlariga xizmat ko'rsatishning holati.
- Ish o'rinlarini tashkil etishni takomillashtirish.
- Mehnatning taqsimlanishi va kooperatsiyalashuvini takomillashtirish.
- Mehnatni me'yorlashni takomillashtirish

Mahsulot tannarxini kamaytirish va foydani o'stirish bo'yicha imkoniyatlar.

- Ishlab chiqarishning texnik darajasini oshirish.
- Ishlab chiqarishni va mehnatni tashkil etishni takomillashtirish.
- Mahsulot hajmi va tarkibining o'zgarishi.
- Tabiiy resurslardan foydalanishni yaxshilash.
- Ishlab chiqarishning rivojlanishi va hokazo.

4. Intensivlashtirish va ishlab chiqarishning samaradorligini kompleks baholash usullari

Iqtisodiy rivojlanishning muhim yo'nalishlari sifatida intensiv va ekstensiv yo'nalishlar tarkiblanadi. Intensiv va ekstensiv rivojlanish yo'nalishlari bir-biridan bevosita miqdoriy ko'rsatkichlarga farqlanishi bilan bilan tavsiflanadi.

Ishlab chiqarishni intensiv va ekstensiv rivojlantirish yuzasidan quyidagi chizma ko'rinishida bog'lanishlarni berib o'tishimiz mumkin.

| | | | |
|--|------------|--|--|
| Ishlab chiqarishni rivojlantirishning ekstensiv va intensiv omillari | Eksten-siv | Foydalaniladigan resurslar miqdorini o'sishi | Mehnat vositalari o'sishi |
| | | | Mehnat kuchlarining o'sishi |
| | | | Mehnat ashyolarining o'sishi |
| | | Resurslardan foydalanish vaqtining o'sishi | Mehnat vositalaridan foydalanish vaqtining o'sishi |
| | | | Mehnat kuchlaridan foydalanish vaqtining o'sishi |
| | | | Asosiy vositalarning amal vaqtining o'sishi |
| | | | Aylanma aktivlar aylanish davrining o'sishi |
| | | Ishlab chiqarmaydigan foydalanilmaydigan resurslarni tuzatish | Ishchi kuchini ko'paytirish |
| | | | Mehnat vositalarini |
| | | | Mehnat ashyolarini |
| | In-ten-siv | Foydalaniladigan resurslar sifatini takomillashtirish | Mehnat vositalaridan foydalanishni takomillashtirish |
| | | | Mehnat kuchlaridan foydalanishni takomillashtirish |
| | | | Mehnat ashyolaridan foydalanishni takomillashtirish |
| | | Foydalaniladigan resurslardan foydalanishni, ishlatishni takomillashtirish | Boshqaruvni tashkil etishni takomillashtirish |
| | | | Ishlab chiqarish asosiy fondlarining aylanishini tezlashtirish |
| | | | Ishlab chiqarish oborot fondlarini aylanishini tezlashtirish |
| | | | Ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish |
| | | | Ishlab chiqarishni takomillashtirish |
| | | | Mehnatni tashkil etishni takomillashtirish |

1-chizma. Ishlab chiqarishni ekstensiv va intensiv rivojlantirish yo'nalishlari yoki imkoniyatlari

Ishlab chiqarishning ichki imkoniyatlari resurslarning har bir turi, ulardan foydalanish o'rnini, joyi bo'yicha o'rganilgan holda tarkibli va umumiy o'rganilgan holda korxonada bo'yicha kompleks baholanadi hamda ularni boshqarishning chora-tadbirlari belgilanadi.

Mavzuni takrorlash uchun savollar

1. Kompleks iqtisodiy tahlil deganda qanday tahlilni tushunasiz?
2. Kompleks iqtisodiy tahlilni tamoyillariga nimalar kiradi?
3. Kompleks iqtisodiy tahlilda o'rganiladigan asosiy ko'rsatkichlar tizimiga nimalar kiradi?
4. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning imkoniyatlari deganda nimani tushunasiz va uni qanday tarkiblash mumkin?
5. Ekstensiv va intensiv usullarni ahamiyati nimalardan iborat?

Mavzuni mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar

Quyidagi tayanch iboralariga tushunchalar yozing:

- korxonada faoliyatini tahlil qilishda tizimli yondashish;
- kompleks-iqtisodiy tahlilning tamoyillari;
- kompleks iqtisodiy tahlil o'tkazishning ketma-ketligi;
- ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish imkoniyatlari va omillari.

VI. Iqtisodiy tahlil qilishning turlari va ularning ishlab chiqarishni boshqarishdagi roli

- 1. Iqtisodiy tahlilni bozor iqtisodiyoti sharoitida tutgan o'рни va uni turlarga ajratish.**
- 2. Moliyaviy va boshqaruv tahlil.**
- 3. Joriy, tezkor va istiqbolli tahlil.**
- 4. Ichki xo'jalik va korxonalararo tahlil.**
- 5. Tarmoqlararo, hududiy va vazirliklararo tahlil.**
- 6. Funktsional qiymatli tahlil.**
- 7. Diagnostik tahlil.**

1. Iqtisodiy tahlilni bozor iqtisodiyoti sharoitida tutgan o'рни va uni turlarga ajratish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida ishlab chiqarish faoliyatini to'g'ri boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Korxonalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tezlashtirish ilmiy-texnikaviy taraqqiyot va uni amalda zudlik bilan qo'llash asosida bo'lmog'i lozim. Bu jarayonda iqtisodiy tahlil muhim o'rin tutadi.

Korxonalar faoliyatini to'liq va samarali o'rganish uchun iqtisodiy tahlilning turlarini yaxshi bilishimiz hamda ularning mohiyatini va o'ziga xos tomonlarini to'liq o'zlashtirib olgan bo'lishimiz lozim.

Iqtisodiy tahlil korxonalarni boshqarishning muhim vositasi sifatida tashkil qilishning maqsadi, vazifasi va o'tkazish davrlariga qarab ma'lum turlarga ajratiladi. Jumladan, iqtisodiy tahlilda foydalaniladigan ma'lumotlar va ularni manbalariga qarab:

- moliyaviy tahlil;
 - boshqaruv tahlili kabi turlarga ajratiladi.
- Iqtisodiy tahlilning tahlil qilinadigan davrlariga qarab:

- joriy tahlil;
- tezkor tahlil;
- istiqbolli tahlil kabi turlari mavjud bo'ladi.

Bundan tashqari iqtisodiy tahlilni o'tkazishda boshqarish ob'ektlarining turlari va mazmuniga qarab:

- ichki xo'jalik;
- tarmoqlararo tahlil;
- hududiy tahlil;
- ishlab chiqarish bosqichlari bo'yicha tahlil;
- ishlab chiqarishning elementlari bo'yicha tahlil kabi turlarga ajratamiz.

Boshqaruv ob'ektlarining bir-biriga bog'liqligi bo'yicha iqtisodiy tahlil quyidagi turlarga ajratiladi:

- funktsional - iqtisodiy (funktsional - qiymatli);
- texnik - iqtisodiy;
- ijtimoiy - iqtisodiy;
- iqtisodiy - ekologik.

Shuningdek, xo'jalik faoliyatining tahlili quyidagi belgilariga qarab ham turlarga ajratiladi:

1. Tahlil sub'ekti - tahlilni kim tomonidan bajarilishiga qarab (turli organlar, sug'urta tashkilotlari, korxonaning o'zi, soliq organlari, banklar, mol etkazib beruvchilar, kasaba uyushmasi tashkilotlari va boshqalar);
2. Davriylik va muntazamlilik (bir necha yillik, yillik, choraklik, oylik, kunlik, smenalik va

boshqalar);

3. Tahlilda o'rganiladigan savollarning hajmiga qarab (korxonalarining barcha faoliyatini kompleks o'rganish, ayrim tarmoq va alohida mavzularni o'rganish);

4. Korxonalar faoliyatini o'rganishda tahlilning qo'llaydigan usuliga qarab (kompleks, tizimli, funksional qiymatli, yoppasiga tanlash, korrelyatsion va boshqalar);

5. Tahlil ishlarini bajarishda qo'llaniladigan vositalariga qarab (EHM va boshqalar);

6. Tahlil qilishning yo'nalishlari va mavzusiga qarab (texnik-iqtisodiy, ijtimoiy-iqtisodiy, iqtisodiy-xuquqiy, iqtisodiy-ekologik va hokazolar).

Iqtisodiy tahlilning yuqorida keltirilgan turlari xo'jalik faoliyati tahlilining korxonada darajasidagi tizimini tashkil etadi.

2. Moliyaviy va boshqaruv tahlil

Korxonalarining faoliyatida yuz berayotgan iqtisodiy jarayonlar buxgalteriya, statistik va tezkor hisoblarda aks ettiriladi. Xo'jalik faoliyatini o'rganish hamda tahlilni o'tkazishning belgilangan maqsadlariga qarab moliyaviy va boshqaruv tahlili kabi turlariga ajratishimiz mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat, jamoa, qo'shma, hissadorlik, hususiy va boshqa shakldagi mulkka ega bo'lgan korxonalar moliyaviy ahvolini o'rganishning mazmuni shundan iboratki, bunda o'z vaqtida pul tushumlarining kelishi, hisoblashish intizomiga rioya qilish, xususiy va qarz mablag'larining to'g'ri nisbatda bo'lishini ta'minlash, moliyaviy tartib va intizomga barcha ishlab chiqarish bo'g'inlarida iqtisod va tejamkorlikka rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Korxonalarining moliyaviy holati ko'p jihatdan baho, kredit, foyda va uni iqtisodiy taqsimlanish mexanizmiga bog'liqdir. Barqarorlik bo'lgan joyda barcha xo'jalik muomalalari va hisob - kitoblar o'z vaqtida bajariladi. Shu bois bozor sharoitida har qanday korxonaning moliyaviy ahvolini bilish va o'rganishga e'tibor kuchaymokka.

Moliyaviy tahlil korxonalar, firma va tashkilotlarning yillik buxgalteriya hisoboti ma'lumotlariga asoslanib o'tkaziladigan tahlildir. Ya'ni, barcha uchun e'lon qilinishi mumkin bo'lgan korxonalar faoliyatini umumlashgan natijalarini o'rganishga qaratilgan tahlil turidir.

Moliyaviy tahlil faqat korxonalarining o'z manfaati uchun mo'ljallanib o'tkaziladigan tahlil turi bo'lib qolmasdan, uning boshqa keng talabgorlari yoki iste'molchilari bor. Moliyaviy tahlil ma'lumotlari bilan qiziquvchilarni bevosita va bilvosita talabgorlarga bo'lishimiz mumkin:

- bevosita talabgorlar (mulk egalari, banklar, soliq organlari, sug'urta tashkilotlari, barcha qarz beruvchilar, hissadorlar, statistika boshqarmalari va hokazolar). Bevosita qiziquvchilarning manfaatlari korxonalar faoliyati bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'langandir.
- bilvosita talabgorlar va qiziquvchilarga esa auditorlik firmalari, matbuot, televidenie, kasaba uyushmasi, turli xil ijtimoiy partiyalar kabilar kiradi. Bilvosita qiziquvchilar esa korxonalar ijtimoiy faoliyatini turli tomonlarini o'rganadi.

Moliyaviy tahlilning bajarilish tartibi ko'pchilik korxonalar uchun umumiy tavsifga ega.

Moliyaviy tahlilning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

- korxonaning moliyaviy ahvolini har tomonlama o'rganib, uning holatiga aniq va xolis baho berish;
- mablag'lar va manbalarning joylanishini tekshirish, ularning to'g'ri yo'nalishda ishlatilganligini aniqlash;
- hisoblashish ishlarining o'z muddatida bajarilganligini, debitor va kreditorlik qarzlari tarkibini o'rganish;
- korxonaning o'ziga qarashli mablag'lari bilan qarz mablag'lari o'rtasidagi nisbat va aylanma mablag'larni manba bilan ta'minlanganligini tekshirish;
- moliyaviy intizomga qanchalik amal qilishini aniqlash va to'lov qobiliyatiga baho berish;
- korxonalar mulkining qadriligi va tez pulga aylana olish darajasini o'rganish;
- aylanma mablag'lardan foydalanishga baho berish va korxonaning moliyaviy holatini yaxshilash bo'yicha takliflar bayon etish va hokazolar.

Moliyaviy tahlilning asosiy maqsadi - moliyaviy faoliyatdagi yutuq va kamchiliklarni aniqlab, mablag'lardan yanada to'g'ri foydalangan holda hisob-kitob tartibini mustahkamlashga qaratiladi.

Moliyaviy tahlilni bajarishda zarur bo'ladigan manbalarga buxgalteriya hisobot shakllaridagi ma'lumotlar kiradi. Shuningdek, buxgalteriya hisobining shetlaridagi ma'lumotlaridan ham foydalanish lozim. Chunki, keyingi yillarda tuziladigan hisobotlarning hajmi qisqarib, tahlil imkoniyatlarini chegaralashga olib kelmoqda.

Ayniqsa mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish, maxsus va maqsadli mablag'lar, zahira jamg'armasi, foyda va zararlar, turli xil hisob-kitoblar, qimmatli qog'ozlar bo'yicha ma'lumotlardan ko'proq foydalaniladi. Bular xo'jalik faoliyatining to'g'ri boshqarilishi, uning moliyaviy barqaror bo'lishi va to'lov qobiliyatining yaxshilanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu

sababli ham moliyaviy tahlil korxonalar faoliyatini iqtisodiy tahlil qilishda katta ahamiyat kasb etadi.

Moliyaviy tahlilda korxonaning to'lov qobiliyati, moliyaviy barqarorlik holatlari, korxonaning mol - mulk tarkibini o'zgarishi, mablag'lar harakatchanligini, korxonaning moliyaviy natijalarini tarkibi va shu kabilarning o'rganiladi.

Boshqarish uchun mo'ljallangan tahlil turi esa odatda ichki tahlil deyilib, faqat har bir korxonaning o'zi uchun uni yanada yaxshiroq, samaraliroq boshqarilishi uchun mo'ljallanib o'tkaziladigan tahlildir. Boshqaruv tahlili ma'lumotlari boshqalar uchun tijorat siri hisoblanadi. U buxgalteriya, tezkor hisob ma'lumotlari va boshqa manbalarga asoslanib o'tkaziladigan tahlildir. Ichki tahlilni qanchalik aniq, o'z muddatida va sifatli bajarilishi korxonalarni oqilona boshqarilishiga, raqobatbardoshligini kuchayishiga ta'sir ko'rsatadi.

- Boshqaruv tahlilida quyidagi jarayonlar o'rganiladi:
- biznes rejalar asoslanadi va tahlil qilinadi;
- marketing tizimida tahlil;
- xo'jalik faoliyatini samaradorligini kompleks tahlil;
- xo'jalikning tashkiliy-texnik darajasini tahlil;
- ishlab chiqarish resurslarini tahlil;
- ishlab chiqarish hajmini tahlil;
- ishlab chiqarish hajmi, xarajati va foydaning o'zaro bog'liqligi tahlili.

Boshqaruv tahlilida mablag'lardan samarali foydalanish uchun turli echimlar ishlab chiqiladi. Uning ahamiyati ham mana shu jihatida namoyon bo'ladi.

3. Joriy, tezkor va istiqbolli tahlil

Joriy tahlil eng ko'p qo'llaniladigan tahlil turi bo'lib, u korxonalarni o'tgan hisobot davri faoliyatini batafsil o'rganishga qaratilgan. Joriy tahlilning ma'lumot manbasi bo'lib korxonalarni yillik, yarim yillik, choraklik buxgalteriya hisobotlari, buxgalteriya hisobining barcha turdagi ma'lumotlari, biznes reja ko'rsatkichlari va boshqalar hisoblanadi.

Bu tahlil turi aniq buxgalteriya va statistik ma'lumotlarga asoslanganligi uchun korxonalar faoliyatiga to'g'ri va holisona baho berish, o'tgan yillardagi yo'l qo'yilgan kamchiliklar, yo'qotishlar va farqlarni bilishga imkoniyat yaratadi.

Joriy tahlil korxonalarining o'tgan davr faoliyatini chuqur o'rganishga hamda kelgusidagi korxonaning taktika va strategiyasini belgilash uchun zarur. Shuningdek, mazkur tahlil turi korxonalarining ishlab chiqarishining yuqori manfaat keltirishi uchun olib borilishi lozim bo'lgan yo'nalishlarini belgilash imkoniyatlarini yaratadi.

Joriy tahlil boshqa tahlil turlariga nisbatan quyidagi afzalliklarga ega:

- korxonalar va firmalar faoliyatini to'liq o'rganadi hamda aniq baho beradi;
- tahlil aniq raqamlarga va haqqoniy ma'lumotlarga asoslanadi;
- o'rganiladigan mavzularning juda keng va xilma-xil ekanligi;
- joriy tahlil ma'lumotlari korxonaning kelgusidagi faoliyati uchun tajriba bo'lib hisoblanadi

Joriy tahlil turining ayrim kamchiliklari ham mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

- joriy tahlil xo'jalik jarayonlarining sodir bo'lib o'tib ketgan davrini o'rganadi;
- joriy tahlil natijasida aniqlangan kamchiliklar bu korxonalar uchun yo'qotib bo'lingan imkoniyatlardir, ya'ni, o'zgartirish mumkin bo'lmagan jarayondir.

Demak, joriy tahlil turi amaliyotda eng ko'p qo'llanilayotgan tahlil turlaridan biri bo'lib, korxonalaridagi iqtisodchilar, bank tashkilotlari, moliya, soliq, sug'urta tashkilotlari hamda hissadorlar tomonidan o'zlarini qiziqtiruvchi savollarini o'rganishga mo'ljallab o'tkaziladigan tahlil turidir.

Joriy tahlilda quyidagi mavzular o'rganiladi:

- korxonalarining mahsulotlar ishlab chiqarish faoliyatini o'rganish;
- bozordagi talab va taklif, korxonalar mahsulotining raqobatbardoshligi va bozorda tutgan o'rni, mahsulotlarni sotish ko'rsatkichlarini o'rganish;
- ishlab chiqarish boyliklaridan (er, asosiy fondlar, mehnat kuchlari, xom ashyo va moddiy aylanma mablag'lar) samarali foydalanish darajasini o'rganish;
- mahsulotlar ishlab chiqarish uchun qilingan xarajatlar va uning moliyaviy natijaga ta'sirini o'rganish;
- foyda va rentabellik ko'rsatkichlarini o'rganish;
- korxonalarining moliyaviy holati, moliyaviy barqarorligi, to'lov qobiliyati va boshqalar.

Joriy tahlilda barcha mavzular ketma-ketlik asosida, umumiy yoki har birini alohida o'rganish mumkin.

Joriy tahlildan farq etgan holda tezkor tahlil - xo'jalik faoliyatidagi qisqa muddatli jarayonlarni o'rganish va ishlab chiqarishni tezkor boshqarish uchun o'tkaziladi.

Tezkor tahlilda o'rganilayotgan jarayon bilan tahlil birgalikda olib boriladi. Boshlang'ich hujjat ma'lumotlari, tezkor hisob ma'lumotlari, kunlik ish faoliyati haqidagi statistik ma'lumotlar, sodir bo'layotgan jarayonlarni bevosita borib ko'rish, o'lchash va ayrim hollarda suhbatlashish natijalari tahlil manbalari bo'lib hisoblanadi. Natijada sodir bo'layotgan xo'jalik jarayonlari o'z vaqtida o'rganiladi. Yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni tez tuzatish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Tezkor tahlil turi bilan faqat iqtisodchilargina emas, balki barcha o'rganilayotgan xo'jalik jarayonlariga daxldor va qiziquvchilar shug'ullanishi mumkin. Masalan, ishchilar, muhandis-texnik xodimlar, radio va televidenie xodimlari va hokazolar.

Tezkor tahlilni boshqa tahlil turlaridan afzalliklari quyidagilardan iborat:

- tahlil jarayoni sodir bo'layotgan xo'jalik jarayoni bilan ketma-ketlikda o'tkaziladi;
- yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarni tez tuzatish imkoniyati borligi;
- korxonalarini tezkor boshqarish uchun asosiy manba hisoblanadi va hokazolar.

Boshqa tahlil turlari kabi tezkor tahlil ham ba'zi bir kamchiliklardan holi emas.

Bunday kamchiliklarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- tezkor tahlil ma'lumotlari juda ham aniq, haqqoniy bo'lmasligi mumkin;
- tezkor tahlil natijasi oxirgi iqtisodiy natijalarning ma'lumotlariga to'g'ri kelmasligi mumkin.

Istiqbolli tahlil kelajakni mo'ljallab o'tkaziladigan tahlil turi hisoblanadi va u korxonaning kelgusi bir, ikki va hokazo uzoq yillarga mo'ljallangan ish faoliyatini qanday tashkil etishni belgilash maqsadida amalga oshiriladi.

Istiqbolli tahlil joriy tahlilning natijalari va ma'lumotlariga asoslanib korxonani kelgusidagi faoliyatini bashoratlash va mo'ljallash vazifasini bajarishga qaratilgan.

Istiqbolli tahlil yordamida korxonaning kelgusidagi iqtisodiy-ijtimoiy natijalarining strategiyasini belgilab olish, boshqaruvni yuqori darajaga ko'tarish imkoniyatlari paydo bo'ladi. Bundan tashqari korxonani ijtimoiy-iqtisodiy natijalarini fan-texnika taraqqiyoti bilan bog'lagan holda kelgusida uning rivojlanish strategiyasini ko'rsatib berishi mumkin bo'ladi.

Istiqbolli tahlilning eng asosiy vazifasi bo'lib, istiqbolli rejaning bajarilishidan kutilayotgan natijalarni oldindan baholay olishdan iboratdir.

Istiqbolli tahlil qisqa va uzoq muddatga mo'ljallanib iqtisodiy-matematik usullarini qo'llagan holda tashkil etiladi. Shuningdek, istiqbolli tahlil kelgusidagi qo'llaniladigan ilg'or tajriba va eng yangi o'zgarishlarni avvaldan ko'zda tutgan holda tashkil etiladi. Tahlilning mazkur turining ob'ektlari bo'lib, brigada, bo'lim, tsex, faoliyat turi ayrim olingan korxonalar bo'lishi mumkin. Istiqbolli tahlilda turli mavzular o'rganiladi. Demak, istiqbolli tahlil korxonalar faoliyatini avvaldan ko'ra bilish yoki bashoratlash uchun zarur.

4. Ichki xo'jalik va korxonalararo tahlil

Tahlilning ichki xo'jalik faoliyatini o'rganishga qaratilgan turi alohida olingan ish joyi, smena, brigada yoki tsex faoliyatini alohida-alohida o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Har bir ish joyi yoki tsex faoliyatini o'rganish shu ob'ektga taalluqli bo'lgan hodisa va jarayonlarni aniq o'rganishga va bu ko'rsatkichlarni korxonaning umumiy faoliyatiga qanchalik aloqadorligini bilishni zaruriyat deb qo'yadi.

Ichki xo'jalik faoliyatini o'rganishda ko'proq miqdor o'lchamidagi ko'rsatkichlar tahlil qilinadi hamda bu ko'rsatkichlarni yanada yaxshilash evaziga yakuniy faoliyatning samarali chiqishi mo'ljallanadi.

Ichki xo'jalik faoliyatini tahlil qilishda faqat ayrim olingan korxonada tarkibidagi bitta bo'lim yoki sohani o'rganish to'liq va chuqur tashkil etiladi hamda olingan xulosalari faqat shu bo'lim yoki sohaga taalluqli bo'ladi.

Ichki xo'jalik faoliyatini tahlil qilishda asosiy manba o'rganiladigan bo'lim yoki soha bo'yicha tuzilayotgan hisobot ma'lumotlaridan hamda buxgalteriya hisobotlari, boshlang'ich hujjatlar, statistik va tezkor hisob ma'lumotlaridan foydalaniladi. Xo'jalik ichki faoliyatini o'rganish, korxonadagi eng ilg'or tajriba yoki texnologiya hamda mavjud kamchiliklar nimalardan iborat bo'lishini ko'rsatadi.

Korxonalararo tahlil deyilganda o'rganilayotgan ko'rsatkichni ikki va undan ortiq korxonada ma'lumotlari asosida taqqoslab o'rganish tushuniladi. Bunday tahlilni tashkil etishning zaruriyati shundaki, korxonalar o'rtasida o'rtacha yoki eng yuqori natijalar qanchaligini bilish zarurdir hamda korxonada erishgan natijasi yoki korxonaning o'rtacha ko'rsatkichi boshqa korxonalaraga taqqoslaganda qanday mavqeiga egaligini bilish uchun ham zarurdir.

Korxonalararo tahlil bir necha bosqichlardan iborat bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- korxonalarni tanlash bosqichi;
- ma'lumotlarni to'plash va tahlil uchun moslashtirish bosqichi;
- o'rganiladigan ko'rsatkichlarni aniqlash bosqichi;
- ko'rsatkichlarni tahlil qilish bosqichi;
- ma'lumotlarni umumlashtirish bosqichi hisoblanadi.

Korxonalararo tahlilni o'tkazishda quyidagilarga ko'prok e'tibor qaratilishi lozim:

- o'rganiladigan korxonalar ixtisosi va xo'jalik yo'nalishi bir xil bo'lishini e'tiborga olish lozim;
- taqqoslanadigan ko'rsatkichlarni aniqlanish usullari aynan bir xil bo'lishi shart;
- bir xil o'lchamdagi hisoblangan ma'lumotlar tahlil qilinishi kerak.

5. Tarmoqlararo, hududiy va vazirliklararo tahlil

Iqtisodiyotda turli maqsadlar uchun tarmoqlar, regionlar, viloyatlar, tumanlar bo'yicha erishilgan asosiy eng muhim ko'rsatkichlarni o'rganish ham talab etiladi. Bunday o'rganishda umumlashtirilgan ko'rsatkichlar ya'ni, korxonalar hisobotlari yoki hududlar bo'yicha umumlashgan statistik ma'lumotlarni o'rganish asosida tahlil tashkil etiladi. Bunda tarmoq yoki hududlar bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar ya'ni, yalpi mahsulot, mehnat unumdorligi, o'rtacha ish haqi, umumiy foyda va hakoza ko'rsatkichlar o'rganiladi. Tahlil qilishda qo'llaniladigan usullar ham o'ziga hos xususiyatlarga ega. Jumladan, ko'rsatkichlarni o'rganishda yirik korxonalar soni ko'p bo'lganligi uchun guruhlashtirish va balans usullaridan keng foydalaniladi.

Vazirliklar bo'yicha umumlashtirilgan iqtisodiy ma'lumotlarni o'rganish davlat uchun qaysi soha yuqori samara keltirayotganligini yoki aksincha, vazirlikka tegishli sohalar bo'yicha o'rtacha natijalar qandayligini bilish uchun ham bunday tahlil o'tkaziladi.

6. Funktsional qiymatli tahlil

Funksional qiymatli tahlil eng ilg'or tahlil turi bo'lib, ob'ektlarni tizimli o'rganish usuliga asoslanib o'tkaziladi. Bu tahlil turining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- funksional yondashish ya'ni, o'rganiladigan jarayonlar asosiy, qo'shimcha va yordamchi, keraksiz guruhlarga ajratilib tahlil qilish;
- mulk egalaringining manfaati nuqtai-nazaridan yondashish;
- tizimli va kompleks yondashish;
- ijodiy yondashish;
- istiqbolli tahlil usullarini qo'llash.

Funksional qiymatli tahlil muhandislik, iqtisodiy, xuquqiy, texnologik masalalarni barchasini mujassamlashtirgan holda jarayonlarni va hodisalarni oxirgi natijasidan avvalroq bilib, o'rganib turadigan tahlildir. Bu tahlil turi bozor iqtisodiyotiga o'tgan va eng rivojlangan mamlakatlarda keng qo'llaniladi. Misol uchun, Yaponiya mamlakatida ushbu tahlil turidan foydalanish o'ta taraqqiy etgan.

Funksional qiymatli tahlilning eng ijobiy tomoni o'rganilayotgan iqtisodiy hodisa va jarayonlarni qanday natija bilan tugashini avvaldan aniq ko'rsata biladi.

Funksional qiymatli tahlil odatda ettita bosqichdan iborat bo'lib, ular quyidagilardan tashkil topadi:

Birinchi bosqich - bu tayorgarlik bosqichi bo'lib, bunda tahlil ob'ekti tanlab olinadi, tahlil dasturi va rejasi tuziladi hamda tahlil o'tkazilishi to'g'risidagi qaror rasmiylashtiriladi.

Ikkinchi bosqich - bu ma'lumotlar to'plash bosqichi bo'lib, bunda ma'lumotlar yig'iladi va tizimlashtiriladi. O'rganilayotgan ob'ektning texnik holati va qiymat ko'rsatkichlari o'rganiladi, patentli axborotlar va ixtirochilik ishlari ko'rib chiqiladi.

Uchinchi bosqich - bu analitik bosqich bo'lib, bunda to'plangan ma'lumotlar keraklilik darajasiga qarab guruhlashtiriladi (eng asosiy, asosiy, yordamchi, keraksiz) hamda bu ma'lumotlarga baho beriladi.

To'rtinchi bosqich - bu ijodiy bosqich bo'lib, bunda vazifalar echimi bo'yicha takliflar ishlanishi, oldingi bosqichlarga moslashtirilishi, keraksiz funktsiyalarni likvidlash, bir qancha funktsiyalar va to'liq ob'ektlar bo'yicha xarajatlarni qisqartirishdan iborat.

Beshinchi bosqich - bu izlanuvchanlik bosqichi bo'lib, bunda ma'lumotlarni muhokama qilish, izlanish, kompleks baholash hamda ijodiy bosqichda qayta ishlangan takliflarni saralash, eng optimal variantlarni ishlab chiqarishga joriy qilishdan iborat.

Oltinchi bosqich - bu tavsiyalar berish bosqichi bo'lib, bunda funksional qiymatli tahlil o'tkazayotganlar oldingi bosqich natijalari va takliflaridan kelib chiqib yakuniy qarorni qabul qilishlari lozim bo'ladi. Funktsional qiymatli tahlil natijalarini muhokama qilish va rasmiylashtirish hamda tavsiyalarining reja grafiklarini tayorlashdan iborat.

Etтинchi bosqichda reja-grafik loyihalarini tasdiqlash to'g'risidagi tavsiyalarni kiritish hamda uni bajarish ishlarini olib borish.

Funksional qiymatli tahlilning asosiy maqsadi - ularni xaridorlilik qiymati va qiymati bo'yicha optimal aloqadorligini aniqlashdan iborat.

7. Diagnostik tahlil

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy tahlil turlaridan bo'lmish diagnostik tahlil muhim ahamiyatga ega. Respublikamizda iqtisodiy islohotlar jadal olib borilayotgan bir davrda, turli mulkchilik shakllariga asoslangan korxonalarda ishlab chiqarishni boshqarish tizimi ham o'zgarib bormoqda. Bunda ishonchli hamkorlar topish ular iqtisodiy holatini to'g'ri baholash o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, mazkur tadbir korxonalar faoliyatini uzliksiz davom etishini ta'minlaydi.

Biroq, hozirgi kunda iqtisodiy tahlilda quyidagi holatlarni ko'rishimiz mumkin:

- tashqi iqtisodiy tahlil uchun kerakli manbalar hajmi har doim qisqarib borishi;
- korxonalar rahbariyatining ishlab chiqarishni boshqarish mavqei kengayib borishi va ularni qarorlar qabul qilishda analitik ma'lumotlar bilan ta'minlanish imkoniyatlari oshib borayotganligi;
- diagnostik tahlilning roli va ahamiyati keskin oshib borayotganligi.

Bundan ko'rinadiki iqtisodiy tahlil diagnostik tavsif kasb etib bormoqda. Mazkur tahlil turli xil iqtisodiy voqealarni oldindan ilmiy asoslangan holda o'rganishni talab etadi.

Shu bilan birgalikda, korxonalar iqtisodiy mustaqilligi kengayib borayotgan bir paytda, korxonalar faoliyatini tahlil qilib turish uchun tashqi foydalanuvchilarga beriladigan tahlil manbalari hajmi qisqarib tahlil imkoniyatlari chegaralanib bormoqda. Bu esa kam ma'lumotga ega bo'lgan sharoitda hamkor korxonalar faoliyatiga kengroq baho bera olish zaruratini keltirib chiqaradi.

Korxonalarda iqtisodiy diagnostika quyidagi kompleks analitik vazifalarni hal etish imkonini beradi:

- ma'lumotlar manbai chegaralangan holatda korxonalar faoliyatiga baho berish;
- faoliyat tartibini baholash, uning samaradorligi korxonalar faoliyati barqarorligi, muqimligi;
- boshqaruv qarorlarini bajarilishiga baho berish, ishlab chiqarishning tarkibi va dinamikasining aloqadorligiga hamda korxonaning to'lov qobiliyati va moliyaviy barqarorligiga baho berish.

Shunday qilib, iqtisodiy diagnostika yo'li orqali korxonalar xo'jalik faoliyati holatini, boshqaruv qarorlarini bajarilishi aloqadorligini o'rganish mumkin.

Iqtisodiy diagnostikani vazifalarini bajarish uchun quyidagi 7-jadvalda ko'rsatilgan usullardan foydalanishimiz mumkin.

7-jadval

Iqtisodiy diagnostikani vazifalarini bajarishda foydalaniladigan usullar

| | |
|---|---|
| Korxonaning iqtisodiy diagnostikasi vazifalari | Ma'lumotlarni analitik qayta ishlash usullari |
| Xo'jalik hisobidagi korxonalar faoliyatini baholash | O'sish matritsasi va uning modifikatsiyasi. Tarkibli baholash. |
| Korxonalar ish faoliyati tarkibiga baho berish | O'sish matritsasi va uning modifikatsiyasi. Apparatning ishlab chiqarish vazifasi |
| Korxonalar faoliyatining barqarorligini baholash | O'sish matritsasi. Iqtisodiy o'zgarishlarni tarkibli baholash |
| Xo'jalik jarayonlarini tahlili | Istiqbolli natijalar bo'yicha tezkor tahlil natijalarini hisoblash |
| | O'sish matritsasi va uning modifikatsiyasi |

Iqtisodiy diagnostika korxonalar faoliyati darajasida uchta bosqichdan iborat bo'ladi.

Birinchi bosqichda diagnostik tahlil o'tkazish uchun kerak bo'ladigan ko'rsatkichlar ro'yxati tuziladi.

Ikkinchi bosqichda o'rganiladigan parametrlar bo'yicha analitik tadqiqotlar olib boriladi.

Uchinchi bosqichda diagnostikalashning natijasiga va olingan ma'lumotlarning boshqaruv

jarayonlarida foydalanishiga baho beriladi.

Mavzuni takrorlash uchun savollar

1. Iqtisodiy tahlilning qanday turlari mavjud?
2. Moliyaviy va boshqaruv tahlilning mazmuni nimalardan iborat?
3. Joriy, tezkor va istiqbolli tahlilning ahamiyati nimada?
4. Ichki xo'jalik va korxonalararo tahlilning mazmuni nimalardan iborat?
5. Tarmoqlararo, hududiy va vazirliklararo tahlilning mazmuni nimalardan iborat?
6. Funktsional qiymatli tahlil qanday tahlil turiga kiradi?
7. Diagnostik tahlil turi haqidi nimalar deya olasiz?

Mavzuni mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar

- boshqaruv tahlili;
- moliyaviy tahlil;
- joriy tahlil;
- operativ tahlil;
- istiqbolli tahlil;
- korxonona ichki faoliyatining tahlili.

VII. Funktsional qiymatli tahlil

1. Funktsional qiymatli tahlilning mazmuni va maqsadi.
2. Funktsional qiymatli tahlilning tamoyillari.
3. Funktsional qiymatli tahlilni olib borish bosqichlari.
4. Funktsional qiymatli tahlilni olib borish shartlari.

1. Funktsional qiymatli tahlilning mazmuni va maqsadi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik faoliyatini o'rganish tahlilini talab qilingan turlari bo'yicha olib borish muhim ahamiyatga ega. Chunki, iqtisodiyotning har bir tarmog'i o'ziga xos ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lib, ularni o'rganish ham o'ziga xos tahlil turi orqali amalga oshiriladi.

Iqtisodiy tahlil fani boshqaruv ob'ektiga ko'ra quyidagi turlarga ajratiladi:

- funktsional qiymatli tahlil;
- texnik iqtisodiy tahlil;
- ijtimoiy tahlil;
- iqtisodiy tahlil;
- ekologik tahlil.

Yuqorida keltirilgan tarkibga ko'ra iqtisodiy tahlil fanining bir qancha turlari mavjud bo'lib, ular ichida funktsional qiymatli tahlilning ham o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Bu xususiyatlarni esa tahlil turi bilan tanishish davomida batafsilroq ko'rib chiqamiz.

Avvalom bor funktsional qiymatli tahlilning turining mazmuni bilan tanishib chiqsak. Funktsional qiymatli tahlilida ishlab chiqarish tsikli davomida sodir bo'ladigan xarajatlar to'g'risida ma'lumotlarni jamlanib, sodir bo'lgan sarflarni kamaytirish yoki uni optimal sarf darajalari o'rganiladi.

Funktsional qiymatli tahlil biron-bir ob'ektni yaratish yoki undan foydalanish, ishni amalga oshirish jarayonida tayyorlash va ishga tushirish, faoliyat davomida sodir bo'lgan boshqa ko'zda tutilmagan xarajatlarning kelib chiqishi va shu kabi boshqa unga bog'liq bo'lmagan holda sodir bo'lgan xarajatlar yig'indisi hisoblanadi.

Funktsional qiymatli tahlilning ob'ekti bo'lib esa qaysi maqsadda ishlab chiqarish tashkil etilgan bo'lsa ana o'sha uning ob'ekti bo'ladi. Misol uchun, korxonada traktor ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan. Demak, traktor tahlilning ob'ekti bo'lib hisoblanadi.

Funktsional qiymatli tahlil o'z ichiga xo'jalik faoliyatini amalga oshirishning dastlabki faoliyatlarini ham qamrab oladi ya'ni, kerak bo'ladigan mablag'lar, ilmiy-uslubiy ishlar, texnik-iqtisodiy usullar, qurollanish ba'zasi, oshiqcha xarajatlarni kamaytirish yoki ular uchun qo'shimcha mablag'larni ajratish va hokazolar. Bu ishlarning amalga oshirilishi, lozim bo'lgan faoliyatni har tomonlama funktsiyasini o'rganib bo'lgach ularning qilish kerak bo'lgan xarajatlari bilan birga belgilanib olinadi. Bu jarayonni amalga oshirishda dastlabki qadamlar bo'lib hisoblanadi. Ayniqsa mehnat kuchlarining vazifalari ham asosiy faoliyat hisoblanib, ularni tashish, ish me'yorini muvofiqlashtirish uchun vositalar va boshqa shu kabilarni yaratib berishni taqozo etadi.

Umuman olganda, bu tahlil turining o'ziga xos xususiyati shundaki, ishlab chiqarish jarayonini bo'lishi uchun kerak bo'lgan barcha omillarni xarajatlari bilan birga bog'liq holda tahlil qilishni ta'minlaydi.

Funksional qiymatli tahlil quyidagi maqsadlarni amalga oshirishda foydalaniladi:

- korxonada va tashkilotlarning foydasini (daromadini) oshirish;
- mahsulot tannarxi va xarajatlarni pasaytirish;
- ishlab chiqarilgan mahsulotni xalqaro standartlar darajasida bo'lishini ta'minlash.

Mahsulot ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish uchun esa quyidagi ishlarni tartibga soladi:

- mahsulot ishlab chiqarishda moddiy aylanma mablag'lar sig'imi, mehnat sig'imi, fond sig'imini kamaytirish;
- transport va undan foydalanish xarajatlarini kamaytirish;
- qimmatbaho va import orqali olib kelinadigan xom ashyolarni boshqa o'rinbosar mahalliy materiallar bilan almashtirish;
- sifatli mahsulot ishlab chiqarish salmog'ini oshirib, sifatsiz mahsulotlarni kamaytirish yoki to'xtatish;
- mehnat unumdorligini oshirish va hokazolar.

Mahsulotning sifat darajasini oshirishda esa quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:

1. Talab qilingan sifat ko'rsatkichini belgilab olish.
2. Talab qilingan texnik ko'rsatkichlar bilan ta'minlash.
3. Talab qilingan darajada mahsulot ishlab chiqarish.

Funksional qiymatli tahlilda bajariladigan ishni butligi holida ham o'rganishi mumkin ya'ni, ilmiy izlanish, tayyorlash va ishlab chiqarish, mahsulotni sotish, undan foydalanish va hokazolar.

Yakuniy natija ishlab chiqarilgan mahsulotni tannarxini optimal darajada kamaytirish bo'lib, u quyidagicha amalga oshadi:

- mahsulot uchun sarflanadigan xarajatni mazkur mahsulotga bo'lgan talabni oshirish bilan bir vaqtda kamaytirilishini ta'minlash;
- xarajatlarni kamaytirmagan holda sifat darajasini oshirish;
- xarajatlarni kamaytirgan holda sifat darajasini saqlab qolish va boshqalar.

Funksional qiymatli tahlilning asosiy vazifalaridan yana biri bo'lib, ishlab chiqarishni texnologik jarayonida sodir bo'layotgan barcha ijobiy va salbiy xarajatlar to'g'risida ma'lumotlarni jamlab, ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatishdir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, funksional qiymatli tahlil ishlab chiqarishning barcha qirralarida xarajatlarni to'g'ri taqsimlashni va sarflanishini ilmiy asoslab beradi.

2. Funktsional qiymatli tahlilning tamoyillari

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda funktsional qiymatli tahlil tahlilning boshqa turlaridan o'zining alohida tamoyillari bilan farq qiladi.

Funktsional qiymatli tahlil eng ilg'or tahlil turi bo'lib, ob'ektni tizimlilik, komplekslilik asosida, xalq xo'jaligini e'tiborga olish orqali, bajariladigan ishlarni xarajatlari bilan o'rganish, ijodiy yondashish, jamoa mehnatini e'tiborga olish va hokazo tamoyillari orqali o'rganadi. Ular quyidagi tamoyillardir:

Funktsional yondashish. Bu tamoyil orqali o'rganiladigan jarayonlar qo'shimcha, yordamchi va keraksiz guruhlariga ajratib o'rganiladi.

Bu yondashishda biron-bir faoliyatni amalga oshirishda salbiy va ijobiy tomonlar iqtisodchi uchun yaqqol ko'rinib turadi. Bu esa aniq optimal variantlarni qabul qilishni ta'minlaydi.

Mulk egalari manfaatlarini e'tiborga olgan holda yondashish. Bunda har bir ob'ektni yaratish, sotish, foydalanish jarayonlari davomida sodir bo'ladigan xarajatlarni o'z mulki sifatida korxonada ko'rib sarflashni belgilaydi, ya'ni bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir mulkning o'z egasini topishi ushbu tamoyilni amalga oshuvini isbotidir.

Ijodiylik. Har bir amalga oshirilishi lozim bo'lgan ish rejasini ilmiy asoslanganligiga ishonch hosil qilgandan so'ngina faoliyatni amalda qo'llanishini bildiradi. Bu bizning «Etti o'lchab bir kes» mazmunidagi maqolimizga to'g'ri keladi.

Tizimli yondoshish. har bir ob'ektni boshqa jarayonlar bilan bir tizimda ekanligi tushuniladi.

Komplekslilik. Bu tamoyil tizimlilik tamoyilini o'z ichiga olib, barcha jarayonlarni bir kompleks sifatida o'rganadi.

Xalq xo'jaligini e'tiborga olgan holda yondashish. Bu tamoyilda bir faoliyatning amalga oshuvida xalq xo'jaligining boshqa sohalarining o'rni borligi tushuniladi. Bunga misol qilib qishloq xo'jaligi tarmoqlaridagi o'zaro bog'liqlikni yoki bo'lmasam qishloq xo'jaligi bilan sanoat korxonalarining bog'liqligini olishimiz mumkin.

Istiqbollilik tamoyili. Bu tamoyil asosida xo'jalik faoliyatini istiqbolini belgilash yotadi. Ya'ni, bu kelajakda korxonaning strategiyasini belgilab beradi.

Ushbu tamoyillar asosida mazkur tahlil turining ijobiy tarafini bildik, uning salbiy tomonlarini esa keyingi sahifalarda ko'rib chiqamiz.

3. Funktsional qiymatli tahlilni olib borish bosqichlari

Har bir jarayonni olib borilishida uning qanday amalga oshirish to'g'risida reja tuzib olinadi. Funktsional tahlilni olib borilishida ham ma'lum tartibga amal qilinadi va u quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

1. Tayyorgarlik bosqichi.
2. Manba to'plash bosqichi.
3. Tahlil etish jarayoni.
4. Ijodiy mulohaza bosqichi.
5. Taklif etish jarayoni.
6. Ilg'or g'oyalarni ishlab chiqarishga joriy etish bosqichi.

Yuqoridagi bosqichlarga ko'ra har bir faoliyatni boshqarishdan oldin tayyorgarlik ishlari olib boriladi. Bu ishni amalga oshirgach esa, uni manbalar bilan ta'minlash ishlari boshlanadi. Manbalar bilan ta'minlash deganda tahlil ishlari uchun kerak bo'lgan ma'lumotlar bazasi tushunilib, bunga barcha statistik, tezkor va buxgalteriya hisobi hujjatlari kiradi.

Funksional qiymatli tahlilning ob'ekti bo'lib texnika tizimi yoki bo'lmasa boshqa texnikaga oid bo'lgan tizim hisoblanadi. Lekin rivojlangan mamlakatlar amaliyotidan ko'proq texnika tizimida funktsional qiymatli tahlilning ob'ekti deb qaraladi.

Funksional qiymatli tahlilning moddiy aylanma ishlab chiqarishga qo'llashda uch xil yondashish bo'ladi. Bundan birinchisi muammoli yondashish, bunda xalq xo'jaligi yoki davlat miqyosida ayrim muammolarning echilishini ko'riladi.

Ikkinchi yondashish bu kreditli yondashishdir. Bu funktsional qiymatli tahlil yordamida aniqlangan ob'ektning amaldagi faoliyati maqsad darajasidami yoki xalq xo'jaligidagi ortiqcha xarajatlarni kamaytirdimi? kabi savollarni ko'rib chiqadi.

Uchinchi yondashish - bu izlanuvchanlikdir. Bu yondashuvda oldin funktsional qiymatli tahlilning ob'ektida ko'rilmagan kamchiliklarni qayta ko'rib chiqib hayotga qo'llaydi yoki qo'shimcha fikrlar beriladi.

Funksional qiymatli tahlil asosiy mezonlarga ega bo'lib, ular quyidagilardan iboratdir:

- iqtisodiy ko'rsatkichlar ya'ni, ishlab chiqarish hajmini ifodalovchi ko'rsatkichlar tannarx, rentabellik va boshqalar;
- texnik-konstruktorlik ko'rsatkichlar ya'ni, yaratilgan ob'ektning tuzilishi va uning xalq xo'jaligida kerakligi, ishlab chiqarish texnologiyasi yoki foydalanish ko'rsatmalari, asosiy sarflanuvchi moddiy aylanmalar va moddiy aylanma sig'imi, detallarning sotib olish hajmi va hokazo;
- ishlab chiqarish jarayonidagi keraksiz texnologik ko'rsatkichlari, qaysini ishlab chiqarish yoki texnikani ishga solish jarayonida atrof-muhitni ifloslanishi, qiyin ishga tushirilishi yoki katta hajmdagi mehnatni talab qilishi, katta ko'lamni egallashi va boshqalar;
- ishlab chiqarish ob'ektida resurslarni sarfini chegarasini belgilovchi ko'rsatkichlar. Bunda fizik-texnik resurslar zahirasi, foydalanishdagi resurslar zahiralari, texnologiyani qo'llab- quvvatlash va ob'ektning loyihalashdagi, ob'ektning hujjatida talab qilgan me'yoriy resurslar sarfini kafolatlash kabi ma'lumotlar o'rganiladi. Barcha manbalarga asoslanib biz tahlilning keyingi, tahlil etish bosqichini boshlaymiz.

Tashkilot va birlashmalarda funktsional qiymatli tahlil ob'ektini ishlab chiqarishga tayorlashning bir qancha bosqichlari bo'ladi:

1. Korxonaning ilmiy izlanuvchan mutaxassislari yordamida tahlil ishlarini olib borish; Bu korxonada, birlashma buyrug'i, ilmiy tekshirish instituti ko'rsatmasiga asosan olib boriladi.

2. Funktsional qiymatli tahlilning bo'limlari bo'yicha tahlil olib borish, ya'ni har xil mutaxassislar orqali.

3. Funktsional qiymatli tahlilni ayrim bo'lim, laboratoriya, sektorlarida mutaxassislar yordamida olib borish.

Tahlil natijalariga ko'ra biz ijodiy mulohazalar yuritamiz, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlab ularni bartaraf etish takliflarini beramiz va uni ishlab chiqarishga qo'llaymiz.

Funksional qiymatli tahlilning samaradorlik ko'rsatkichi alohida mezon - mahsulot ishlab chiqarish xarajatlariga bog'liq indekslar bilan aniqlanadi.

Funksional qiymatli tahlil ob'ektining ishlab chiqarish va foydalanishda axborotlarni tayyorlash va tizimlashtirish

Bu bo'lim odatda funktsional qiymatli tahlilning fundamenti deb hisoblanadi. Bu bosqichda barcha ma'lumotlar tizimi o'z aksini topadi. Bu quyidagi shaklda tuziladi (8- jadvalga qarang).

8- jadval

Mini traktor ishlab chiqarish bo'yicha asosiy iqtisodiy ma'lumotlar

| Ko'rsatkichlar | Turlari | |
|--|------------|------------|
| | DT-70 | T-4A |
| Bazis yilga ishlab chiqarish kerak bo'lgan mahsulot: dona ming so'm | 6 66000 | 8 74000 |
| Rejalashtirilayotgan yilga ishlab chiqarish kerak bo'lgan mahsulot hajmi, dona | 6 | 9 |
| Bazis yilga mahsulotni sotishning ulgurji bahosi | 66000 | 83250 |
| Mehnat sig'imi, norma - soat | 1,6 | 1,7 |
| Mehnat haqi m. s. | 11000 | 14000 |
| Mahsulot tannarxi m.s. | 50000 | 65000 |
| Rentabellik % | 32.0 | 28.0 |

Jadvaldan olingan ma'lumotlarga ko'ra ob'ektni yig'ish tizimi ishlab chiqariladi. Yig'ish ishlari uning ijobiy taraflarini ko'rsatib amalga oshiriladi.

4. Funktsional qiymatli tahlilni olib borish shartlari

Ishlab chiqarish jarayonlari to'g'risida ma'lumot barcha boshqaruv organlariga uning ijobiy va salbiy tomonlari ko'rsatilgan holda taqdim etilishi lozim. Funktsional qiymatli tahlil yordamida ko'rsatilgan reja ijobiy deb topilsa, uni amalga tatbiq etish ishlari olib boriladi.

Iqtisodiy tomondan ob'ektni to'g'ri moliyalashtirish va ishni olib borish tartibi belgilanadi. Shu bilan birga iqtisodiy shartlariga uni uzoq muddatga mo'ljallanganligi, bajaradigan ishi ham bir qancha yil davom etishi kabi qirralari ko'riladi. Agarda funktsional qiymatli tahlilda ko'rsatilgan reja davrlar o'tishi bilan o'zgartirish ishlariga muhtoj bo'lsa, buni avvaldan ko'rsatish va ko'rsatilgan davrda amalga oshirishini ta'minlash lozim. Bu o'zgartirishlarga me'yoriy xarajatlar, ishchilarning qisqarishi va h.k. kiradi. Asosiy vazifalar amalga oshirilgach tayyor bo'lgan ob'ektga shart-sharoitni yaratib qo'yish zarur. Ob'ekt tayyor bo'lgach, uni iste'molchilar tomonidan tezlik bilan sotib olish ishlarini tayyorlash kerak. Bunda uning bajaradigan vazifalari keng ommaga to'liq etkazilishi lozim. Funktsional qiymatli tahlil injenerlik, iqtisodiy, huquqiy, texnologik masalalarni barchasini mujassamlashtirgan holda jarayonlarni va hodisalarni oxirgi natijasidan avvalroq bilib, o'rganib turadigan tahlil turidir. Bu tahlil turi bozor iqtisodiyotiga o'tgan eng rivojlangan mamlakatlarning ishlab chiqarishida amalda qo'llanilib katta ijobiy natijalarni egallashga musharraf bo'lgan.

Funktsional qiymatli tahlilning, shu bilan bir qatorda, salbiy taraflari ham mavjud bo'lib, unda barcha bajariladigan ishlar eng optimal variant deb qaraladi va uning yangi texnologiyalarning kirib kelishini sekinlashtiradi. Chunki, bu ishlar oldindan ko'rilgan optimal variant va uzoq davrga mo'ljallangan deb qaraladi. Bu salbiy taraflarni oldini olish uchun faoliyat ko'rsatayotgan mehnat kuchlari qatlamini ma'naviy tarafdin boyligini oshirib borish lozim.

Funktsional qiymatli tahlilda iqtisodchilar bilan bir qatorda injener, texnolog, oddiy ishchilarni mahsulot ishlab chiqarish jarayonida qatnashuv darajasini takomillashtirish ishlari ham ko'rib chiqiladi. Umuman bu tahlil har bir faoliyatni aniq o'lchangan va natijalashtirgan holda ko'radi.

Mavzuni takrorlash uchun savollar

1. Funktsional qiymatli tahlilning ob'ekti nima?
2. Funktsional qiymatli tahlilning oldiga qanday vazifalar qo'yilgan?
3. Funktsional qiymatli tahlil o'tkazishda qo'llaniladigan shartlar nimalardan iborat?
4. Funktsional qiymatli tahlilning olib borish bosqichlari nimalardan iborat?

Mavzuni mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar

- funktsional qiymatli tahlil mazmuni;
- funktsional qiymatli tahlil tamoyillari;
- funktsional qiymatli tahlil bosqichlari.

VIII. Ishlab chiqarishning muhim samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilishning uslubiy asoslari

- 1. Mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishning muhim ko'rsatkichlari tahlili.**
- 2. Mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik va ular unumdorligining tahlili**
- 3. Asosiy fondlar va ulardan samarali foydalanishning tahlili**
- 4. Moddiy aylanma boyliklardan samarali foydalanish ko'rsatkichlarining tahlili.**
- 5. Erdan foydalanish ko'rsatkichlarining tahlili.**
- 6. Mahsulot tannarxining tahlili**
- 7. Foyda va rentabellik ko'rsatkichlarining tahlili.**

1. Mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishning muhim ko'rsatkichlari tahlili

Mahsulot ishlab chiqarish va sotishning tahlilida mikro jihatdan o'rganiladigan qator ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi.

Ularni iqtisodiy mazmuni bo'yicha quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- tayyor mahsulot;
- tovar mahsuloti;
- realizatsiya qilingan mahsulot;
- kritik hajm darajasidagi mahsulot hajmi.

Tayyor mahsulot hisobot davrida korxonada tomonidan ishlab chiqarilgan jami tayyor mahsulotni(ish, xizmatlar) qiymat ko'rinishidagi ifodasidir. Tayyor mahsulot - barcha rasmiy va texnik o'rnatilgan talablarga javob beradigan, tekshiruvdan o'tgan iste'mol uchun yaroqli buyum yoki ish, xizmatlardan tashkil topadi. Tayyor mahsulot sotish hamda ichki iste'mol uchun ishlab chiqariladi. Mazkur mahsulot turi ulgurji bahoda yoki ishlab chiqarish tannarxida baholanadi.

Tovar mahsuloti - bu sotish uchun ishlab chiqarilgan va tayyorlangan mahsulotdir. Uning qiymat ifodasi bevosita korxonada ulgurji bahosida, amaldagi va taqqoslama baholarda hisoblanishi mumkin. Tayyor mahsulotni sotish uchun mo'ljallangan qismi tovar mahsulotini tashkil qiladi.

Sotilgan mahsulot - tayyor yoki tovar mahsulotining haqiqatda sotilgan qismini bildiradi. Xaridorlarga ortib jo'natilgan hamda xaridor va buyurtmachilarga yukning ortilgan va sotilgani haqidagi hisob hujjatlari taqdim etilgan mahsuloti ham sotilgan deb hisoblanadi. Sotilgan mahsulotning qiymat ifodasi tovar mahsulotning qiymat ifodasiga korxonada bahosi bo'yicha teng deb olinadi. Mahsulot ish va xizmatlarni sotish korxonada ulgurji bahosi va chakana baholarda amalga oshiriladi. Korxonada ulgurji bahosining tuzilishi quyidagicha bo'ladi. Ya'ni, sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi, sotilgan mahsulotlar bo'yicha korxonada foydasi, sotilgan mahsulotlar bo'yicha sotishga soliqlar summasidan iborat. Sotilgan mahsulotning chakana bahosi ulgurji bahodan savdo qo'shimchasi yoki chegirmalari summasiga farq qiladi.

Kritik hajm darajasidagi mahsulot shunday hajmdagi mahsulot miqdori va uning qiymatiki, korxonada ishlab chiqarish faoliyatida mazkur hajmga erishish belgilangan mahsulot turi bo'yicha zarar ham ko'rmaydi, foyda ham olmaydi ya'ni, zararsizlik nuqtasi ta'minlanadi.

Iqtisodiy tahlilda mahsulot xajmi ko'rsatkichlarining holati, ularning o'zgarishi, o'zgarishga ta'sir etgan omillar o'rganiladi.

2. Mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik va ular unumdorligining tahlili

Korxonadagi mehnat resurslari bu mavjud xodimlar tarkibini ifodalaydi. Xodimlar tarkibi esa ularning xizmat vazifalari va ish faoliyatining mazmuniga ko'ra tayinlanishini nazarda tutadi. Korxonada band bo'lgan xodimlarni turli belgilar bo'yicha tarkiblash mumkin. Jumladan, ishlab chiqarishning tuzilishi bo'yicha - sanoat ishlab chiqarish xodimlari, boshqa tarmoq xodimlari, noishlab chiqarish xodimlari, band bo'lishiga qarab - doimiy ishchilar, mavsumiy ishchilar, xizmat vazifasi bo'yicha - ishchilar, xizmatchilar, ishlab chiqarishda qatnashuvchanlik darajasi bo'yicha - asosiy va yordamchi ishchilarga tarkiblanishi mumkin. Shuningdek, xodimlar yoshi, mehnat staji, jinsi, malakasi va ma'lumoti bo'yicha ham tarkiblanadi.

Xodimlar tarkibi, dinamikasi, harakatini ular bo'yicha mutlaq va nisbiy o'zgarishlarda o'rganish tahlil mazmunini tashkil etadi.

9-jadval

Xodimlarning tarkib bo'yicha tahlili.

| Xodimlar tarkibi | Hisobot yili | | | | Farqi (+;-) | |
|------------------|--------------|------|-----------|------|------------------|---------------------|
| | Reja | | Xaqiqatda | | Mutlaq o'zgarshi | Nisbiy o'zgarshi, % |
| | Soni | % | Soni | % | | |
| Ishchilar | 1560 | 81.5 | 1450 | 82.3 | -110 | +0.8 |
| Xizmatchilar | 320 | 16.5 | 280 | 15.8 | -40 | -0.8 |
| Rahbarlar | 34 | 2.0 | 30 | 1.9 | -4 | -0.1 |
| Jami | 1914 | 100 | 1760 | 100 | -154 | x |

Korxonada jami xodimlar soni rejaga nisbatan -154 kishiga, shu jumladan, ishchilar sonidagi o'zgarishlar -110 kishiga, xizmatchilar tarkibidagi o'zgarishlar -40 kishiga, rahbar xodimlar esa -4 kishiga kamaygan.

Korxonaning foaliyat natijaviyligi va samaradorligi ko'p jihatdan uning ishchi kuchi bilan qay daraja ta'minlanganligiga bog'liq. Shu ma'noda xodimlar va ularning sohibkorligi faoliyatni maqsadli boshqarishda muhim (shaxsiy) omil sifatida qaraladi.

Ishchi kuchi bilan ta'minlanganlik tahlilida xodimlarning rejaga va o'tgan yillarga nisbatan o'zgarishlari, mahsulot hajmini o'stirish yuzasidan mutlaq va nisbiy farqlar, xodimlar aylanishini tavsiflovchi ko'rsatkichlar o'rganiladi.

Mehnat resurslari harakatini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkich sifatida xodimlar qo'nimsizligi aniqlanadi. Xodimlar qo'nimsizligi quyidagi bog'lanishda aniqlanadi:

Xs

Kkun. = -----;

X

Bunda: Kkun- xodimlar qo'nimsizligi koeffitsienti;

Xs- korxonada va umumjamiyat tavsifida bo'lmagan sabablar tasirida ishdan bo'shaganlar soni;

X- xodimlarning o'rtacha ro'yxatdagi soni.

Xodimlar qo'nimsizligi bevosita ularning qabul etish va bo'shatish bo'yicha aylanmalarni hisoblash asosida to'ldiriladi.

Xodimlarni ishga qabul etish koeffitsienti hisobot davrida ishga qabul qilingan ishchilar sonini ularning o'rtacha ro'yxatdagi soniga bo'lish asosida aniqlanadi.

Xodimlarning ishdan bo'shatish koeffitsienti ishdan bo'shagan jami xodimlar sonini ularning o'rtacha ro'yxatdagi soniga bo'lish asosida aniqlanadi.

Korxonada mehnat unumining o'sishi ko'p jihatdan ish vaqtidan qay darajada foydalanishlik darajasi bilan bog'liqdir. Korxonada ish vaqtidan foydalanishning quyidagi jihatlarini farqlash mumkin:

- ishchilarning ish vaqtidan foydalanish darajasini o'rganish;
- uskunalarning ish vaqtidan foydalanish darajasini o'rganish.

Ishchilar ish vaqtidan foydalanishning umumlashgan ko'rsatkichi jami ishchilar tamonidan yil davomida ishlangan kishi soatlari hisoblanadi.

Tahlilda korxonada ish vaqtidan foydalanishning qay darajada yo'lga qo'yilganligi, uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi alohida tur omillarning ta'sir darajasiga tavsif beriladi. Ishchilar ish vaqtidan foydalanish darajasiga quyidagi omillar ta'sir qiladi:

- ishchilarning o'rtacha ro'yxatdagi sonining o'zgarishi;
- bir yilda o'rtacha ishlangan ish kunlarining o'zgarishi;
- ish kuni davomiyligining o'zgarishi.

10-jadval

Ish vaqtidan foydalanish tahlili

| № | № | Ishchi-lar soni | O'rtacha ishlangan kishi kunlari | Ish kuni davomiyliigi | Umumlashgan ko'rsatkich | Oldin-gi hisob-dan farqi | Tasir sabablari |
|----------------|---|-----------------|----------------------------------|-----------------------|-------------------------|--------------------------|--|
| A | B | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 |
| 1 | 0 | 1200 | 240 | 7.0 | 2016 | | |
| 2 | 1 | 1300 | 240 | 7.0 | 2184 | +168 | Ishchi-lar sonini o'zgarishi. |
| 3 | 2 | 1300 | 250 | 7.0 | 2275 | +91 | Ish kunini o'zgarishi |
| 4 | 3 | 1300 | 250 | 7.2 | 2340 | +65 | Ish kuni-ning davomiy-ligini. o'zgarishi |
| Jami o'zgarish | | | | | | +324 | |

Jadvalda ishchilarning jami ish vaqti o'zgarishiga +324 (2340-2016) ta'sir etgan birliklar hisob-kitobi keltirilgan.

Xodimlar tahlilida ularning mehnati unumdorligini o'rganish ham muhim ahamiyatga ega.

Mehnat unumdorligi ishlab chiqarilgan mahsulot, ish va xizmatlar hajmini mehnat sarfi birligiga bo'lish asosida aniqlanadi. Mehnat sarfining birligi sifatida ishlangan ish soatlari yoki ishchilar soni olinadi.

Tahlilda mehnat unumdorligi, uning o'sish darajalari va dinamikasiga baho beriladi.

Mehnat unumdorligining o'sish darajalari va dinamikasiga baho berishda uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi quyidagi qatorlarga alohida ahamiyat beriladi:

- intensiv omil;
- ekstensiv omil;
- ishlab chiqarishning texnik-texnologik holati;
- mehnat unumdorligining o'sishi;
- mahsulot hajmining uni ishlab chiqarish vaqti va sifatiga ta'sir etmagan holda oshirishga;
- mahsulot birligiga mehnat sarfining kamayishiga;
- mahsulot ishlab chiqarish va tovarlar aylanish vaqtini qisqartirishga;
- hajm va foyda me'yorini oshirish imkonini beradi.

Mehnat unumdorligi qiymat va ayrim xollarda natural, shartli- natural ko'rsatkichlarda aniqlanadi.

Mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari

| Mehnat unumdorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar | |
|--|--|
| Bir xodimga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi | Mahsulot (ish, xizmat) hajmi MU= ----- Xodimlarning o'rtacha ro'yxatdagi soni |
| Bir ishchiga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi | Mahsulot (ish, xizmat) hajmi MU= ----- Ishchilarning o'rtacha ro'yhatdagi soni |
| Bir soatlik mehnat unumi | Mahsulot (ish, xizmat) hajmi MU= ----- Ishlangan ish soatlari |
| Bir kunlik mehnat unumi | Mahsulot (ish, xizmat) hajmi MU= ----- Ishlangan ish kunlari |

Mehnat unumdorligining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni quyidagi uchta guruhga ajratish mumkin.

1. Moddiy - texnik va texnologik.
2. Tashkiliy - iqtisodiy.
3. Ijtimoiy - psixologik.

Moddiy texnik va texnologik omillar ishlab chiqarishda samarador texnika va progressiv texnologik uskunalardan shuningdek, axborotlar texnologiyasidan, yangi xom ashyo va moddiy mablag'lardan foydalanishni tavsiflaydi. Ular ko'proq mahsulotning hajmiga, sifatiga va mehnat va ashyoviy sarfiga ta'sir etadi.

Tashkiliy-iqtisodiy omillarga boshqaruvning, mehnat va butun ishlab chiqarishni tashkil etishning samarali va zamonaviy tizimini qo'llash usullari kiradi.

Ijtimoiy-psixologik omillarga xodimlarning sifat tasnifini tavsiflovchi (malakasi, mehnat faolligi, majburiyati va xizmat vazifasiga ma'sulligi, sohibkorligi) jihatlarini faollashtirish masalalari kiradi.

Yuqorida tarkiblangan barcha omillar bir-birlari bilan bog'liq va o'zaro aloqadorlikdadir. Shu sababli tahlilda ular bevosita kompleks holda o'rganiladi.

Mehnat unumdorligi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganishda bir ishlovchiga va bir ishchiga to'g'ri keladigan unumdorlik ko'rsatkichlariga alohida ahamiyat beriladi. Bir xodimga to'g'ri keladigan mehnat unumining o'zgarishiga ishchilarning jami ishlovchilar tarkibidagi salmog'ining o'zgarishi va bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining o'zgarishi ta'sir etadi. Bir ishchining mehnat unumining o'zgarishiga esa bir ishchi tamonidan o'rtacha yillik ishlangan ish kunlarining o'zgarishi, ish kuni davomiyligining o'zgarishi hamda bir soatlik mehnat unumining o'zgarishini ta'sir etadi.

Tahlilda har omilning natijaviy ko'rsatkichga ta'sir darajalari hisoblab topiladi va ularning o'zgarish tasiri baholadi.

Bir xodimga va bir ishchiga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi hamda ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili

| Ko'rsatkichlar | O'tgan yil | Hiso-bot yili | Farqi (+;-) | O'sish dara-jasi |
|---|------------|---------------|-------------|------------------|
| A | 1 | 2 | 3 | 4 |
| 1.Mahsulot hajmi (korxonada ulgurji bahosida), m.s. | 15428 | 18650 | +3222 | 120,9 |
| 2.Sanoat ishlab chiqarish xodimlari, kishi | 1914 | 1760 | -154 | 91,9 |
| Shu jumladan: Ishchilar | 1560 | 1450 | -110 | 92,9 |
| 4.Ishchilarning sanoat ishlab chiqarish xodimlari tarkibidagi salmog'i % da | 0,815 | 0,823 | +0,008 | 101,1 |
| 5.Jami ishlangan ish kunlari, ming kishi - kuni | 430,6 | 366,0 | -64,6 | 85,0 |
| 6.Jami ishlangan ish soatlari, ming kishi - soat | 3014,2 | 2635,2 | -379,0 | 87,4 |
| 7.Bir sanoat ishlab chiqarish xodimiga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi, so'm | 8060,6 | 10596,5 | +2535,9 | 131,4 |
| 8.Bir ishchiga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi, ming so'm | 9,8897 | 12,862 | +2,9723 | 130,0 |
| 9.Bir sanoat ishlab chiqarish xodimining o'rtacha mehnat unumining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar; | X | X | +2535,9 | 131,4 |
| 9.1-ishchilar salmog'ining o'zgarishi, so'm | X | X | +79,11 | 4,1 |
| 9.2-o'rtacha bir ishchiga to'g'ri keladigan mahsulot hajmining o'zgarishi, so'm | X | X | 2446,20 | 127,3 |
| 10.Bir ishchi tomonidan yillik o'rtacha ishlangan kishi kunlari, kishi -kuni | 276,0 | 252,0 | -16 | 92,8 |
| 11.Ish kuni davomiyligi, soat | 7,0 | 7,2 | +0,2 | 102,8 |
| 12.Bir soatda ishlab chikarilgan mahsulot, so'm | 5,1184 | 7,0772 | +1,9588 | 138,2 |
| 13.Bir kishi kunida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, so'm | 35829,0 | 50956,2 | +15127,2 | 142,2 |
| 14.Bir ishchiga to'g'ri keladigan mahsulot hajmining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar; | X | X | +2,9723 | 130,0 |
| 14.1.-Ishlangan ish kunlari o'zgarishi, so'm | X | X | -571,2 | |
| 14.2.-Ish kuni davomiyligi o'zgarishi, so'm | X | X | +257 | |
| 14.3.-Bir soatlik mehnat unumining o'zgarishi, so'm | X | X | +3447,3 | |

Jadval ma'lumotlaridan xulosa qilish mumkinki korxonada mahsulot ishlab chiqarishning samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkich mehnat unumining o'zgarishi jami xodimlar va ishchilar soniga nisbatan quyidagicha bo'lgan:

Bir sanoat ishlab chiqarish xodimiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot hajmi o'tgan yilga nisbatan 2535,9 so'mga yoki 131.4 % ga o'sgan. Bu o'zgarish bevosita sanoat ishlab chiqarish xodimlari tarkibida ishchilar sonining o'zgarishi va bir ishchining mehnat samarasining o'zgarishi

hisobiga ro'y bergan. Sanoat ishlab chiqarish xodimlari tarkibidagi ishchilar salmog'ining 0,008 koeffitsientga yoki 1.1 foiz o'sishi mehnat unumining $+79.11 (+0,008*9889,7)$ so'mga o'sishiga olib kelgan. Bir ishchiga to'g'ri keladigan mahsulot hajmining o'tgan yilga nisbatan $+2972.3$ so'mga yoki 30.0 (130-100) % ga o'sishi natijasida bir xodimga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi $+2446.20 (+2972,3*0,823)$ so'mga o'sgan.

Bir ishchiga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi o'tgan yilga nisbatan $+2,9723$ so'mga yoki 30.0 % ga o'sgan.

Bu o'zgarishda ishlangan kishi kunlarining o'zgarishining ta'siri $-571,2$ so'mga $(-16*7,0*5,1184)$, ish kuni davomiyligi o'zgarishi $+257,9$ so'mga $(0,2*252*5,1184)$, bir soatlik mehnat unumini o'zgarishi hisobiga $3447,3$ so'mga $(1,9588*252*7,2)$ to'g'ri kelgan.

3. Asosiy vositalar va ulardan samarali foydalanishning tahlili

Asosiy vositalar ishlab chiqarish jarayonida uzoq yillar davomida qatnashib o'zining qiymatini yaratilayotgan mahsulotlarga qisman o'tkazib boruvchi hamda jismoniy shaklini saqlab qoluvchi mehnat vositalaridir.

Tahlil etishda asosiy vositalar tarkibi bo'yicha mutlaq va nisbiy o'zgarishlariga baho beriladi.

Asosiy vositalarni quyidagi belgilar bo'yicha tarkiblash mumkin.

1. Ishlab chiqarish jarayonida qatnashuviga qarab:

- aktiv asosiy vositalar;
- passiv asosiy vositalar.

2. Tarmoq bo'ysunuviga qarab:

- sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalari;
- boshqa tarmoq asosiy vositalari;
- noishlab chiqarish asosiy vositalari.

3. Foydalanishiga qarab:

- foydalanishdagi asosiy vositalar;
- foydalanishdan olib quyilgan asosiy vositalar.

4. Turi bo'yicha:

- binolar, inshootlar, uzatish moslamalari, mashina va uskunalar, transport vositalari, asbob-uskunalar, xo'jalik inventarlari, ishchi va mahsuldor hayvonlar, ko'p yillik ekinlar va boshqa asosiy vositalar.

1. Mulkiy egaligiga qarab:

- o'ziga tegishli asosiy vositalar;
- ijaraga olingan asosiy vositalar.

Tahlil uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar buxgalteriya hisobotining 3-shakli «Asosiy vositlar harakati to'g'risidagi» hisobot shaklidan olinadi.

13-jadval

Asosiy vositalar tarkibining tahlili

| Asosiy vositalar | Ja-mi | Shu jumladan | | | | | |
|--------------------------------------|-------|--------------|----------|----------------------|------------------------|------------------------|------------------------|
| | | Bi-no | Insho-at | Uzatish mosla-malari | Mashi-na va usku-nalar | Tran-sport vosita-lari | Boshqa asosiy fond-lar |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 |
| Ishlab chiqarish asosiy vositalari | | | | | | | |
| o'tgan yil | | | | | | | |
| summasi, m.s. | 26720 | 2434 | 136 | 657 | 21680 | 1265 | 548 |
| salmog'i % | 100 | 9,1 | 0,5 | 2,5 | 81,1 | 4,7 | 2,1 |
| hisobot yili | | | | | | | |
| summasi, m.s. | 34150 | 2560 | 136 | 569 | 28900 | 1345 | 540 |
| salmog'i, % | 100 | 7,5 | 0,4 | 1,7 | 84,6 | 3,9 | 1,9 |
| Farqi | | | | | | | |
| summa, m.s. | 7430 | 16 | 0 | -88 | +7220 | +80 | -8 |
| salmoq, % | x | 1,6 | -0,1 | -0,8 | +3,5 | -0,8 | -0,2 |
| Noishlab chiqarish asosiy vositalari | | | | | | | |
| Summasi, m.s. | | | | | | | |
| o'tgan yil | 2450 | 1260 | - | - | - | - | 1190 |
| hisobot yili | 2450 | 1260 | - | - | - | - | 1190 |

Korxonada asosiy vositalarning o'tgan yilga nisbatan o'zgarishi +7430 ming so'mni tashkil etgan. Shu jumladan, binolar bo'yicha +126 ming so'm, mashina va uskunarlar bo'yicha +7220 ming so'm, transport vositalari bo'yicha 80 ming so'm qiymatda o'sishga erishilgan.

Jami asosiy fondlar tarkibida asosiy ulushni mashina va uskunarlar hamda, transport vositalari tashkil etgan. Joriy davrda mashina va uskunarlar salmog'ini 3,5 % ga oshirishga muvaffaq bo'lingan.

Noishlab chiqarish asosiy vositalari 2450 m.s. tashkil etgan holda joriy davrda o'zgarish bo'lmagan.

Asosiy vositalarni o'rganishda ularning texnik holati va harakat ko'rsatkichlariga muhim ahamiyat beriladi.

Asosiy vositalarning holat ko'rsatkichlariga quyidagilar kiritiladi:

- asosiy vositalarning yaroqlilik darajasi;
- asosiy vositalarning eskirish darajasi.

Yaroqlilik darajasi asosiy vositalarning qoldiq qiymatini ularning boshlang'ich qiymatiga bo'lish orqali;

Eskirish darajasi esa asosiy vositalarning eskirish qiymatini ularning boshlang'ich qiymatiga bo'lish asosida aniqlanadi.

Yaroqlilik va eskirish koeffitsientlari yig'indisi koeffitsientda 1 ga, foizda 100 teng bo'ladi.

Asosiy vositalarning holat ko'rsatkichlariga qarab ularning texnik holatiga baho beriladi va ularni tartiblash bo'yicha boshqaruv qarorlari qabul qilinadi.

Asosiy vositalarning holatini o'rganishda korxonada amortizatsiya siyosatiga, asosiy vositalarning ma'naviy eskirganlik darajasiga, foydalanishdan olib qo'yilgan asosiy vositalar holatiga muhim e'tibor qaratiladi.

Korxonada amortizatsiya siyosati bevosita davlat amortizatsiya siyosati asosida belgilanadi. Uning muhim usullariga quyidagilar kiritiladi.

- teng ulushlarda amortizatsiya hisoblash;
- ikki marta oshirilgan usulda eskirish hisoblash;
- ishlab chiqarish hajmiga muvofiq eskirish hisoblash;
- komulyativ usulda eskirish hisoblash;

Asosiy vositalarning holat ko'rsatkichlarini ularning har bir turi va jami bo'yicha o'rganiladi.

Asosiy vositalarning holat ko'rsatkichlari ularning harakat ko'rsatkichlari bilan to'ldiriladi.

14-jadval

Asosiy vositalarning holat ko'rsatkichlari tahlili.

| Asosiy vositalar | Boshlang'ich qiymati | Eskirish qiymati | Qoldiq qiymati | Eskirish darajasi | Yaroqlik darajasi |
|------------------|----------------------|------------------|----------------|-------------------|-------------------|
| O'tgan yil | 168900 | 54890 | 114010 | 32,5 | 67,5 |
| Hisobot yili | 187320 | 65780 | 121540 | 35,1 | 64,9 |
| Farqi(+;-) | +18420 | +10890 | +7530 | +2,6 | -2,6 |

Korxonada asosiy vositalarning eskirish darajasi o'tgan yilga nisbatan 2,6 % ga oshgan. Unga qarama qarshi bo'lgan ko'rsatkich asosiy vositalarning yaroqlilik darajasi esa 2,6 % ga kamaygan.

Asosiy vositalarning holat ko'rsatkichlari ularning harakat ko'rsatkichlarini o'rganish asosida to'ldiriladi.

Asosiy vositalarning harakat ko'rsatkichlariga ularning yangilanishi va chiqib ketish koeffitsientlari kiritiladi. Asosiy vositalarning yangilanish koeffitsienti joriy davrda yangidan kiritilgan asosiy vositalar qiymatini asosiy vositalarning yil oxiriga bo'lgan qiymatiga bo'lish orqali topiladi. Asosiy vositalarning chiqib ketish koeffitsienti joriy davrda chiqib ketgan asosiy vositalar qiymatini ularning yil boshiga bo'lgan qiymatiga bo'lish asosida aniqlanadi.

Bu tarkiblashni asosiy vositalarning jami qatori va har bir tarkibi bo'yicha berib o'tish mumkin.

Asosiy vositalarning harakat ko'rsatkichlari tahlili.

| Asosiy vositalar | Asosiy vositalarning yil boshiga qoldigi | Yangidan qabul qilingan asosiy vositalar | Chiqim qilingan asosiy vositalar | Asosiy vositalar-ning yil oxiriga qoldig'i | Yangilanish qoeff. | Chiqib ketish koeff. |
|------------------|--|--|----------------------------------|--|--------------------|----------------------|
| O'tgan yil | 155690 | 14500 | 1290 | 168900 | 8,6 | 0,8 |
| Hisobot yili | 168900 | 22380 | 3960 | 187320 | 11,9 | 2,3 |
| Farqi (+;-) | +13210 | +7880 | +2670 | +18420 | +3,3 | +1,5 |

Korxonada asosiy vositalarning harakat ko'rsatkichlarini o'zgarishi shu holatni ko'rsatadiki joriy davrda asosiy vositalarning yangilanish darajasi oldingi yilga nisbatan 3,3 % ga o'sgan. Hisobdan chiqarilgan asosiy vositalarning o'tgan yilga nisbatan o'zgarishi esa +1,5 % ga ortgan. Ular orasidagi nisbat 2.2 ga (3.3 / 1.5) teng bo'lgan.

Tahlilda asosiy vositalarning yangilanish va chiqib ketish sabablariga ham muhim e'tibor beriladi.

Asosiy vositalarning yangilanish manbalari:

- kapital qo'yilmalar va investitsiyalar;
- xususiy kapitalning o'sishi;
- uzoq muddatli kreditlar va qarzlarni hisobiga.

Asosiy vositalarning chiqib ketish sabablari:

- ma'naviy eskirishi;
- jismoniy eskirishi va foydalanish uchun yaroqsiz holatga kelishi;
- ortiqchaligi;
- sotishlar;
- yo'qotishlar va boshqa sabablar.

Mahsulot ishlab chiqarish nafaqat asosiy vositalarning texnik holat va harakat ko'rsatkichlariga balki ular bilan ta'minlanganlik darajasiga ham bog'liq. Korxonada (firma) ning asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik yoki qurollanganlik darajasi deb ishlab chiqarishning me'yor darajasida mehnat vositalari bilan ta'minlanganligiga aytiladi.

Avvalo, korxonaning mehnat vositalari bilan ta'minlanganligida quyidagi jihatlarni farqlash lozim:

- o'ziga tegishli bo'lgan mehnat vositalari hisobiga ta'minlash;
- ijaraga olingan mehnat vositalari hisobiga ta'minlash.

Demak korxonada har ikkala holatda ham asosiy vositalar bilan ta'minlanganlikning me'yor ko'rsatkichlariga ega bo'lishi mumkin.

Asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik tahlilida korxonada asosiy vositalarning rejaga va o'tgan yillarga nisbatan mutlaq va nisbiy o'zgarishlariga baho beriladi.

Asosiy vositalar bilan qurollanganlik ko'rsatkichlari sifatida bir ishchiga to'g'ri keladigan mehnat vositalari, ish o'rni, maydonining asosiy vositalar bilan qurollanganlik darajasi aniqlanadi. Asosiy vositalar bilan qurollanganlik darajasi ularning samaradorlik ko'rsatkichlarini o'rganish asosida to'ldiriladi. Ya'ni, korxonada faoliyatiga faqat miqdor ko'rsatkichlar orqaligina emas balki sifat ko'rsatkichlarini ham o'rganish asosida baho beriladi.

Asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik va qurollanganlik tahlili.

| № | Ko'rsatkichlar | O'tgan yil | Hisobot yili | Farqi (+;-) |
|---|--|------------|--------------|-------------|
| 1 | Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati, ming so'm | 162295 | 178110 | +15815 |
| 2 | Sanoat ishlab chiqarish xodimlari soni | 1914 | 1760 | -154 |
| 3 | Bir xodimga to'g'ri keladigan asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati, so'm | 84294 | 101199 | +16905 |

Korxonada sanoat ishlab chiqarish xodimlarining asosiy vositalar bilan qurollanish darajasi o'tgan yilga nisbatan 16905 so'mga o'sgan. Bu o'sish ikki omil ta'sirida sodir bo'lgan, birinchisi ishchilar sonining o'zgarishi hisobiga hamda ikkinchisi asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishi hisobiga. Ishchilar sonining o'zgarishi ta'siridagi farqlanish (93056-84294) = +8762 so'mga, asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishiga hisobiga (101199-93056) = + 8143 so'mga teng bo'lgan. Omillar ta'sirining yig'indisi esa = +8762+8143=16905 so'mga teng.

Bunda 93056 so'm shartli bir sanoat ishlab chiqarish xodimga to'g'ri keladigan asosiy vositalar qiymatidir. Ya'ni, asosiy vositalarning hisobot yilgi ko'rsatkichi xodimlarning o'tgan yil ko'rsatkichiga nisbati (178110 / 1914) bilan topilgan.

Asosiy vositalardan foydalanish va ularning samaradorligiga baho berish iqtisodiy tahlilning zarur shartlaridan biri hisoblanadi. Ularning qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin.

Asosiy vositalarning samaradorlik ko'rsatkichlari

| Fond qaytimi | Aniqlanishi |
|--|---|
| Sanoat ishlab chiqarish fondlari qaytimi | $F_k = \frac{\text{Mahsulot hajmi}}{\text{Sanoat ishlab chiqarish fondlarini o'rtacha yillik qiymati}}$ |
| Mashina va uskunalar qaytimi | $F_k = \frac{\text{Mahsulot hajmi}}{\text{Mashina va uskunalar o'rtacha yillik qiymati}}$ |
| Sanoat ishlab chiqarish fondlari sig'imi | $F_s = \frac{\text{Sanoat ishlab chiqarish fondlari o'rtacha yillik qiymati}}{\text{Mahsulot hajmi}}$ |
| Mashina va uskunalar sig'imi | $F_s = \frac{\text{Mashina va uskunalar o'rtacha yillik qiymati}}{\text{Mahsulot hajmi}}$ |

Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish va uning holatiga baho berishga iqtisodiy tahlilda alohida ahamiyat beriladi. Korxonada ishlab chiqarish quvvati deganda uning to'la ish bilan bandlik holatiga aytiladi. Bu holat nafaqat mahsulot ishlab chiqarish darajasiga balki uning harajatlar tarkibiga, moliyaviy natijaviyligiga ham ta'sir etuvchi birlik sifatida qaraladi. Ishlab chiqarish quvvatlari va uning foydalanish darajalariga baho berish asosida korxonaning joriy davrdagi iqtisodiy potentsiali hamda uni maqsadli boshqaruvi belgilanadi.

Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishning tahlilining quyidagi qatorlarini tavsiflash mumkinL:

- korxonada ishlab chiqarish quvvatlarining texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari tizimi;
- texnik iqtisodiy ko'rsatkichlar va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni qiyosiy tahlili;
- ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishning korxonada xarajatlariga ta'sirining tahlili;
- ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishning korxonada ishlab chiqarish samaradorligiga va faoliyat natijaviyligiga ta'sirining tahlili.

Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishda korxonada tomonidan taqdim etiladigan 2-b shakl «Korxonaning ijtimoiy iqtisodiy ko'rsatkichlari»ga muhim etibor beriladi.

Tahlilda asosiy vositalarning samaradorlik ko'rsatkichlari va ularga ta'sir etuvchi omillar ikki tarkib bo'yicha o'rganiladi.

1. Asosiy vositalarning samaradorligi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili
2. Asosiy vositalar va ulardan samarali foydalanish ko'rsatkichlarining mahsulot hajmining o'zgarishiga ta'sirining tahlili.

Asosiy vositalarning samaradorlik ko'rsatkichlari va ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar qatoriga quyidagilar kiritiladi:

- mahsulot ishlab chiqarish hajmi va uning o'zgarishi.
- asosiy fondlar o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishi.
- Mahsulot hajmiga ta'sir etuvchi mehnat vositalari bilan bog'liq bo'lgan omillar qatoriga quyidagilar kiritiladi:
- asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishi;
- fond qaytimi (sig'imi) ning o'zgarishi.

18-jadval

Asosiy vositalarning samaradorlik ko'rsatkichlari va ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili

| Ko'rsatkichlar | Mahsulot hajmi, korxonada ulgurji bahosida, ming so'm. | Sanoat ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati | Fond qaytimi | Fond sig'i-mi |
|--|--|--|--------------|---------------|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| O'tgan yil | 148952 | 56321 | 2,644 | 0,378 |
| Shartli, hisobot yili | 214632 | 56321 | 3,810 | 0,262 |
| Hisobot yili | 214632 | 58925 | 3,642 | 0,274 |
| O'tgan yildan farq | +65680 | +2604 | +0,998 | -0,104 |
| Fond qaytimining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar | | | | |
| X | +1,166 | -0,168 | +0,998 | X |
| Fond sigimining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili | | | | |
| X | -0,116 | +0,012 | x | -0,104 |
| Mehnat vositalari bilan bog'liq omillarning mahsulot hajmiga ta'siri | | | | |
| X | +65680 | +6884,9 | +58807,1 | x |

Korxonada asosiy vositalarning samaradorligi o'tgan yilga nisbatan bir qadar yaxshilangan. Fond qaytimi va uning o'tgan yilga nisbatan o'sishi +0,998 (3,642- 2,644) so'mga teng bo'lgan. Bu o'zgarishda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining o'zgarishi ta'siri 1,166 (3,810-2,644) so'mni, asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishi esa salbiy ta'sir etgan va uning natijasida fond qaytimi -0,168 (3,642-3,810) so'mga kamaygan. Barcha omillar ta'sirida asosiy fondlar qaytimi o'tgan yilga nisbatan 0,998 so'mga ortgan (3,642-2,644).

Asosiy fondlar sig'imi o'tgan yilga nisbatan -0,104 so'mga kamaygan. Bu o'zgarishga mahsulot hajmining ta'siri -0,116 (0,262 - 0,378) so'mni, asosiy vositalar o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishining tasiri esa +0,012 (0,274 - 0,262) so'mni tashkil qilgan.

Mehnat vositalari bilan bog'liq bo'lgan omillarning mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sirining tahlilida asosiy vositalar o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishi ta'sirida yalpi mahsulot hajmi $+6884,9$ ($+2604*2,644$) ming so'mga, fond qaytimining o'zgarishi hisobiga $+58807,1$ ($0,998*58925$) ming so'mga o'sishini ko'rish mumkin.

4. Moddiy aylanma boyliklardan samarali foydalanish ko'rsatkichlarining tahlili

Moddiy aylanma mablag'lar - ishlab chiqarishning muayyan tsiklida foydalaniladigan va shu tsiklida ishlab chiqarilgan mahsulot(ish va xizmatlar) tannarxiga o'z qiymatini to'liq o'tkazib boruvchi moddiy qiymatliklardir.

Biz moddiy aylanma mablag'larining holatini va ulardan foydalanish darajasini ko'proq ishlab chiqarilgan mahsulot ish va xizmatlar tannarxiga nisbatan o'rganamiz. Moddiy ashyoviy mablag'lardan noishlab chiqarish yoki ishlab chiqarishdan tashqari jarayonlarda foydalanishni esa korxonalarining alohida tarkib qatori sifatida qaraladi.

Ishlab chiqarish omillari tarkibiga kiruvchi mehnat ashyolari va ularning cheklanganligi avvalo, ulardan foydalanishni to'g'ri va maqsadli boshqarishni talab etadi. Resurslar yoki mablag'lar cheklanmaganligi bevosita ular zaxirasining tugashini va chegaralanganligini tavsiflaydi. Bu qatorga bevosita moddiy resurslarning barcha qatorlarini yoki elementlarini kiritish mumkin.

Resurslar yoki mablag'larning cheklanganligi ulardan tejab tergap va samarali foydalanishni talab etadi.

Mehnat ashyolari tahlilining mazmuni bevosita uning oldiga quyilgan vazifalardan kelib chiqadi. Tahlilda bevosita ashyoviy resurslar bilan korxonaning ta'minlanganlik darajasiga, ulardan samarali foydalanishning holatiga, mahsulot hajmini o'stirishda ashyolarni to'g'ri boshqarishning ahamiyatiga, ashyoviy resurslarni iqtisod qilish yuzasidan ichki imkoniyatlarni belgilash va yo'lga qo'yishga muhim ahamiyat beriladi

Shu ma'noda iqtisodiy tahlil oldiga ham o'ta muhim vazifalar qo'yiladi.

- moddiy resurslar ta'minot rejasining bajarilishiga baho berish;
- resurslar va ular bo'yicha me'yorlarga qat'iy amal etilishini o'rganish;
- moddiy resurslar va ulardan samarali foydalanishning darajasiga baho berish;
- moddiy aylanma mablag'lar, ashyoviy resurslar aylanishini o'rganish;
- muhim samaradorlik ko'rsatkichlari va ularning o'zgarishini omilli tahlil etish;
- mahsulot hajmini o'zgarishiga ta'sir etuvchi mehnat ashyolari bilan bog'liq bo'lgan omillarni o'rganish;
- ishlab chiqarish xarajatlari tarkibida mehnat ashyolarining salmoq ko'rsatkichlarini o'rganish va hokazolar.

Moddiy aylanma boyliklardan samarali foydalanish ko'rsatkichlariga quyidagi ko'rsatkichlar kiritiladi:

- material sig'imi ko'rsatkichi;
- material qaytimi ko'rsatkichi.

Material sig'imi ko'rsatkichi (Ms) ishlab chiqarishga sarflangan moddiy xarajatlarni yoki moddiy resurslarni mahsulot hajmini tavsiflovchi ko'rsatkichlarga bo'lish asosida aniqlanadi. Unga teskari bo'lgan ko'rsatkich material qaytimini (Mq) tavsiflaydi. Formula shaklida ularni quyidagicha ifoda etish mumkin:

- $M_s = \text{Moddiy aylanma xarajatlar yoki moddiy resurslar} / \text{mahsulot hajmi}$;
- $M_q = \text{Mahsulot hajmi} / \text{moddiy aylanma xarajatlar yoki moddiy resurslar}$.

Moddiy resurslar aylanishiga baho berish ham tahlilda asosiy mezon sifatida olinadi. Ya'ni, moddiy ishlab chiqarish resurslarining pulga aylanish davri va vaqtini o'rganish asosida korxonadagi oborot aktivlarining likvidlilik darajasiga baho beriladi.

Tahlil etishda moddiy resurslar sig'imi va qaytimining o'zgarishiga shunidek ularning aylanuvchanlik darajalariga ta'sir etuvchi omillarga va ularning mahsulot hajmini tavsiflovchi ko'rsatkichlarga ta'siriga ham alohida ahamiyat beriladi.

Moddiy resurslar sig'imi va qaytimiga ta'sir etuvchi omil sifatida mahsulot hajmini

tavsiflovchi ko'rsatkichlar qiymatining o'zgarishi va moddiy resurs va sarflar qiymatining o'zgarishini kiritish mumkin. Ularning ta'sir darajalari bevosita tahlilning oddiy va matematik formulalari asosida aniqlanadi.

Moddiy resurslar va ularning samaradorlik ko'rsatkichlarining mahsulot hajmining o'zgarishiga ta'sirini ham bevosita moddiy resurslar va xarajatlar qiymati hamda ularning samarasidan kelib chiqqan holda aniqlash mumkin.

20-jadval

Moddiy resurslar samaradorligi tahlili

| Ko'rsatkichlar | O'tgan yili | Hisobot yili | Farqi (+;-) | O'sish darajasi |
|---|-------------|--------------|-------------|-----------------|
| Mahsulot hajmi korxonada bahosida, ming sum | 125463 | 215364 | +89901 | 171,6 |
| Material sarflar, ming so'm | 79520 | 154862 | +75342 | 194,7 |
| Material sarflar qaytimi, so'm | 1,577 | 1,390 | -0,187 | 88,1 |
| Material sarflar sig'imi,so'm | 0,634 | 0,719 | +0,085 | 113,4 |

Korxonada moddiy sarflarning samaradorlik darajasi o'tgan yilga nisbatan bir qadar yomonlashgan. Korxonada mahsulot hajmi ham moddiy sarflarning qiymati ham o'tgan yilga nisbatan keskin o'sgan. Moddiy sarflarning unumiga ahamiyat berilmasligi natijasida moddiy sarflar qaytimi o'tgan yilga nisbatan 0,187 so'mga kamaygan. Bu o'zgarish sababini quyidagi bog'lanishlar orqali hisoblash mumkin:

Moddiy sarflar bo'yicha shartli qaytim = Mahsulot hajmi hisobot yili/Moddiy sarflar o'tgan yil darajasi (215364/79520=2,708)

Birinchi omil, mahsulot hajmining o'tgan yilga nisbatan 89901 ming so'mga o'sishi natijasida moddiy sarflar qaytimi 1,131 so'mga (2,708-1,577) ortgan. Lekin, ikkinchi omil moddiy sarflar qiymatining o'zgarishi hisobiga moddiy sarflar qaytimi yoki samarasi -1,318 so'mga(1,390-2,708) kamaygan. Har ikkala omil ta'sirida moddiy sarflar qaytimi -0,187 so'mga kamaygan.

Moddiy resurslar bilan taminlangan darajasi bilan birgalikda ularning aylanuvchanlik darajasiga ham baho beriladi. Moddiy sarflarning aylanuvchanlik darajasi koeffitsientlarda va kunlarda aniqlanadi.

5. Erdan foydalanish ko'rsatkichlarining tahlili

Erdan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar qatoriga quyidagi ko'rsatkichlar kiritiladi. Bu tarkib resurslar bevosita qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lganligi sababli ko'proq qishloq xo'jaliging ishlab chiqarish samaradorligiga baholashda o'rganiladi. Erdan foydalanishning samaradorligi uning har bir gektariga to'g'ri keladigan mahsulot hajmini tavsiflovchi ko'rsatkichlar bilan belgilanadi. Ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- har 1 ga. ga yoki 100 ga. ga to'g'ri keladigan yalpi mahsulot ko'rsatkichi;
- har 1 yoki 100 ga.ga to'g'ri keladigan sof tushum;
- har 1 yoki 100 ga. ga to'g'ri keladigan foyda yoki zarar ko'rsatkichi va h.k.

Ushbu ko'rsatkichlar asosida xo'jaliklarning iqtisodiy rivojlanish darajalariga yoki faoliyat samaradorligiga baho beriladi. Bunda har bir gektarga to'g'ri keluvchi yalpi mahsulot ko'rsatkichi asosiy ko'rsatkich sifatida olinadi.

Ushbu ko'rsatkich joriy davrda ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmining jami foydalanishda bo'lgan yoki qishloq xo'jaligiga yaroqli bo'lgan erga bo'lish asosida aniqlanadi. Bunda bevosita har bir gektardan olinayotgan yalpi mahsulot ko'rsatkichi aniqlanadi.

Har bir yoki yuz gektar maydonga to'g'ri keladigan mahsulot sotishdan olingan tushum summasi mahsulotlarni sotishdan olinadigan tushumni jami yaroqli bo'lgan er maydoniga bo'lish asosida aniqladi. Bunda har bir yoki yuz gektarga to'g'ri keladigan yalpi tushum qiymati kelib chiqadi.

Har bir yoki yuz gektarga to'g'ri keladigan foyda summasi ham korxonada faoliyatiga baho berishning va er resurslaridan samarali foydalanishning muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich korxonada hisob foydasi (soliq to'loviga qadar foyda, sof foyda)ni jami er maydoniga bo'lish asosida aniqlanadi.

6. Mahsulot tannarxining tahlili

Mahsulot tannarxi mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflangan barcha bevosita va bilvosita xarajatlardan tashkil topadi. Amaldagi tartibga muvofiq uning tarkibi quyidagilardan iborat bo'ladi:

- bevosita va bilvosita tavsifdagi moddiy xarajatlar;
- bevosita va bilvosita tavsifdagi mehnat haqi xarajatlari hamda ijtimoiy ajratmalar;
- bevosita va bilvosita tavsifdagi asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiya ajratmalari;
- bevosita va bilvosita tavsifdagi boshqa xarajatlar.

Mahsulot tannarxini tahlil etishdan asosiy maqsad uni kamaytirish yuzasidan korxonada mavjud bo'lgan ichki imkoniyatlarni aniqlash va foydani o'stirish yuzasidan xarajatlarni to'g'ri va o'rinli boshqarishning shartlarini belgilashdir.

Bunda bevosita ishlab chiqarish xarajatlari va ularning o'zgarish sabablariga ahamiyat beriladi.

Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga kiritilgan barcha o'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlarning o'zgarish sabablarini belgilangan me'yorlar va baho o'zgarishlari asosida o'rganish mumkin.

Mahsulot tannarxini tahlil etishda muhim iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlariga baho beriladi. Ular quyidagilardan iborat bo'ladi:

- bir so'mlik mahsulotga to'g'ri keladigan moddiy aylanma xarajatlar;
- ish xaqi va ijtimoiy ajratmalar; asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi, boshqa xarajatlar; mahsulotning jami xarajat sig'imi;
- o'zgaruvchan xarajatlar;
- o'zgarmas (doimiy xarajatlar);

Bir so'mlik mahsulotga to'g'ri keladigan xarajat ko'rsatkichlari quyidagi bog'lanishlar bo'yicha aniqlanadi.

Ishlab chiqarilgan bir so'mlik mahsulotga to'g'ri keladigan xarajat sig'imi ko'rsatkichlari.

| Ko'rsatkichlar | Aniqlanishi |
|-----------------------------------|---|
| Moddiy aylanma xarajatlar | Moddiy aylanma xarajatlar =----- Mahsulot hajmi |
| Ish xaqi va ajratmalar | Ish xaqi va ajratmalar =----- Mahsulot hajmi |
| Amortizatsiya xarajatlari | Amortizatsiya xarajatlari =----- Mahsulot hajmi |
| Boshqa xarajatlar | Boshqa xarajatlar =----- Mahsulot hajmi |
| Jami ishlab chiqarish xarajatlari | Jami ishlab chiqarish xarajatlari =----- Mahsulot hajmi |
| O'zgaruvchan xarajatlar | O'zgaruvchan xarajatlar =----- Mahsulot hajmi |
| Doimiy xarajatlar | Doimiy xarajatlar =----- Mahsulot hajmi |

Tahlil etishda ularning rejaga va o'tgan yillarga nisbatan shuning boshqa korxonalariga nisbatan qiyosiy o'zgarishlari o'rganiladi.

7. Foyda va rentabellik ko'rsatkichlarining tahlili

Foyda (daromad) iqtisodiy harakatning zaruriy sharti va maqsadi sifatida qaraladi. Jahon amaliyotida foyda deyilganda ko'pincha biznes samaradorligining tadbir vositasi sifatida qaraladi. Foyda bu daromadlar va xarajatlar farqlanishidagi yuqori o'zgaruvchanlikdir. Ular orasidagi quyi o'zgaruvchanlik esa zararni ifodalaydi.

Daromadlar va xarajatlar moliyaviy natijalarni tavsiflovchi foydani o'lchashga daxldor bo'lgan elementlar hisoblanadai. Daromadlar va xarajatlarni, ya'ni foydani aniqlash va o'lchash - korxonada o'z moliyaviy hisobotini tayyorlashda foydalaniladigan kapital kontseptsiyasi hamda kapitalning saqlanishiga bog'liq bo'ladi.

Daromad va xarajat elementlari quyidagicha aniqlanadi.

Daromadlar - bu hisobot davrida iqtisodiy foydaning aktivlarning oqimi yoki ko'payishi shaklida o'sishi yoki passivlarning qatnashchilarning kapitaldagi omonatlaridan farq etuvchi o'sishiga olib keluvchi kamayishidir.

Xarajatlar - hisobot davrida iqtisodiy foydaning aktivlarning chiqib ketishi yoki ulardan foydalanish shaklida kamayishi, shuningdek, qatnashchilar o'rtasida kapitalning kamayishiga olib keluvchi majburiyatlarning yuzaga kelishidir.

Daromad va xarajatlarni aniqlash ularning asosiy hususiyatlarini belgilaydi, ammo ularni moliyaviy natijalar hisobotida aks ettirishda talab qilinadigan mezonlarni aniqlashni maqsad qilib quymaydi.

Moliyaviy natijalar tahlilida daromad va xarajatlarning o'zaro farqlanishidagi holatga baho beriladi. Moliyaviy natijalar foyda va zararlarining shakllanish qatorlari bo'yicha o'zgarishlari o'rganiladi. Foyda va zararlarining omilli tahlili olib boriladi. Korxonada moliyaviy natijaviylikni yaxshilash yuzasidan ichki imkoniyatlarning mavjudligi va ularni yo'lga quyishning chora va tadbirlari belgilanadi. Korxonaning foydalilik darajaasini tavsiflovchi rentabellik ko'rsatkichi va uning omilli tahlili o'tkaziladi.

Moliyaviy natijalarning shakllanish qatorlariga quyidagilar kiritiladi.

- 1) Asosiy faoliyatdan moliyaviy natija.
- 2) Moliyaviy faoliyatdan natija.
- 3) Favqulodda kutilmagan holatlardan natija.

Moliyaviy natijalarning bu tarkib turkumlanishini xalqaro hisob andozalariga nisbatan berilgan deyish mumkin. Bunda asosiy faoliyat moliyaviy natijalar qatoriga korxonaning mahsulot sotishdan oladigan natijasi, asosiy vositalarni sotishdan oldigan natijasi va boshqa aktivlarni sotishdan oladigan moliyaviy natijasi aks etadi. Davr xarajatlari ulardan chegiriluvchi qator sifatida olinadi.

Moliyaviy faoliyatdan olingan daromad va xarajatlar qatoriga korxonaning moliya bozoridagi faolligidan oladigan daromadlari va mulkiy munosatlardagi ishtirokidan olinadigan daromadlar, erkin almashtiriladigan valyuta resurslarini boshqarishdan oladigan daromadlari, korxonaning moliyaviy faoliyatidan kelib chiqadigan turli harajatlar kiritiladi. Ularning korxonada hisob foydasidagi salmog'i so'ngi yillarda tabora oshib bormoqda.

Favqulodda kutilmagan holatlardan daromadlar va xarajatlar qatoriga korxonaning asosiy va moliyaviy faoliyatidan tashqari, tasodifiy holatlar bo'yicha oladigan daromad va xarajatalari kiritiladi.

Moliyaviy natijalarning shakllanish bo'yicha tahlilni quyidagi jadval malumotlari asosida berish mumkin.

Moliyaviy natijalarning shakllanishi bo'yicha tahlili

| № | Moliyaviy natija | O'tgan yil | Hisobot yili | Farqi (+;-) |
|----|-------------------------------|------------|--------------|-------------|
| 1 | Asosiy faoliyatdan foyda | +12546 | +14523 | +2067 |
| 2. | Moliyaviy faoliyatdan natija | +2534 | +1425 | -1109 |
| 3. | Favqulodda holatlardan natija | -789 | -154 | -635 |
| | Jami hisob foydasi | +14291 | 15794 | +1503 |

Jadval ma'lumotlaridan xulosa qilish mumkinki korxonaning soliq to'loviga qadar bo'lgan foydasi yoki jami foydasi o'tgan yilga nisbatan 1503 ming so'mga o'sgan. Jumladan, asosiy faoliyatdan olingan foyda summasining o'tgan yilga nisbatan o'sishi 2067 ming so'mni tashkil etgan. Ammo, moliyaviy faoliyatdan olingan foyda 1109 ming so'mga kamaygan. Favqulodda kutilmagan holatlardan olingan zarar summasi esa o'tgan yilga nisbatan 635 ming so'mga kam bo'lgan.

Korxonaning faoliyat natijasiga baho berishning asosiy ko'rsatkichlaridan biri rentabellik ko'rsatkichi hisoblanadi.

Rentabellik korxonada foydalilik darajasini tavsiflaydi. Odatda uning bir necha turlari hisob-kitob qilinadi. Bu bevosita mulkning shakli bo'yicha daromadlarning yuzaga chiqish o'rni yoki bazasi bo'yicha, foydaning o'zgarishiga ta'sir etuvchi birliklar bo'yicha yoki mustaqil birliklar bo'yicha aniqlanishi mumkin.

Rentabellikning korxonada iqtisodiyotida quyidagi turlari aniqlanadi:

1. Ishlab chiqarish xarajatalariga nisbatan rentabellik;

$$R = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Ishlab chiqarish xarajatlari}} \times 100\%;$$

ushbu ko'rsatkich bir so'mlik ishlab chiqarish xarajati hisobiga olingan foyda summasi darajasini tavsiflaydi.

2. Asosiy vositalar rentabelligi.

Asosiy vositalar rentabelligi har bir so'mlik yoki ming so'mlik asosiy vosita hisobiga to'g'ri keladigan foyda summasini tavsiflaydi. Ushbu ko'rsatkich sof foyda summasini asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish asosida aniqlanadi:

$$R = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati}} \times 100\%.$$

3. Sotish bo'yicha rentabellik.

Sotish bo'yicha rentabellik sotilgan mahsulotlarning foydalik darajasini tavsiflaydi. Ushbu ko'rsatkich sotishdan olingan yalpi foyda summasini mahsulotlarni sotishdan olingan tushumga bo'lish asosida aniqlanadi:

$$R = \frac{\text{Sotishdan olingan foyda}}{\text{Sotishdan olingan tushum summasi}} \times 100\%.$$

4. Oborot aktivlar rentabelligi.

Ushbu ko'rsatkich oborot aktivlarning har bir so'miga to'g'ri keladigan foyda, sof foyda summasini tavsiflaydi.

Oborot aktivlar rentabelligi olingan sof foyda summasini oborot aktivlarning o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish asosida aniqlanadi:

$$R = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Oborot aktivlar o'rtacha yillik qiymati}} \times 100\%.$$

5. Jami mulk rentabelligi.

Ushbu ko'rsatkich korxonaning mulkining foydalilik darajasini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Bu ko'rsatkich har bir so'mlik mulkka to'g'ri keladigan sof foyda summasini ifodalaydi:

$$R = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Korxonaning mulki jami}} \times 100\%.$$

6. O'z mablag'lari rentabelligi.

Ushbu ko'rsatkich korxonaning o'ziga tegishli bo'lgan mablag'larning foydalilik darajasini tavsiflaydi.

Korxonaning sof foydasini uning o'zlik mablag'lari manbaiga bo'lish asosida o'zlik kapitalining foydalilik darajasi o'rganiladi:

$$R = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Korxonaning o'zlik mablag'lari}} \times 100\%.$$

7. Qarz mablag'lari rentabelligi.

Ushbu ko'rsatkich korxonaning sof foydasini qarzga olingan mablag'lariga nisbati asosida aniqlanadi. Bu ko'rsatkich har bir sumlik qarz mablag'iga to'g'ri keladigan foyda summasini ifodalaydi:

$$R = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Qarz mablag'lari jami}} \times 100\%.$$

8. Asosiy vositalar va moddiy oborot mablag'lari rentabelligi. Ushbu ko'rsatkich sof foyda summasini korxonaning asosiy vositalari va moddiy oborot mablag'lari o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish asosida aniqlanadi. U har bir so'mlik asosiy va oborot mablag'iga to'g'ri keladigan foyda summasini tavsiflaydi:

$$R = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Asosiy va oborot mablag'lari o'rtacha qiymati}} \times 100\%.$$

Rentabellik tahlili

| № | Ko'rsatkichlar | O'tgan yil | Hisobot yili | Farqi (+;-) |
|----|---|------------|--------------|-------------|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| 1 | Mahsulot sotishdan sof tushum, ming so'm | 125987 | 152485 | +26498 |
| 2 | Sotilgan mahsulot tannarxi, ming so'm | 102574 | 135425 | +32851 |
| 3 | Sotishdan olingan foyda, ming so'm | 23413 | 17060 | -6353 |
| 4 | Sof foyda, ming so'm | 2589 | 3125 | +5365 |
| 5 | Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati, ming so'm | 5213 | 5632 | +419 |
| 6 | Oborot mablag'lari o'rtacha yillik qiymati, ming so'm | 8752 | 9521 | +769 |
| 7 | Korxonada mulki, ming so'm | 15562 | 17892 | +4330 |
| 8 | O'zlik mablag'lari, ming so'm | 8542 | 8965 | +423 |
| 9 | Qarz mablag'lari, ming so'm | 2546 | 3212 | +670 |
| 10 | Mahsulot rentabelligi, ming so'm | 18,6 | 11,2 | -7,4 |
| 11 | Asosiy vositalar rentabelligi | 49,6 | 55,4 | +5,8 |
| 12 | Oborot mablag'lar rentabelligi | 29,6 | 32,8 | +3,2 |
| 13 | Ishlab chiqarish tannarxi rentabelligi | 22,8 | 12,6 | -10,2 |
| 14 | O'z mablag'alari rentabelligi | 30,3 | 34,8 | +4,5 |
| 15 | Jami mulkka nisbatan rentabellik | 16,6 | 17,5 | +0,9 |
| 16 | Umumiy rentabellik | 18,5 | 20,6 | +2,1 |
| 17 | Qarz mablag'lari rentabelligi | 101,7 | 97,2 | -4,5 |

Jadval ma'lumotlaridan xulosa qilish mumkinki, korxonada rentabellik ko'rsatkichlari o'tgan yilga nisbatan bir qadar o'sgan. Faqat mahsulot rentabelligi, ishlab chiqarish tannarxi va qarz mablag'alariga nisbatan rentabellik ko'rsatkichlari bo'yicha o'tgan yilga nisbatan pasayish kuzatilgan.

Asosiy vositalar rentabelligi 5,8 % ga, oborot aktivlari rentabelligi (moddiy) 3,2 % ga, o'z mablag'lari rentabelligi 4,5% ga, jami aktivlar rentabelligi 0,9% ga, umumiy rentabellik 2,1 % ga o'sgan.

Rentabellik o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarga tahlilda alohida ahamiyat beriladi. Rentabellik o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni ularda qatnashuvchi birliklarga nisbatan belgilash mumkin. Masalan, mahsulotni sotishga nisbatan rentabellik o'zgarishiga sotishdan olingan yalpi foyda summasining o'zgarishi va sotishdan olingan tushumlar summasining o'zgarishi ta'sir etsa, asosiy vositalar rentabelligiga korxonada sof foydasining o'zgarishi va asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishi, umumiy rentabellikka bir so'mlik tushumga to'g'ri keladigan sof foyda summasining o'zgarishi, asosiy vositalar qaytimining o'zgarishi va moddiy oborot mablag'lar qaytimining o'zgarishlari ta'sir qiladi va h.k.

Rentabellik o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni quyidagi jadval ma'lumotlari asosida ko'rish mumkin.

Asosiy vositalar rentabelligi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili.

| Ko'rsatkich | O'tgan yil | Shartli ko'rsatkich | Hisobot yili | Jami o'zgarish | Shu jumladan | |
|-------------|------------|---------------------|--------------|----------------|----------------|--|
| | | | | | Foyda hisobiga | Asosiy vositalar qiymatini o'zgarishi hisobiga |
| Rentabellik | 49,6 | 59,9 | 55,4 | +5,8 | +10,3 | -4,5 |

Asosiy vositalar rentabelligi o'tgan yilga nisbatan +5,8 foizga o'sgan. Bu o'zgarish quyidagi omillar hisobiga ro'y bergan. Birinchi, foyda summasining o'zgarishi hisobiga rentabellik +10,3 foizga ortgan. Asosiy vositalar o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishi hisobiga rentabellik ko'rsatkichi -4,5 foizga kamaygan.

Mavzuni takrorlash uchun savollar

1. Mahsulot ishlab chiqarish va sotishni tahlil qilishda qanday ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi?
2. Mehnat resurslari harakatini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar nimalardan iborat?
3. Mehnat unumdorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimiga qanday ko'rsatkichlar kiritiladi?
4. Asosiy vositalar qaysi belgilariga qarab tarkiblanadi?
5. Asosiy vositalarni tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimi nimalardan iborat?
6. Rentabellikni qanday turlarini bilasiz?
7. Rentabellikni o'zgarishiga qanday omillar ta'sir etadi?

Mavzuni mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar

Quyidagi tayanch iboralariga tushunchalar yozing

- mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni sotish darajasini tahlilining uslubiy asoslari;
- moddiy aylanma mablag'lardan foydalanish tahlilining uslubiy asoslari;
- erdan foydalanish tahlilining uslubiy asoslari;
- moliyaviy natijalar tahlilining uslubiy asoslari;
- asosiy vositalarni tahlil qilishning uslubiy asoslari;
- rentabellik tahlili.

IX. Iqtisodiy tahlilni manbalar bilan ta'minlash

- 1. Iqtisodiy tahlilning manbalar tizimi va ularning turlari.**
- 2. Iqtisodiy manbalar va ularga qo'yilgan talablar.**
- 3. Tahlil uchun kerakli manbalarni to'g'riligini tekshirish.**
- 4. Manbalarni kompyuterda qayta ishlash.**

1. Iqtisodiy tahlilning manbalar tizimi va ularning turlari

Korxonalarni to'g'ri va oqilona boshqarish uchun turli-tuman ma'lumotlar tizimidan foydalanish zarurki, ular orqali to'g'ri boshqaruv qarorlari qabul qilinishi mumkin. Ma'lumotlardan foydalanish iqtisodiy hodisalar, voqealar va xo'jalik jarayonlarini tegishli manbalar orqali aks ettirish, ularni qayta hisoblash va o'rganish hamda is'temolchilarga uzatish tushuniladi.

Tahlil uchun kerakli bo'lgan ma'lumotlarni mazmuniga qarab quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- iqtisodiy ma'lumotlar;
- huquqiy-me'yoriy ma'lumotlar;
- ilmiy-texnikaviy ma'lumotlar;
- tabiiy-ekologik ma'lumotlar;
- boshqa ma'lumotlar.

Iqtisodiy ma'lumot manbalarini biznes reja, turli xil axborotlar, texnologik ma'lumotlar, tezkor-texnik, me'yoriy va hisob hujjatlari tashkil etadi. Bu manbalar tahlilda eng ko'p foydalaniladi.

Huquqiy-me'yoriy ma'lumot manbalari respublikamizda amal qilayotgan barcha qonunlar, me'yoriy hujjatlarda rasmiylashtirilgan axbarotlardan tashkil topadi.

Ilmiy-texnikaviy ma'lumotlar esa eng yangi taraqqiyot to'g'risidagi, jahondagi o'zgarishlar, fan va texnika yutuqlarini o'zida mujassam etgan axborotlardir. Bu axborotlar tahlil uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Tabiiy-ekologik ma'lumotlar ekologik tasnifdagi axbarotlardir.

Boshqa manbalarga esa, iqtisodiy, huquqiy, ilmiy- texnikaviy, tabiiy-ekologik manbalarda aks etmagan ma'lumotlar tushunilib, bunga ommaviy axborot vositalari, ro'znoma va oynomalardagi, radio va televideniya'dagi keltirilgan axborotlardan foydalanishlar kiradi.

Ko'plab manbalarni tahlil jarayonlarida qo'llash ularning mazmunini boyitishga, boshqaruv qarorlarini xolisona bo'lishini va korxonalarni bozor iqtisodiyoti sharoitida faol qatnashishiga imkon yaratadi.

2. Iqtisodiy manbaalar va ularga qo'yilgan talablar

Iqtisodiy manbaalar boshqa axborotlardan quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

Hujjatlashganligi - barcha iqtisodiy hodisa va jarayonlar sodir bo'lishi bilan tegishli boshlang'ich hujjatlarda qayt etiladi hamda axborot sifatida rasmiylashadi.

Turli-tumanligi. Hodisa va voqealar ko'pgina manbalarda qayt etilib, hajmi, mazmuni, shakli jihatidan bir- biridan farqlanadi.

Ommaviyligi va hajmining kengligi. Ko'pgina iqtisodiy axborotlar tegishli shaklga ega bo'lganligi, hisobot shakllarining yuqori organlar tomonidan tasdiqlanilganligi ularni tushunishni, bilishni osonlashtiradi.

Ma'lum davrlarda takrorlanib turishligi. Tasdiqlangan me'yoriy hujjatlar muntazam to'lg'azilib tegishli tashkilotlarga topshiriladi, hisobot davrlari-choraklar, yarim hamda yillik muddatlarga bo'linib axborotlar tuziladi.

Qonunlashganligi va chegaralanganligi. Barcha iqtisodiy axborotlar davlat tashkilotlari, moliya vazirligi, makroiqtisod vazirligi va soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan shakllarga asoslanib tuziladi. Bozor iqtisodi sharoitida korxonalar uchun muhim sanalgan ayrim ma'lumotlar boshqalar uchun maxfiy bo'lib, faqat egasining ruxsati bilan e'lon qilinishi mumkin.

Ko'p qirraliligi va sermazmunligi. Iqtisodiy axborotlar miqdoriy va qiymat o'lchamlarida ko'rsatiladi, boshlag'ich hujjatlarda korxonalar nomi, imzo chekuvchilarning nasl- nomasi, davri va mahsulotlarning turlari ko'rsatilgan holda rasmiylashadi.

Iqtisodiy ma'lumotlarni aksariyat qismini hisob axborotlari tashkil etib, buxgalteriya, statistika va tezkor hisoblar majmuidan iboratdir.

Tahlil uchun kerakli manbalar quyidagi talablarga mos kelishi lozim:

Haqqoniylik va xolislik tamoyiliga amal qilinadi.

Manbalar tahlil qilinishi uchun keng imkoniyatli bo'lmog'i lozim, ya'ni reja, hisob va statistik malumotlar hodisa va jarayonlar mazmunini to'liq yoritishi, talab qilingan vazifalarni bajarishi kerak.

Iqtisodiy hodisa va voqealarni ifodalovchi manbalar aniq o'lchamda aks ettirilishi lozim.

Barcha manbalarning umumiy birligi va uzviy bog'liqligi saqlaniladi hamda ulardagi axborotlar bir-birini to'ldirib turilishini taqozo etadi.

Manbalarga kiritilgan ko'rsatkichlarni aniqlanish tamoyillari va aks ettiriladigan davrlar mosligi zarurdir va hokazolar.

Yuqoridagi talablarga javob beruvchi barcha axborotlar tahlilning aniq bajarilishi, sermazmun bo'lishiga imkon yaratadi.

3. Tahlil uchun kerakli manbalarning to'g'riligini tekshirish

Iqtisodiy tahlilda foydalaniladigan barcha manbalarni ishonchligini, aniqliligini va to'g'riligini tekshirish natijalarni samarali bo'lishiga zamin yaratadi. Kerakli manbalarning turli-tumanligi, sermazmunliligi va ko'pligi ularning sifatli shakllanishiga e'tiborni qaratilishni taqozo etadi. Barcha yig'ma ma'lumotlarni har tomonlama to'g'riligini tekshirishda quyidagi usullar qo'llaniladi:

- texnik tekshirish usuli;
- mazmunan tekshirish;
- huquqiy jihatdan tekshirish.

Texnik tekshirish axbarot manbalarini arifmetik jihatidan to'g'riligini, rasmiylashtirish qoidalariga rioya qilinganligi va ko'rsatkichlarning bir-biriga mosligini e'tiborga olgan holda o'rganishdir.

Mazmun jihatidan tekshirish ma'lumotlarning haqqoniy ekanligi, unda aks ettirilgan raqamlarning haqiqatda asoslanganligini, aniqlashni o'z ichiga oladi. Bunday tekshirish o'z ichiga buxgalteriya hisobining boshlang'ich hujjatlarida keltirilgan raqamlarni inventarizatsiya o'tkazish orqali taqqoslash, sanab ko'rish va o'lchash yo'li bilan to'g'riligiga ishonch hosil qilishdir.

Ayniqsa, yillik moliyaviy hisobot ma'lumotlarini mazmunan tekshirish tahlil ishlarini samarali o'tishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy hisobotning turli shakllaridagi ma'lumotlarni bir-biriga mosligini o'rganish quyidagi jadvalda keltirilgan.

25-jadval

Moliyaviy hisobot ma'lumotlarini bir-biriga mosligini tekshirish.

| Ko'rsatkichlar | Birlamchi | | | Ikkilamchi | | | Mosligi |
|---|--------------|-------|-------|--------------|-------|-------|---------|
| | Shakl raqami | Satri | Summa | Shakl raqami | Satri | Summa | |
| A | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 |
| Asosiy vositalar: Boshlang'ich qiymat. | 1 | 010 | 71000 | 3 | 130 | 71000 | Mos |
| Eskirish qiymati. va boshqalar | 1 | 011 | 44500 | 3 | 130 | 44500 | Mos |
| Ustav kapitali | 1 | 320 | 80000 | 5 | 080 | 80000 | Mos |
| Taqsimlanma-gan foyda va hokoza. | 1 | 350 | 45000 | 5 | 080 | 45000 | Mos |

Shunday tartibda debetorlik va kreditorlik qarzlarni, pul mablag'lar harakatini va boshqa ma'lumotlarni mazmunan, miqdoran to'g'riligini tekshirish mumkin.

Huquqiy tekshirishda har bir ko'rsatkichni amaldagi me'yoriy hujjatlar talabi asosida hisoblanganligiga e'tibor qaratiladi. Ya'ni, mazmun bilan shakl mosligi o'rganiladi.

4. Manbalarni kompyuterda qayta ishlash

Tahlil uchun kerakli ma'lumotlarning aniqligini va tez muddatda tayyorlashning eng aniq yo'llaridan biri ularni EHM lar yordamida qayta ishlash hisoblanadi.

Kompleks avtomatlashgan sharoitda tahlil uchun kerakli ma'lumotlardan foydalanish ma'lum darajada keng imkoniyatlarga ega:

- boshlang'ich hujjatlar - hisob, statistika, me'yoriy ma'lumotlar EHMning xotirasiga joylanib faqat bir xil manba ya'ni, mashina xotirasiga olinadi;
- tahlil uchun kerakli turli murakkab hisoblashlar o'ta qisqa davrlarda bajariladi;
- ta'sir etuvchi omillarni EHMLar aniq ko'rsatib beradi;
- tahlil uchun kerakli ma'lumotlar va tahlil natijalari belgilangan shaklda ifodalanadi;
- turli xil iqtisodiy ma'lumotlar EHMLar uchun bir xil shifr va kodlarda kiritiladi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasida ko'rinmoqdaki tahlil ishlarini avtomatlashtirilgan tarzda olib borilishi o'zining bir qator afzalliklariga ega.

Mavzuni takrorlash uchun savollar

1. Iqtisodiy tahlilni manbalar tizimi nimalardan iborat?
2. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan ma'lumotlar mazmuniga ko'ra qanday turlarga ajraladi?
3. Iqtisodiy ma'lumotlar qaysi jihatlari bilan boshqa ma'lumotlardan farq qiladi?
4. Ma'lumotlar qaysi usullar bilan tekshiriladi?
5. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan ma'lumot manbalari qanday talablarga javob berishi kerak?

Mavzuni mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar

Quyidagi tayanch iboralariga tushunchalar yozing

- tahlil uchun zarur axborotlar va ularning turlari;
- iqtisodiy axborotlar;
- ilmiy-texnikaviy axborotlar;
- tabiiy-ekologik axborotlar;
- tahlil uchun kerak bo'lgan axborotlarga qo'yilgan talablar va ularni to'g'riligini tekshirish;
- buxgalteriya hisobi axborotlari.

X. Iqtisodiy tahlilni bozor iqtisodiyoti sharoitida tashkil qilish

- 1. Korxonalarda iqtisodiy tahlil o'tkazishning tartibi va bajarilishi.**
- 2. Iqtisodiy tahlilni tashkil etish bosqichlari.**
- 3. Tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish.**
- 4. Avtomatik boshqarish tizimi sharoitida iqtisodiy tahlilni tashkil etishning hususiyatlari.**

1. Korxonalarda iqtisodiy tahlil o'tkazishning tartibi va bajarilishi

Bozor munosabatlari sharoitida har qanday xo'jalik yurituvchi sub'ekt o'z tasarrufidagi barcha moliyaviy, moddiy va mehnat resurslari harakatini hamda ulardan foydalanish samaradorligini to'g'ri boshqarishni ta'minlashi zarur bo'ladi.

Bugungi kunda korxonalaridagi boshqaruv sub'ektlariga faqat axborotga ega bo'lishning o'zigina kifoya qilmaydi. Bu axborotlar bilan ishlash, to'g'ri xulosalar chiqarish va ulardan ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida foydalanish zarur bo'ladi. Samarali boshqarishda eng muhimi axborot va undan foydalana bilishdir.

Iqtisodiy axborotlar bilan ishlashning eng muhim jihatlaridan biri uni tahlil qilishdir. Tahlil davomida xo'jalik faoliyatini o'rganishda hamda xulosalar chiqarishda asos bo'ladigan bir qator ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Korxonada iqtisodiy-moliyaviy ahvolini tahlil qilish bilan shug'ullanayotgan har bir xodim korxonaning boshqaruv va moliyaviy hisobot shakllarini erkin o'qishni, uning moddalarini tushunishni, shuningdek, xulosalar chiqarish va tavsiyalar berishni bilishi kerak.

Korxonalarda iqtisodiy tahlilni tashkil etish ixtiyoriylik va amaliyotdagi tajriba hamda talabdan kelib chiqqan holda tashkil etiladi. Tahlilni tashkil etishda o'rganiladigan mavzularning ko'lemi va ahamiyatiga qarab iqtisodchilar bilan bir qatorda korxonaning barcha mutaxassislari hamda oddiy ishchisigacha ishtirok etishlari mumkin bo'ladi.

Iqtisodiy tahlilni tashkil etishning zaruriyati hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida yanada ortadi. Chunki, har bir faoliyatning korxonaga uchun manfaatlilik darajasini aniqlash, bu faoliyatning iqtisodiy nuqtai nazaridan to'g'ri tashkil etilganligiga baho berish tahlil vositasida amalga oshiriladi. Iqtisodiy tahlilni korxonada miqyosida to'liq tashkil etishga bevosita javobgar korxonada boshqaruvchisi, rahbarning iqtisodiy masalalar bo'yicha o'rinbosari, iqtisodchisi yoki bosh hisobchisi bo'lishi mumkin.

Korxonalarda tsex yoki brigada ma'lumotlari bo'yicha iqtisodiy tahlilni, shu bo'lim boshliqlari va hisobchilari tashkil etishlari kerak bo'ladi.

Viloyat, tuman yoki tarmoqlar bo'yicha ma'lumotlarni umumlashtirib iqtisodiy tahlilni o'tkazishga istiqbolni belgilash va statistik tashkilotlari yoki yuqori tashkilotlar tarkibida tashkil etilgan iqtisodiy kengashlar ish yuritadilar.

Boshqaruvning hamma bo'g'inlarida umumiy ishlab chiqarish sohasini samaradorligini oshirishda analitik ishni tashkil etish va iqtisodiy tahlilning roli oshib bormoqda. Ushbu holatdan kelib chiqib iqtisodiy tahlil tashqi va ichki tahlil turlariga bo'linadi.

Korxonalar va birlashmalarni ishlab chiqarish xo'jalik faoliyatining tashqi tahlilini quyidagilar olib boradilar:

- boshqaruvning yuqori organlari;
- moliya organlari;
- bank tashkilotlari;
- soliq organlari va boshqalar.

Yuqori boshqaruv organlari o'z nazorati ostidagi korxonalar va uyushmalarning ishlab chiqarish faoliyatini doimiy ravishda tahlil qilib turishadi. Buning uchun esa reja va hisobot ma'lumotlari, tekshiruv natijalari va boshqa ma'lumotlar kerak bo'ladi.

Bank muassasalari doimiy ravishda kredit olgan korxonalar va birlashmalarning ish faoliyatini, ulardagi asosiy va sifat ko'rsatkichlarini tahlil qilib turadi. Korxonalarda bank kreditlarining ishlatilishini, mehnat haqi fondini, to'lov intizomi holatini tahlil qilib o'rganadi.

Iqtisodiy tahlil ishlarini korxonalar va birlashmalar olib borishi bilan bir qatorda boshqa tashkilotlar ham olib borishi mumkin: Bularga;

- rejalashtirish tashkilotlari;
- ilmiy tadqiqot va loyihalashtirish institutlari;
- jamoat tashkilotlari;
- matbuot organlari kabilar kiradi.

Ichki tahlilni esa korxonalar va birlashmalarni ishchi xodimlari olib boradilar va ularning turli tarkibiy bulinmalari o'zlariga tegishli funktsiyalarni belgilab oladilar. Iqtisodiy tahlil ko'p qirraliligi bilan ajralib turadi. Korxonani barcha faoliyatida mavjud bo'lgan rezervlarni izlab topish, majburiyatlarni aniq bajarilishi va uni amalga oshirishda ma'suliyatni his etish lozim bo'ladi.

2. Iqtisodiy tahlilni tashkil etishning bosqichlari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida analitik ishlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan uni qanday tashkil etilganligiga va rejalashtirishga bog'liqdir. Odatda analitik ishlarda nafaqat korxonani boshqaruv tarkibi, balki boshqaruvning funktsional organlari, jamoatchilik a'zolari hamda mehnat jamoasigacha qatnashishi mumkin bo'ladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodiy tahlilni tashkil etishning quyidagi bosqichlari keltirib o'tilgan:

Tahlil o'tkazishning rejasi va dasturini tuzish bosqichi. Iqtisodiy tahlilning dasturi va rejasini tuzib olish tahlilni tashkil etishning asosiy qismidir. Bu bosqichda iqtisodiy tahlil ishlari nimadan boshlanishi, tahlil o'tkazuvchi komissiyaga kimlar kiritilishi hamda tahlil ishlari nima bilan yakunlanishi ko'rsatib o'tiladi. Bundan tashqari iqtisodiy tahlil o'tkazish dasturida quyidagilar aniq ko'rsatilgan va belgilanib olingan bo'lishi lozim:

- tahlilning maqsadi va vazifasini aniqlash;
- tahlil ob'ektini aniqlash;
- iqtisodiy tahlil ishlarini olib borish joyi;
- tahlil mazmunini izohlash;
- ijrochilarni tarkibi va ularning vazifalarini belgilash;
- tahlil utkazish muddatini belgilab olish;
- tahlil manbalari va ularni natijalarini rasmiylashtirish tartibini aniqlab olish.

Tahlil uchun kerakli bo'lgan manbalarni aniqlash hamda hisoblanadigan ko'rsatkichlarni belgilash. Ushbu bosqichda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- tahlil uchun zarur ma'lumotlarni aniqlash;
- tahlil manbalarini aniqlash;
- qo'shimcha ma'lumotlarni jalb etish;
- to'plangan manbalarning to'g'riligini tekshirish hamda ishonchligini aniqlashdan iborat bo'ladi.

Ushbu manbalar tahlil uchun moslashtiriladi. Bundan tashqari mazkur bosqichda quyidagilar aniqlanib olinadi:

- tahlil usullarini aniqlab olish;
- ma'lumotlarni soddalashtirish;
- jadval, sxema va maketlarni tuzish;
- ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;
- rezervlarni aniqlash.

Iqtisodiy tahlil bosqichi. Bu eng muhim bosqich bo'lib, bevosita tahlil ishlari bajariladi, ko'rsatkichlar hisoblanadi, o'zgarish sabablari va farqlar aniqlanadi. Ushbu bosqichda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- mezon ko'rsatkichlarini aniqlash;
- ko'rsatkichlarni hisob-kitob qilish hamda natijalarni baholash;
- baholashda ekspertizadan foydalanish;
- natijalarni umumlashtiruvchi mezonlar;
- tahlil natijalarini xulosaga tayyorlash.

Tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish bosqichi. Bu bosqichda o'rganilayotgan iqtisodiy jarayon yakunlanadi va ma'lum bir o'zgarishlarga baho beriladi hamda tahlilga yakun yasaladi. Bundan tashqari ushbu bosqichda ham quyidagi ishlar amalga oshirilishi lozim bo'ladi:

- korxonada faoliyatini natijalarining o'zgarish sabablarini aniqlash;
- korxonada faoliyatini yaxshilash rezervlarini jamlash;
- aniqlangan rezervlardan foydalanish tadbirlarini belgilash;
- tahlil natijalarini hisoblash va hisobotda ifodalash.

Tahlil natijasida ilg'or g'oya va tajribalarni amaliyotda qo'llash shart-sharoitlarini ko'rsatib

berish hamda ularni amaliyotga tadbiiq etish bosqichi.

Korxonalar faoliyatini tahlil qilish davomida ko'plab manbalardan foydalanishga to'g'ri keladi. Tahlilda qo'llaniladigan manbalarni quyidagi bosqichlarga ajratishimiz mumkin bo'ladi:

- reja ma'lumotlari manbalari;
- hisob va hisobot ma'lumotlari manbalari;
- qo'shimcha ma'lumotlar manbalari.

Reja ma'lumotlari manbalari tarkibiga biznes reja ko'rsatkichlari, belgilangan limitlar, belgilangan me'yor va me'yorlar, shartnoma ko'rsatkichlari kiradi.

Hisob va hisobot ma'lumotlari manbalariga buxgalteriya hisobi va hisoboti ma'lumotlari, statistik hisob va hisobot ma'lumotlari, tezkor hisob va hisobot ma'lumotlari kiradi. Tahlilning asosiy ma'lumotlar manbai bu buxgalteriya hisobi va hisoboti ma'lumotlari bo'lib, ular korxonada xo'jalik faoliyatining barcha jarayonlarini o'z ichiga oladi. Bunda mablag'lar harakati, ularning manbalari, ularning xo'jalik aloqalari aks etadi.

Buxgalteriya balansida mablag'lar, ularni manbalarining joylashishi va hosil bo'lish manbalariga qarab ifodalanadi.

Statistik hisob va hisobot ma'lumotlari tahlil uchun asosiy manba bo'lib hisoblanadi. Bu hisobotda hodisa va jarayonlarning jami ko'rsatiladi, ularni miqdor jihatdan xarakterlaydigan muayyan iqtisodiy qonunlarni aniqlaydigan tarzda aks ettiriladi.

Tezkor hisob va hisobot ma'lumotlari buxgalteriya hisobi va hisoboti ma'lumotlariga va statistik hisobot ma'lumotlariga nisbatan zarur informatsiyani bir muncha tezroq olishga imkon beradi.

Iqtisodiy tahlilni yanada chuqurroq amalga oshirish uchun hisob ma'lumotlariga taalluqli bo'lmagan, ya'ni qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanish lozim bo'ladi. Bunday ma'lumotlar tarkibiga bank, moliya, soliq inspektorlari tomonidan tuzilgan dalolatnoma, inspektorlarning taqdim etgan ma'lumotlari, auditor xulosalari, radio va televideniya ma'lumotlari, ommaviy axborot vositalari manbalari, ishchi va xizmatchilar bilan bo'lgan muloqot natijalari kiradi.

3. Tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish

Odatda tahlil ma'lumotlari va ularni natijalari uni kim va nima maqsadda o'tkazilganligiga qarab turli shaklda umumlashtirilishi mumkin. Korxonalar va tashkilotlarni xo'jalik faoliyati tahlilining natijalari analitik mavzular yoki xo'jalikni yillik hisobotiga ilova qilinadigan bayonnoma ko'rinishida ifoda etiladi.

Tahlil natijalarini umumlashtirish va yakunlash qaysi turdagi tahlilni o'tkazganligimizga qarab bajariladi. Masalan, korxonalarining yillik hisoboti asosida o'tkazilgan joriy tahlilning yakuni, umumiy xulosalar yozish va yuqori tashkilotlarga tushuntirish xati tuzish orqali yakunlanadi. Ayrim turdagi boshqa tahlil turlarining natijalari esa mutaxassislarni ma'ruzasi, korxonalar rahbarining buyrug'i, jamoaning majlis bayoni, taftish komissiyasining dalolatnomalari orqali umumlashtirilishi mumkin.

Tahlil natijalarini umumlashtirganda albatta erishilgan natijalar, yo'l qo'yilgan kamchiliklar hamda yutuqlar aniq raqamlarda va faktlar bilan ko'rsatilgan bo'lishi talab etiladi. Shuningdek, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tuzatish chora-tadbirlari, ya'ni takliflar ham ko'rsatiladi.

Iqtisodiy tahlil natijalarini rasmiylashtirish va umumlashtirishga korxonalarining umum majlis moddiy aylanmalari, turli xil diagramma, jadval va grafiklar tuzib mehnatkash ommaga ko'rsatma sifatida osib qo'yish, oynoma va ro'znoma sahifalarida ma'lumotlarni chop etish, axborot taxtasida ko'rsatkichlarni e'lon qilib borish ham hisoblanadi.

Analitik yozuv korxonalar va tashkilotlarni xo'jalik faoliyati yakunlari bo'yicha yillik yoki choraklik hisobotiga tushuntirish xatlari, yuqori tashkilotlarni ularga bo'ysinuvchi tashkilotlar xulosalari kabi bo'ladi.

Tushuntirish xati rejani bajarilishi haqidagi umumiy tavsifnoma va ko'rsatkichlarni avvalgi davrlarga nisbatan o'zgarganlik ma'lumotlaridan boshlanadi. So'ngra natijaning rejadan tafovuti sabablari, ayrim omillarning o'zaro bog'lanishi va ularning xo'jalik faoliyati ko'rsatkichlari ifodalanadi.

Analitik hisob - kitoblar analitik jadvallar ko'rinishida rasmiylashtiriladi. Ularni har biriga xulosalar va ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligini ifodalab beruvchi matnli ilovalar beriladi.

Bayonnomaning xotima qismida xulosalar, aniqlangan kamchiliklarni to'zatishtirish yo'l-yo'riqlari, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga doir rezervlardan foydalanish yuzasidan aniq takliflar bayon qilinadi. Bayonnoma tushunarli, ilmiy asoslangan, ixcham, analitik jadvallar bilan bog'langan bo'lishi kerak bo'ladi.

4. Avtomatik boshqarish tizimi sharoitida xo'jalik faoliyatini tahlil etishning xususiyatlari

Xo'jalik faoliyatini avtomatik boshqarish tizimi sharoitida tashkil etish deyilganda, elektron hisoblash mashinalari yordamida va iqtisodiy matematik usullarini qo'llagan holda ishlab chiqarishning muhim sohalarini aniq va to'g'ri boshqarish vazifalarini amalga oshirish maqsadida tashkil etish tushuniladi. Buni amalga oshirish uch xil yo'nalishda bo'lishi mumkin, ya'ni:

- markazlashgan;
- markazlashmagan;
- aralash.

Avtomatik boshqarish tizimi sharoitida xo'jalik faoliyatini tahlil etishni amalga oshirishda quyidagi tamoyillarga amal qiladi:

- aniq maqsadga ega ekanligi, tizimlashganligi;
- kompleksliligi;
- ixchamlashganliligi;
- uzluksizlik va muntazamlilik;
- taqqoslanish imkoniyatining kengligi;
- echim loyihasining aniq va ixchamliligi.

Avtomatik boshqarish tizimi sharoitida tahlil etish quyidagicha bajariladi:

- qayd etish;
- boshlang'ich ma'lumotlarni yig'ish va uzatish;
- umumiy ma'lumotlar bazasini tashkil etish;
- ko'rsatkichlar algoritmi bo'yicha ma'lumotlarni qayta ishlash;
- iste'molchilar uchun kerakli ma'lumotlarni tayyorlash.

Mavzuni takrorlash uchun savollar

1. Korxonalarda iqtisodiy tahlil qanday tartibda o'tkaziladi?
2. Iqtisodiy tahlil ishlarini kimlar olib borishi mumkin?
3. Iqtisodiy tahlil ishlarini tashkil etish bosqichlari?
4. Tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish qanday amalga oshiriladi?

Mavzuni mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar

Quyidagi tayanch iboralariga tushuntirishlar yozing

- korxonalar va firmalarda iqtisodiy tahlilni tashkil qilish;
- tahlilni tashkil etish bosqichlari;
- tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish;
- iqtisodiy tahlil kengashi.

XI. Avtomatlashtirilgan boshqarish tizimida iqtisodiy tahlil

- 1. Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimida iqtisodiy tahlilning roli va o'рни.**
- 2. Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimida iqtisodiy tahlilning tashkil etish tamoyillari va mazmuni.**
- 3. Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimida analitik masalalar tasnifi.**
- 4. Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimida iqtisodiy tahlilning rivojlantirish istiqbollari.**

1. Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimida iqtisodiy tahlilning roli va o'рни

Ijtimoiy ishlab chiqarishda korxonada faoliyatini avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimida iqtisodiy tahlil qilish - bu iqtisodiy tahlil ishlarini amalga oshirishning avtomatlashtirilgan shaklidir. Mazkur tizim tegishli ob'ektning maqbul boshqarish uchun zamonaviy texnik vositalardan foydalaniladigan, boshqaruv jarayonlari modellarini tuzadigan, ularni o'lchash va baholash usullarini ishlab chiqadigan, mutaxassislar yordamida faoliyat ko'rsatadigan inson-mashina tasnifidagi yaxlit mexanizmdir.

Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimida boshqaruv mutaxassislari, zamonaviy texnik vositalar va usullar, uning faoliyat ko'rsatishida, o'z oldiga qo'ygan vazifalarni hal qilishda muhim rol uynaydi.

Inson ABTning ishini tashkil etadi, maqsad qo'yadi, vazifalarni belgilaydi, faoliyat dasturlarini tuzadi, natijalarni baholash mezonlarini ishlab chiqadi hamda boshqaruv funktsiyasini ijro etish usulini takomillashtiradi.

Zamonaviy texnik vositalar(turli HMIlari, aloqa vositalari va boshqa vositalar), boshqaruv usullari bilan birgalikda kuchli va zaruriy qurol hisoblanib boshqaruv faoliyatini tezlashtirish, kengaytirish, chuqurlashtirishga imkon berib, uni sifat jihatdan yuqori bosqichga ko'taradi.

Boshqariladigan ob'ektlarning zamonaviy modeli ABT ning tarkibiy elementi sifatida boshqariluvchi ob'ektlarning mohiyati va mazmunini ochib berishda, undagi o'zgarishlarni o'lchash usullarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. U o'z ichiga mantiqiy so'zlar va matematik ifodalarni oladi; ular boshqaruv ob'ektda bir-biriga bog'liq elementlarni ifodalaydi; ko'rsatkichlar tuzilmasini qurilishi va tuzilishi; xo'jalik faoliyati mohiyati va natijalarini aks ettiradi; ularni rivojlantirishning maqsadi va mezonlarini ifoda etadi.

Amaldagi modellarni takomillashtirish, birinchi navbatda, ishlab chiqarishni boshqaruv sohalarida qo'llaniladigan nazariy va amaliy fanlar rivojlanishiga va ularning yutuqlarini modellar konstruksiyasi tuzishda tadbir etilishiga bog'liq.

Modellarga boshqaruv usullarini joriy etish,ular jumlasiga boshqaruv funktsiyasi usuliyoti, ya'ni tahlilni kiritish zaruriy shartdir. Chunki, u modellar bilan birgalikda avtomatlashtirilgan boshqaruv tizilmasining usuliy ta'minotini tashkil etadi.

Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimidagi zamonaviy texnik vositalar, modellar va boshqaruv usullari iqtisodiy tahlilning funktsiyalarining imkoniyatlarini to'la amalga oshirishga imkon yaratadi. Bu holatda, ko'p variantli masalalar ichidan eng maqbul echim oson topiladi,ichki xo'jalik rezervlari to'la ochib beriladi, ularni tez o'zlashtiradi,rezjalarni bajarishda yuzaga kelgan holatlarni o'z vaqtida aniq baholaydi, bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, o'z faoliyatini boshqaruv funktsiyalari bilan bog'laydi. Bularning barchasi avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi da tahlil funktsiyasi samaradorligi va rolini oshiradi.

Hozirgi davrda analitik vazifalar avtomatlashtirilgan boshqaruv tizilmasining kichik tizilmalar tarkibiga kiritib yuborilgan. Ular kichik tizimlar nomlanishida goho yozilmaydi, goho yoziladi. Masalan, "Iqtisodiy rejalashtirish va tahlil", "Buxgalteriya hisobi va tahlil" va shu kabilar.

Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimining tarkibidagi kichik tizimlarida xo'jalik faoliyati tahlili tushunchasiga markazlashgan tarzda yondashish kutilgan natijalarni bermaydi. Kichik

tizimlar ichida analitik masalalarni lokal tarzda avtomatlashtirish ularni usuliy jihatdan umumlashtirish, mantiqiy, muddat va informatsiya texnologik aloqasi, bir xil analitik hisoblar va bir xil turdagi ma'lumotlarni ko'plab kiritish kabi ishlarda kamchiliklar borligini namoyon etadi va bu ma'lumotlarni bir tizimda qayta ishlash hamda tahlilni kompleks o'tkazishda uning rolini susaytiradi. Tahlilni "Buxgalteriya hisobi va tahlil" tizimi bilan birlashtirish esa uning tezkorligiga hamda yoppasiga o'tkazilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu tartib faqatgina buxgalteriya ma'lumotlarini kiritish va ularni qayta ishlab, asosan iqtisodiy jarayonlarni natijalarini aks ettirishga yunaltirilgandir. Bundan tashqari kichik tizimlar ishlanayotgan paytda analitik masalalar tahlil nuqtai nazaridan qaralmaydi. Shu sababli barcha avtomatlashgan ishlar ichida uning qismi 15-20%dan oshmaydi.

Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimining rivojlanishi va uni yanada takomillashtirish xo'jalik faoliyati tahlili funktsiyasini avtomatlashtirishni talab etadi. Shu sababli "Kompleks iqtisodiy tahlil" nomli alohida funktsional kichik tizimli avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi paydo bo'ldi. Uning bu tartibdagi faoliyati boshqarishning texnologik jarayonlarida va masalalarni echimiga tizimli yondashishda tahlil funktsiyalari rolini oshirishga qaratilgandir. Bu kichik tizim avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimida quyidagi afzalliklarni namoyon etadi:

- xo'jalik faoliyatida ro'y bergan ijobiy yoki salbiy holatlarning sabablarini aniq bilishga imkon yaratadi;
- boshqariladigan ob'ektga ularning miqdor va sifat tomonidan ko'rsatgan ta'sirini aniqlaydi;
- boshqaruv tizimining yanada samarali ishlashga o'tkazish uchun yangi variantlar topiladi;
- eng asosiysi tahlil yordamida xo'jalik faoliyatini yanada yaxshilashning qo'shimcha imkoniyatlari aniqlanadi.

Tahlil boshqaruv funktsiyasi sifatida boshqaruv tizimi bilan birgalikda bir maqsadga qaratilgan, shu tufayli boshqa boshqaruv funktsiyalari bilan chambarchas bog'langan. Masalan, rejalashtirish bilan uni ilmiy asoslangan holda ishlab chiqishda bir tomondan, boshqa tomondan esa rejaning bajarilishi uchun tahlil muhim vosita hisoblanadi. Buxgalteriya hisobi tahlilni boshqariladigan ob'ekt holati haqida zarur ma'lumotlar bilan ta'minlaydi. Boshqaruvning eng maqbul qarorlarini qabul qilishda va ishlab chiqarishda analitik ma'lumotlar tahlil natijasida olinadi. Demak, boshqaruv ob'ektiga tizimli yondashish avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi strukturasi va mazmuni uning tarkibida mustaqil «Kompleks iqtisodiy tahlil» kichik tizimi alohida tarzda faoliyat ko'rsatishni talab etadi.

2. Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimida iqtisodiy tahlilni tashkil etish tamoyillari va mazmuni

Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimida «Kompleks iqtisodiy tahlil»ni tashkil qilish tizimdagi barcha umumiy tamoyillarga asoslanadi. Bu bilan informatsion, matematik, texnik va tashkiliy masalalar usuliy jihatdan to'g'ri hal qilinadi hamda tizilma elementlarining o'zaro aloqasi va boshqa kichik tizimlar bilan bog'liqligi ta'minlanadi.

Ularga quyidagi tamoyillarni misol qilib ko'rsatishimiz mumkin:

- Tizimli yondashish. «Kompleks iqtisodiy tahlil» tizimi avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimining muhim tarkibiy qismi, ayni paytda o'z elementlaridan tashkil topgan mustaqil faoliyat ko'rsatib tahlil funktsiyasini maqbul shaklda bajaruvchi tizim deb qaraladi;
- To'xtovsiz rivojlanish tamoyili. Mazkur tamoyil an'anaviy usuldagi barcha nazariy va amaliy tomonlarga matematik, mantiqiy, texnik, texnologik, tashkiliy, usuliy jihatlar va boshqa shu kabilar) tinimsiz yangi sifat jihatdan takomillashgan o'zgarishlarni tadbiq etib borilishga asoslanadi.
- Ma'lumotlarni kiritish va chiqarishni minimallashtirish tamoyili. Uning mohiyati ma'lumotlarni ortiqcha kiritish, qayta ishlash va chiqarish masalasidagi kamchiliklarni bartaraf etishdir. Iqtisodiy tahlil tizimi boshqa tizimlardan farqi tahlil uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni oladi, qayta ishlaydi va foydalanishga tahlil natijalarini chiqarib beradi, qaysiki ular asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilinadi.
- Funktsional va dasturiy yondashishning bog'liqligi. Mazkur tamoyilga amal qilish faqatgina tahlilning funktsional vazifalarini hal qilib qolmasdan, balki kompleks dasturlarni bajarishni ham nazarda tutilishini ta'minlaydi.

«Kompleks iqtisodiy tahlil»ni tashkil etishda sanab o'tilgan asosiy umumtizmaviy tamoyillar bilan birgalikda uning avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimida tutgan o'rnidan, vazifasidan kelib chiqadigan o'ziga xos tamoyillarini ham hisobga olish zarur. Ulardan eng muhimlarini ko'rib chiqamiz:

- Avtomatlashgan analitik hisob-kitoblarni maqsadga muvofiqligi. Mazkur tamoyil mehnat talab qiladigan hisob-kitoblarni, ularning shakllantirilish ishlarini EHMga yuklatilishi, qolgan barcha ijodiy jarayonlar inson tomonidan amalga oshirilishiga asoslanadi.
- Tahlilning kompleksligi. Xo'jalik faoliyatida boshqariladigan ob'ektni tadqiq etishda har tomonlama yondashishni bildiradi;
- Tahlilning usuliy ta'minotini rivojlantirish tamoyili. Analitik vazifalarni avtomatlashtirishni hal qilish ularni oldindan usuliy jihatdan hamda boshqaruv maqsadiga ko'ra tekshirishni talab etadi. Bundan tashqari, ko'p xo'jalik faoliyati turi paydo bo'lish bosqichida turadi, shu sababli mazkur tamoyilga amal qilish tizimni uzluksiz ishlashini ta'minlaydi.
- Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimida kichik tizimlarni mutonosib rivojlanish tamoyili «Kompleks iqtisodiy tahlil» da analitik masalalarni echimi boshqa tizimlar ma'lumotlariga asoslanadi. Shunga ko'ra mazkur tizim masalalarni qayta ishlash va joriy etish avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimidagi boshqa tizimlar faoliyatiga muvofiq tarzda belgilangan bosqichlar bo'yicha tashkil etiladi.
- Usuliy birlik tamoyili. Tizimning turli kompleks yoki bloklarida bir turdagi analitik masalalarning bajarilishi va amalga oshirilishining yagona usulini talab etadi. U analitik ma'lumotlarni qayta ishlashning tartibi hamda ro'yxatini bir me'yorga keltirish imkonini yaratadi.
- Aniq foydalanuvchiga mo'ljallangan natijaviy analitik ma'lumotlar tamoyili. Mazkur tamoyil tizimda qayta ishlanib tayer bo'lgan ma'lumotlar miqdori, shakli, turi bo'yicha aniq foydalanuvchiga boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun etkazib berishni ta'minlashga asoslangandir.

«Kompleks iqtisodiy tahlil» tizimini tashkil etishda yuqoridagi tamoyillariga amal qilish, uning turli elementlari, qismlarini boshqa tizimlar bilan aloqasini tartibga solish va samarali ishlashida o'z natijasini beradi.

O'rganilayotgan kichik tizimning tarkibiy qismlarini boshqaruv tizimining turi bo'yicha bir-biridan farqlangan xo'jalik faoliyatini tahlili tashkil etadi.

Ular:

- tahlil turlarida echiladigan alohida va o'zaro bog'langan ob'ektlar;
- kompleks yoki analitik masalalarni darajasi va masshtabi;
- usuliy, matematik, texnik va tashkiliy elementlardan iborat bo'ladi.

Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizilmasida analitik masalalarni samarali hal etilishi ko'p jihatdan tahlil usulini takomillashganligiga, ya'ni turli darajadagi ijtimoiy ishlab chiqarishning boshqarishni zamon talablariga javob berishiga bog'liq.

Xo'jalik faoliyat tahlili bo'yicha usuliy, analitik masalalarni EHM larda qayta ishlashda foydalaniladigan quyidagi jihatlarni o'zida aks ettirishi zarur:

- analitik va boshqa ko'rsatkichlar tushunchasiga aniq mazmunli ta'rif berilishi;
- shartli belgilarni bir xil bo'lishi;
- analitik ko'rsatkichlar hisoblarini amalga oshirishda eng maqbul usullarni qo'llash, kiritiladigan va chiqariladigan

informatsiyalarni aniq ro'yxati, shuningdek, analitik jadvallar shakli va shu kabilar.

Mazkur talablar ma'lumotlarni avtomatlashgan tarzda qayta ishlash shartlaridan kelib chiqadi. Noaniq yoki mazmuni to'liq ochib berilmagan ko'rsatkichlar analitik masalalarni hisob-kitob qilishda, dasturlarni ishlab chiqishda murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Agar ko'rsatkichlarni shartli belgilarini birligi hamda masalalarning eng maqbul echish usullari qo'llanilmas ekan, bu ham analitik masalalarni ishlash algoritmlarini tuzishda ko'plab qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Ko'rsatkichlarni belgilashda birlikni ta'minlash maqsadida ularni tavsiflovchi so'zlarning bosh harfi olinishi maqsadga muvofiqdir. Misol uchun, Yalpi mahsulot - YaM, Tovar mahsuloti - TM.

Bazis, reja, me'yoriy va haqiqatdagi ko'rsatkichlarni ifodalash uchun so'zlarni kichik bosh harflarini olish kerak va shartli belgini ifodalovchi bosh harflarning yuqori qismining o'ng tomoniga yoziladi. Misol uchun, TM^r , TM^x rejadagi va haqiqatdagi tovar mahsuloti.

Ko'rsatkichlarga ta'sir etuvchi omillarni belgilash uchun ham so'zlarning bosh harfi kichik ko'rinishda ifodalaniladi va asosiy shartli belgining pastki qismining o'ng tomoniga yozilishi kerak. Masalan, xaqiqatdagi tovar mahsulotining ko'payishi mehnat unumdorligini oshishi hisobiga bo'lishi

$$+TM_{mu}^x$$

Usuliy belgilarni to'la va aniq ifodalanishi analitik masalalarni algoritmlash tamoyilini bajarilishida muhim rol o'ynaydi. U bilan hisoblash ishlari ro'yxati, mantiqiylik va bir-biriga bog'liqlik, ularning bajarilishi, matematik izohlanishlari ta'minlanadi.

Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimda "Kompleks iqtisodiy tahlil" kichik tizimining matematik ta'minoti ko'p tomondan uning samaradorligini aniqlaydi. U til va dastur vositalari kompleksni qamrab olib masalalar echimi algoritmlarni amalga oshirishni ta'minlaydi.

Algoritmlash jarayonini tayyorlash ko'p mehnat talab qiladigan faoliyat jumlasiga kiradi. Analitik masalalarni algoritmlari kichik tizimdagi algoritmlar kompleksga birlashadi, u esa boshqaruv algoritmi bilan bir qatorda ishchi va standart algoritmlardan iborat bo'ladi.

Ishchi algoritmlar turli variantdagi masalalarni bajarishda qo'llansa, standart algoritmlar esa - zaruriy to'ldirishlar bilan aniq turdagi masalalarni hal qilishga tayinlangan bo'ladi.

Mazkur tizimning matematik ta'minotining dastur qismi ma'lumotlarni ishlashni struktura(tahlil turi bo'yicha) va bosqichlari(kiritish, nazorat, turlarga ajratish va hokazo) bo'yicha bo'linadi.

Usuliy ko'rsatmalar bilan o'zaro bog'langan dasturlar birgalikda kichik tizimning matematik ta'minotini tashkil etadi. Uning tarkibida:

- analitik masalalarni matematik algoritmlari;
- mashina algoritmi;
- tipavoy dasturlar;
- ko'rsatmalar va boshqa ta'minot qismlari bo'ladi.

Mazkur kichik tizimni tashkil etishda informatsiya ta'minoti muhim o'rin egallaydi. Uning asosini tahlil ma'lumotlari modeli tashkil etadi. Unda ma'lumotlar jalb etilishi, tartibi, uni

rasmiylashtirish kabi vazifalar ko'rsatib beriladi. Tahlil masalalari tartibidan kelib chiqib boshlang'ich massivlar aniqlanadi: ma'lumotlar to'plash tartibi, rasmiylashtirish, oqimi va hajmi, yangilanish davri, saqlanish muddati chiqariladigan hujjatlar, ularning taqdim etish tartibi va davri alohida mujassamlanadi. Informatsion ta'minot boshqa avtomatlashtirilgan boshqaruv tizilmasidagi kichik tizilmalar ma'lumotlar bazasini hamda massivlarini o'ziga qamrab oladi va tahlil turi bo'yicha kerakli ma'lumotlarni saqlaydi. Reja, hisob ma'lumotlari bilan birgalikda kiritilgan axborotlar asosida kichik tizimning analitik masalalarini echadigan funktsional massivlar tuziladi. Faoliyat natijasida chiqariladigan informatsiyalar shakllantirilib boshqaruv ehtiyojlari uchun etkazib beriladi yoki ularning ma'lumotlar bazasini to'ldiradi.

“Kompleks iqtisodiy tahlil” tizilmasida ma'lumotlar taminotini qurilishi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- ABT da ma'lumotlarni tashkil etishda usuliy va tashkiliy birlik bo'lishi;
- bir marta ma'lumotlarni kiritish va undan ko'p marta foydalanish;
- ma'lumotlarni markazlashgan tarzda saqlash;
- ma'lumotlarning kod va shifrlarini bir tizilmaga keltirish;
- boshqa tizim massivlari bilan aloqasini ta'minlash;
- savol-javob rejimida ishlash;
- ma'lumotlar massivlarini tizimda saqlashni ta'minlash.

Kichik tizimda ma'lumotlar ta'minotini loyihalashtirilishida foydalanish talabiga ko'ra ma'lumotlarni tayyorlashga katta e'tibor beriladi. U faqat zaruriy ma'lumotlarni emas, balki uning muddatini ham nazarda tutadi. Bu jihat esa boshqaruv funktsiyalarini to'liq bajarilishi uchun asos hisoblanadi.

Kichik tizimning samarali ishlashida texnik ta'minot ham muhim o'rin tutadi. U bir necha turdagi texnik vositalar yig'indisidan iborat bo'lib, analitik masalalar uning yordamida o'z vaqtida echiladi.

Texnik vositalarning qulayligi, ish bajarish hajmi, tezligi va arzonligi zamonaviyligi tizim tashkil etilayotganda e'tibor beradigan muhim jihattir.

Yana tizimning zaruriy bo'limlaridan biri tashkiliy ta'minotdir. U o'zida alohida shaxslar va bo'limlar, ularda qo'llaniladigan usullar va vositalarni aks ettirib kichik tuzilmani tashkil etishni va samarali funktsiyani ta'minlaydi. Tashkiliy ta'minotda quyidagi masalalar hal qilinadi:

- korxonalar tarkibiy bo'linmalarga bo'linadi;
- bo'linmadagi aniq analitik ishga javobgar shaxs tayinlanadi;
- bo'limlardagi shaxslarga tahlil ishlarini amalga oshirish topshiriladi va javobgarlik yuklatiladi;
- analitik ishlarni bajarishga mutaxassilar tanlanadi va o'qitiladi;
- bo'linmalar o'rtasidagi o'zaro aloqa va birgalikda harakat tashkil qilinadi.

Avtomatlashtirilgan tahlil ishlarini yanada yuqori darajaga ko'tarish uchun avtomatlashtirilgan boshqaruv tizilmasida xo'jalik faoliyatini tahlil qiluvchi maxsus kengash tashkil etilishi zarur. Mazkur kengash tashkiliy usuliy funktsiyalarni takomillashtirish bilan shug'ullanib, kichik tuzilmani yanada samarali ishlashini ta'minlaydi.

Tashkiliy ta'minot usullariga: huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy, xodimlar va texnik vositalar aloqasini tartibga solish kabilar kiradi.

Tashkiliy ta'minot vositalari kichik tizilmani yaratilishiga hamda uning amalga oshirilishiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

Birinchi guruh, umumtarmoq boshqaruvning usuliy moddiy aylanmalari, tipavoy loyiha echimlari bo'yicha usuliy moddiy aylanma, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizilmasida mazkur kichik tizilmaning takomillashtirish va joriy etish to'g'risida usuliy moddiy aylanmalar;

Ikkinchi guruh, korxonalar va uning bo'linmalari to'g'risida nizom, lavozimlarga tegishli ko'rsatmalar, analitik masalalarni echimini tashkil etish uchun ko'rsatma va shu kabilar.

Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimida “Kompleks iqtisodiy tahlil” ning o'zi hamda uning elementlari (usuliy, matematik, informatsion, texnik) rivojlanib boradi. Mazkur sifat jihatdan o'zgarish avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimining boshqa kichik tizimlar bilan chambarchas bog'liqlikda amalga oshiriladi.

3. Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimida analitik masalalar tasnifi

Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimidagi “Kompleks iqtisodiy tahlil” tizimida ko'plab miqdordagi analitik masalalar hal qilinadi. Ularni aniq tasnif qilinishi masalalarning navbatma-navbat ishlanib joriy etilishiga, natija esa tizimning funktsiyasini samaradorligini oshirishga ta'sir etadi. Ob'ektga tizimli va kompleks yondashishni rejalashtirish, hisob va tahlil masalalarini boshqaruv maqsadi va funktsiyasi uchun yagona tavsifini talab etadi.

Analitik masalalarning ijtimoiy tamoyillar talablariga javob bera oladigan tasnifining amaldagi turi mazmun tavsifi buyicha ajratiladi.

Boshqaruv jarayoniga bog'liqligiga ko'ra mazkur belgi bo'yicha masalalar quyidagi ko'rinishni oladi:

- tabiiy-buyumlashgan - aniq iste'mol qiymatini yaratishga ko'ra;
- iqtisodiy-qiymatni shakllanishiga ko'ra;
- ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi faoliyat bo'yicha;
- ekologik-tabiiy muhitni saqlash bo'yicha.

Analitik masalalar boshqaruv darajasi va turiga ko'ra ham tasnif etiladi:

- birinchi belgi bo'yicha: brigada, tsex, bo'lim, korxonalar, birlashma-ning xo'jalik faoliyati tegishli masalalarga bo'linadi;
- ikkinchi belgi bo'yicha: boshqaruv turi bo'yicha esa - tezkor, joriy va istiqbolli masalalarga ajratiladi.

O'z navbatida muayyan belgilar bo'yicha guruhlangan masalalarning ichida boshqariladigan ob'ekt mazmuniga ko'ra ham guruhlarga ajratiladi. Masalan; birinchi guruh muayyan mahsulot yaratish bo'yicha quyidagicha bo'linishi mumkin; ishlab chiqarishni tayyorlash, mehnat vositalari va predmetlari bilan ta'minlanish, ishlab chiqarish yordamchi ishlab chiqarish, sotish jarayoni va shu kabilar.

Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimida iqtisodiy tahlil natijalari ob'ekt ma'lumotlaridan foydalanish maqsadiga ko'ra ichki va tashqi foydalanuvchilar yo'nalishi bo'yicha ham alohida tayyorlanadi.

Ichki foydalanuvchilarga mo'ljallangan tahlil ma'lumotlari boshqaruv ehtiyojiga ko'ra barcha soha, jarayonlarni aks ettirish mumkin.

Tashqi foydalanuvchilar uchun esa ma'lumotlar olish ob'ektlari cheklangan bo'ladi.

Iqtisodiy tahlilga oid ko'plab adabiyotlarda ma'lumotlarni avtomatlashgan tarzda qayta ishlashda analitik masalalarni boshqa belgilariga ko'ra ham tasnif etishlar tavsiya etiladi.

Lekin, ularning barchasining asosida bir mazmun, u ham bo'lsa, iqtisodiy tahlil funktsiyasini avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimida doimiy va samarali amalga oshirishni ta'minlash yotadi.

4 Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimida iqtisodiy tahlilning rivojlantirish istiqbollari

Hozirgi davrda “Kompleks iqtisodiy tahlil” kichik tizimi avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimida to’la ma’noda rivojlanayotgani yo’q.

Ma’ruzada bayon etilgan avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimida mazkur tizimning o’rni, roli va mazmuni asosan nazariy bilimlar hamda shu bilan birgalikda amaliy tajribalarga asoslanib yoziladi. Xalq xo’jaligining turli tarmoqlarida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizilmasining iqtisodiy tahlil funksiyalari hamda uning keng yoyish - uning yaqin kelajakdagi rivojlanish yo’nalishi hisoblanadi.

Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimida xo’jalik foyiatini tahlil qilishning sifat jihatdan tinimsiz takomillashtirib borish ham ustuvor ahamiyatga ega yo’nalish bo’lib, bu bilan uning tobora samarali ishlashi ta’minlanadi.

Agar avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimining rivojlanishi ikkinchi yo’nalishdan borsa, u holda boshqaruvchi tizim (KIT) o’z mohiyatini saqlab qolgan holda o’zgaradi.

Ayni davrda avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimining tarkibida texnologik jarayonlarni avtomatlashgan boshqaruv tizimi(TJABT) shaklini qo’llanilishi ko’proq samara bermoqda. Biroq, bu xo’jalik faoliyatini boshqarishning avtomatlashtirishni bir tomoni bo’lib, u iste’mol qiymatining tabiiy buyumlashgan jihatini ifodalaydi. Lekin, mazkur jarayon aniq mahsulot qiymatini shakllanishi bilan chambarchas bog’lanlangan va barcha sarflar xarajat ko’rinishida hisobga olinadi. Shuning uchun, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini takomillashtirishning navbatdagi bosqichi TJABT ni xo’jalik jarayonini iqtisodiy tarkibiy qismi deb qaralib butun boshqaruv ob’ektini muhim elementi tarzida faoliyati ta’minlanadi.

Boshqaruvning samaradorligiga ko’p jihatdan ijtimoiy masalalar ham jiddiy ta’sir ko’rsatadi. Shu sababli mazkur ob’ektning ham avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimiga kiritish muhim ahamiyatga egadir. Bu bilan korxonani ijtimoiy-iqtisodiy masalalari o’rganib boriladi.

TJABT bilan iqtisodiy , ijtimoiy va boshqarish kichik tizimlarini birlashtirilishi avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimida xo’jalik faoliyatini rejalashtirish, hisob, tahlil, tartibga solish va ularning boshqaruv funksiyalari bilan birgalikda rivojlanishining istiqbolli yo’nalishi hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimida “Kompleks iqtisodiy tahlil” kichik tizimida “Moliyaviy tahlil” qismining ham alohida ob’ekt sifatida tashkil etish shart. Chunki, moliyaviy tahlil ma’lumotlari istalgan paytda foydalanuvchiga etkazilishi yoki o’rganilishi zarur bo’lib qoladi. Bu bir tomondan tezkorlikni ta’minlasa, ikkinchi tomondan tahlil ishlarini osonlashtiradi.

Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini yanada rivojlantirish ishlarida mutaxassislar roli ham juda kattadir. Shuning uchun korxonalarda avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini tashkil qila oladigan, uni samarali ishlashina ta’minlaydigan, ilg’or yangiliklarni joriy etadigan mutaxassislarni tayyorlash lozim.

Mavzuni takrorlash uchun savollar

1. ABT da iqtisodiy tahlilni tashkil etishning ahamiyati?
2. ABTda iqtisodiy tahlilni tashkil etishni qanday tamoyillari mavjud?
3. Kompleks tahlil tizimida ma’lumotlar ta’minotining qurilishi qanday tamoyillarga asoslanadi?
4. Analitik masalalar boshqaruv darajasi va turiga qarab qanday tasnif etiladi?
5. ABTda iqtisodiy tahlilning rivojlantirishni qanday istiqbollari mavjud?

Mavzuni mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar
Quyidagi tayanch iboralariga tushuntirishlar yozing

- avtomatik boshqarish tizimida kompleks iqtisodiy tahlilni tashkil qilish shakllari va usullari;
- avtomatik boshqarish tizimida iqtisodiy tahlilni tashkil etishning tamoyillari.
- funktsional modul;
- tashkiliy-texnik modul;
- tashkiliy-texnologik modullar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T., «O'zbekiston», 1993.
2. O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik to'g'risida»gi qonuni. –T. «O'zbekiston», 1991.
3. O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»- gi qonuni.-T., «O'zbekiston», 2000.
4. O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik jamiyatlari va shirkatlar to'g'risida» gi qonuni.-T. «O'zbekiston», 2000.
5. O'zbekiston Respublikasining «Davlat statistikasi to'g'risida»gi qonuni.-T., «O'zbekiston», 1993.
6. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi.-T., «O'zbekiston» 1995.
7. O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonuni.-T., «O'zbekiston», 1996.
8. O'zbekiston Respublikasining «Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida»gi qonuni.-T., «O'zbekiston». 1996.
9. O'zbekiston Respublikasining «Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi to'g'risida» gi qonuni.-T., «O'zbekiston». 1997.
10. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li.-T. «O'zbekiston», 1992.
11. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura: Nutqlar, maqollar, suhbatlar.-T., «O'zbekiston»,1993.
12. Karimov I.A. Iqtisodiy islohot: ma'suliyatli bosqich.-T., «O'zbekiston» 1994.
13. Karimov I.A. Istiqloq yo'li: muammolar va rejalar.-T., «O'zbekiston», 1992.
14. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida.-T., «O'zbekiston», 1995.
15. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari.-T., «O'zbekiston». 1995.
16. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.-T., «O'zbekiston» 1999.
17. Karimov I.A. Islohotlar strategiyasi – mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishdir. “O'zbekiston ovozi» gazetasi. 2003 yil 18 fevral.
18. Abdukarimov I.T. Analiz izderjek obrashcheniya v kooperativnoy torgovle.-M. «Ekonomika». 1968.
19. Abdukarimov I.T. Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish yo'llari.-T. “Iqtisodiyot va huquq dunyosi”, 1998.
20. Abdullaev R.A. va boshqalar. Iqtisodiy axborotlarni EHM da ishlashni avtomaolashtirish,-T, “O'qituvchi” 1990.
21. Abdullaev E., Ibrohimov A., Rahimov M. “Iqtisodiy tahlil”.-T.: “Mehnat”. 2001.
22. Bakanov M.I., SherementA.D. Teoriya ekonomicheskogo analiza.-M, «Finansi i statistika», 1998.
23. Baringolts S.B. Ekonomicheskij analiz xozyaystvennoy deyatelnosti na sovremennom etape razvitiya. M, «Finantsi i statistika», 1984.
24. Vahobov A.V., Ibrahimov A.T. Moliyaviy tahlil.-T.: «Sharq», 2002.
25. Voljin I.O, Ergashboev V.P. Moliyaviy tahlil. T, «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» 1998.
26. Ibrohimov A.T. Moliyaviy tahlil. –T, «Mehnat» 1995.
27. Paradaev M. «Iqtisodiy tahlil nazariyasi». «Zarafshon»-2001.
28. To'laxodjaeva M.M. Moliyaviy hisobotni va moliyaviy koeffitsientlarni tahlil qilish.-T. 1996.
29. G'ulomov S.S. «Investitsiyalarning loyihaviy tahlili».-T. 1998.
30. Savitskaya G.B. Analiz xozyaystvennoy deyatelnosti predpriyatiya.- Minsk, IP «Ekoprespektiva», 1997.